Лекин халқимиз улар ўйлаган йўлдан бормайди, ислоҳотлар жараёни энди ортга қайтмайди! Тобора янгиланаётган мамлакатимизда очиқлик ва ошкоралик, шаффофлик замони, юксак марраларни кўзлаган тараққиёт даври бошланди. Ҳақиқий ватанпарвар, эркинлик ва халқпарварлик туйғулари қалб нидосига айланган фаол одамларга эҳтиёж пайдо бўлди.

Бу эса, ўз навбатида, барчамизнинг зиммамизга бугунги давр талабларидан келиб чиқадиган улкан масъулият юклангани ва ҳар биримизнинг бу эҳтиёжни англашимиз зарурлигидан далолат беради.

Адабиётлар:

1. Ruziev, A. J. (2019). ИЗУЧЕНИЕ МИРОВОЗЗРЕНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЫСЛИТЕЛЕЙ КАК ИСТОРИЧЕСКОГО КРИТЕРИЯ. *Theoretical & Applied Science*, (11), 166-169.
2. Tajibayev, M. A., & Axmedov, J. T. (2022). SINERGETIK YONDASHUV-YOSHLARNING YANGI DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY JIHATLARIDAN BIRI SIFATIDA. *Scientific progress*, 3(3), 527-532.
3. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). THE CONCEPTS OF SUSTAINABILITY AND INSTABILITY IN SYNERGETICS ARE AN IMPORTANT PRINCIPLE. *Scientific progress*, 3(3), 930-933.
4. Kholbekova, M. A. T. U. (2022). APPLICATIONS AND DEVELOPMENTS OF SYNERGETICS. *Scientific progress*, 3(3), 942-945.
5. Tajibaev, M. A., & Rashidova, B. Y. (2022). CONTENT OF THE CONCEPT OF SYNERGETICS. *Scientific progress*, 3(3), 938-941.
6. Kulmatov, P. M., & Tajibaev, M. A. (2022). SYNERGETIC AAS A FACTOR FOR THE DEVELOPMENT OF MODERN SCIENCE. *Scientific progress*, 3(3), 925-929.
7. Tajibaev, M. A., & Kholbekova, M. U. (2022). SYNERGETIC METHODOLOGY SERVES HUMANITY. *Scientific progress*, 3(3), 934-937.
8. Abdurashidovich, T. M. (2022). YOSHLARDA SINERGETIK DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(3), 203-207.



9. Abdurashidovich, T. M. (2022). SINERGETIKA-YOSHLARNING YANGI DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRUVCHI BILIM SIFATIDA. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA*, 1(2), 69-73.
10. Azimova, S. Y., & Tojiboev, M. A. (2021). IMPROVEMENT OF SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORK IT IS OUR IMPORTANT TASK. *Scientific progress*, 2(5), 544-548.
11. <https://mediator.uz/jangiliklar/402-nizolarni-sudgachahal> qilishni raamlashtirishning dolzarb-masalalari.
12. <https://adolat.uz/frakciya/yangi-ozbekiston-halqchil-va-insonparvar-davlat-bolishi-har-birimizga-bogliq>
13. <https://strategy.uz>



O'RGANISHDAGI ILLUZIYA

Ulugova Shoxida Shoxruxovna
Ispan va italyan tillari kafedrasida dotsenti
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
Abdullayeva Soxiba Xudaynazar qizi
Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti
Roman-german tillar fakulteti
2215-guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'rganish va o'rganish illuziyasining tub omillari va ustuvor tamoyillari turli xil jihatdan o'rganib chiqildi va bu borada kundalik hayot tarzida qo'llanilishi mumkin bo'lgan oson, samarali yechimlari va turli sinalgan usullarining bir qancha shakllari ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: O'rganish ilmi, aktiv o'rganish, passiv o'rganish, multi-tasking tushunchasi, pomadora usuli.

O'quvchining eng katta muammosi bu o'rganishdagi illyuziya. O'quvchi deganda faqat talaba yoki maktabda ta'lim oladigan yoshlar emas, balki, hammani nazarda tutilgan. Inson yasharkan o'rganadi. O'rganarkan uning eng katta dushmani o'rganishdagi illyuziya bo'lib qolaveradi. Xo'sh o'rganishdagi illyuziya o'zi nima? Nega u bizga dushman?

O'rganishdagi illyuziya shunchaki "O'rgandim yoki bilaman" deb o'ylash. Bu holatda inson boshqalarga va o'ziga huddi o'rganayotgandek ko'rinadi. Eng qiziq va yomon tomoni bunga o'zi shu darajada ishonadi-ki, o'rganayotganiga bir zum ham shubha qilmaydi. Aslini olganda esa bu shunchaki illyuziya ya'ni boshqalarga va o'ziga o'rganayotgandek ko'rinishdir. U dars qiladi, u biror narsani o'rganishga harakat qiladi, u kitob o'qiydi, u bilim olyapman deb o'ylaydi. Lekin o'rganish illyuziyasi ta'sirida bo'lsa, undan chiqib ketgunga qadar aytarliq hech narsa o'rgana olmaydi. O'rganish illyuziyasi qanday hollarda yuzaga keladi?

1.Passiv o'rganish vaqtida. Passiv o'rganish deb ma'lumotlarni passiv holatda qabul qilish jarayoni aytiladi. O'qish va eshitib ma'lumot qabul qilish passiv o'rganishga misol bo'ladi. Chunki ko'p hollarda o'qilgan va tinglangan ma'lumotlar tahlil qilinmaydi. Inson miyaning eslab qolish funksiyasiga ishonadi. Bir insonning zo'r gapi bor edi: "Eslab qolish miyaning asosiy funksiyasi emas. Eslab qolmoqchimisiz yozib qo'y!". Ya'ni aytilmoqchi-ki, miyada eslab qolishdan



ham muhimroq vazifalar bor. Uni eslab qolish bilan band qilish shart emas. o'rganish holati tahlil qilib, o'rganilgan ma'lumotlar yozib olinmas ekan o'rganish illyuziyasi hosil bo'laveradi. O'rganmoqdaman deb o'ylanadi, lekin aslida hech narsa o'rganilmaydi. 2. Juda ko'p narsa bir vaqtda o'rganilsa. Multi-tasking degan tushuncha bor. Ya'ni bir nechta ishni bir vaqtda qilish. Yana miya faoliyatiga qaytamiz. Miya sifatli multi-tasking qila olmaydi. Bu uning asosiy funksiyasi emas. Inson biror ma'lumotni qabul qilgan ekan, uning diqqati shu ma'lumot kelayotgan manbada bo'ladi. Agar bir vaqtning o'zida bir nechta ma'lumotlar qabul qilinsa miya diqqatni har biriga qarata olmaydi va bir vaqtning o'zida juda ko'p narsa o'rganish ko'pincha hech nima o'rganmaslikka sabab bo'ladi.

Siz kutubxonadan yoki xonangizdan chiqmasdan dars qilayotganga yoki ishxonadan chiqmasdan qattiq ishlayotganga o'xshab ko'rinaverasiz, hatto o'zingizga ham. Ammo hech narsa o'rganmaysiz, o'rgangan taqdiringizda ham juda sekin o'zlashtirasiz. Universitet talabalarida ham o'rganish illyuziyasi bo'ladi. Buning asosiy sababi darslar soni juda ko'pligi. Bir vaqtning o'zida har xil narsani o'rganishga majbur bo'lish, ularda ham ta'lim illyuziyasini hosil qiladi.

3. Eslab qolish. Haqiqiy ilm tushunish orqali hosil bo'ladi. Biror narsani tushunishingiz, uni har qanday holatda ham eslab olishingizga sabab bo'ladi. Ko'p test ishlash esa sizda o'rganish illyuziyasini yana ham ko'paytirib yuboradi, chunki test ishlaydigan inson testda tushadigan savollarni javobini eslab qolishga harakat qiladi. Tushunishga emas, javoblarni eslab qolishga harakat esa o'rganish illyuziyasidan boshqa hech narsa emas. Umumiyatda o'rganish illyuziyasiga qisqa ta'rif: O'rganayotgandek ko'rinasiz, lekin hech narsa o'rganmaysiz.

Learning "How to learn" Barbara Oakley degan ayol bor. O'rganish fanlari doktori, professor. Tasavvur qilyapsizmi? O'rganish fanlari doktori. 20 yoshga kirib, o'rganish fani bor ekanini eshitganimga 7-8 oy bo'ldi. Barbara bilishimcha o'zi o'qigan Oklend universitetida "The science of learning" ya'ni o'rganish fanidan dars ham beradi. Undan tashqari "A mind for numbers" kitobi muallifi ham hisoblanadi.

Barbara haqida ustozim gapirib berganlarida, uning o'rganish fanidan professor ekanini eshitib qoyil qolgandim. Albatta o'rganish fani bor ekaniga ko'proq qoyil qolgandim. Sezganingizdek o'rganish illyuziyasiga tushmaslikning birinchi usuli qanday to'g'ri o'rganishni o'rganishdir. Qanday to'g'ri o'rganish mumkin?

1. **Bo'laklash.** O'rganish jarayonida biror kattaroq ma'lumotga duch kelganingizda uni qismlarga bo'lib, o'zingiz uchun o'rganishga qulay formatga keltirib oling. Xohlaymizmi yo'qmi, miya katta informatsiyalarni bir umr esda saqlay olmaydi. Chunki bu uning asosiy funksiyasi emas. Buni yuqorida ham aytdik. Ma'lumotlarni



bo'laklaganingizda esa o'rganishga, tahlil qilishga va tushunishga ancha oson bo'ladi. Bu orqali siz o'rganishdagi illyuziyani yengib o'tishingiz mumkin. 2. **Pomodoro usuli.** Hammaga tanish bo'lgan bu usuldan foydalanish o'rganish jarayonini ancha tezlashtiradi. Usulga ko'ra 25 daqiqa o'rganasiz, 5daqiqa dam olasiz. 25 daqiqa o'rganasiz yana 5 daqiqa davom etasiz. Ko'pchilik o'rganish jarayonida qiladigan bir xato bor. Ular tanaffussiz o'rganadi.

Tanaffussiz o'rganish esa ta'lim illyuziyasiga sabab bo'ladi. Nega tanaffus kerak? O'rganish jarayonida siz ma'lumotlarga chuqur kirasiz. Tanaffusda esa sayozlashasiz va chalg'iysiz. Chalg'igan vaqtingizda ham ma'lumotlarni eslay olsangiz demak siz o'rgangan bo'lasiz. Aksi bo'lsa, sizda shunchaki o'rganish illyuziyasi. Bir narsani esingizdan chiqarmang: Eslab qolish muhim emas, eslab olish muhim.

3. **Aktiv o'rganish.** Yuqorida passiv o'rganish deb faqat eshitish yoki o'qish orqali o'rganishni nazarda tutdik. Aktiv o'rganish nima? U passiv o'rganishdan so'ng o'rganilgan ma'lumotlarni tahlil qilish, tushunish uchun ma'lumotlarni yana qayta ko'rib chiqish. Tahlilda manbaga qaramasdan nima o'rganilganini qaytarish va eslab chiqishingiz mumkin.

4. **Boshqalarga o'rgatish.** Boshqalarga faqat o'rgangan narsangizni o'rgata olasiz. O'rganmagan narsangizni tabiiyki o'rgata olmaysiz. Shuning uchun biror narsani o'rganganingizdan so'ng kimgadir u haqida aytib, gapirib, o'rganganingizni o'rgatishga harakat qiling. O'rgata olsangiz, o'rganibsiz. O'rgata olmasangiz o'zingiz ham qaytadan o'rganing. Boshqalarga o'rgatish usulida albatta kimnidir oldingizga o'tkazib olib o'rgatish nazarda tutilmagan. Sizda telegram blog bo'lsa, shu blog'ga yozib qo'yishingiz, u orqali odamlarga olgan bilimingizni ulashishingiz mumkin masalan. Yuqorida aytgan bir fikrimni ya'ni "Eslab qolish emas, eslab olish muhim" deganimni yaxshiroq yoritib bermoqchiman. Inson nomining o'zi unutuluvchi demakdir. Siz xohlasangiz ham ko'p ma'lumotlarni bir umr eslab qola olmaysiz. Demak-ki, eslab qolish muhim emas. Ma'lumotlar sizga kerak bo'lgan vaqt eslab olish muhim. Eslab qolish va eslab olish farqli narsalar. Kitob o'qidingiz 1 oydan keyin hammasi esingizdan chiqib ketdi. Tabiiy, siz eslab qola olmadingiz. Kitob o'qidingiz va 5 daqiqadan so'ng nimalar haqida o'qiganingizni eslab ko'rdingiz. Eslay oldingiz. Katta ehtimol oylar o'tib ham shu eslaganlaringizni eslab qola olasiz. Eslab qolmayapsiz, eslab olyapsiz.

O'rganish illyuziyasida bo'lsangiz undan chiqishga harakat qiling. Chunki amal qilinmagan har bir ilm, o'z egasining zarariga hujjat bo'ladi.



Foydalanilgan veb-saytlar:

1. ChatPGT
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Barbara_Oakley - Barbara Oakley
3. [https://inspirationeducation.co.nz/study-tips/illusions-learning-may-robbing-children-success-school/#:~:text=An illusion of learning is actually know about a topic](https://inspirationeducation.co.nz/study-tips/illusions-learning-may-robbing-children-success-school/#:~:text=An%20illusion%20of%20learning%20is%20actually%20know%20about%20a%20topic) –
4. Ta'lim illyuziyasi haqida



ISLOM DINING TA'LIM-TARBIYAGA TA'SIRI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand Filiali

Kompyuter Injinereng fakulteti

KI23-02 guruh talabasi

JURAYEVA.Z.X

Annotatsiya: Ushbu maqola Islom dinining ta'lim-tarbiyaga ta'siri, ta'lim va tarbiya haqida Quroni Karimda berilgan suralar, shu haqida hadislar, Quroni Karimning tarbiyaga, tasiri qay darajada ekanligi, talim-tarbiyada diniy masalalar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье речь идет о влиянии ислама на образование, сурах и хадисах об образовании и обучении в Свяенном Коране. В образовании освещена тема религиозных вопросов.

Kalit so'zlar: Din, ta'lim, tarbiya, Qur'oni Karim, oyat, axloq, ruhiy tarbiya, ma'naviyat, marifat.

Islom dini VII asrda Arabiston yarim orolining janubiy-g'arbiy tomonidagi viloyatlarda xususan, Hijoz vohasida joylashgan. Makka va Madina shaharlarida yashaydigan qabilalar orasida vujudga kelgan yangi jahon dinidir. Islom so'zi arabcha bo'lib, "Itoat", "Bo'ysunish" manosini bildiradi. Bu dinga ishonuvchilar "Muslim" deb ataladi. Islom dini, Allohning Muxammad(s.a.v) nabi orqali nashr etilgan ilohiy, diniy qonunlar to'plamidir. Bu diniy madaniyat ko'pgina muqaddas kitoblarda to'planib, 1400-yil mobaynida rivojlantirilgan. Islomning asosiy manbalari uchta: Quron, Sunnat va Hadislar. "Qur'on"-dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bulib, arab tilida "qiroat" ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 sura, 6236 oyatdan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. "Qur'on"ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilgan ekan, uning insonning ma'naviy kamolga yetishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz.

Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olamshumul ta'limot. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yoru-birodar qilib, tinch omon yashashlarini o'qtirib keladi. Xullas, Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganidek: "Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun iymon, ham axloq,



ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik. U quruq aqidalar va yaxshi o'g'itlariga amal qiladilar. Mehr-oqibqqli, oriyatli, nomusli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar." Demak, deyarli 15 asrdan beri ko'p musulmonlar (qariyb 1.5 mlyard)ning axloqiy-ma'naviy dunyosini mustahkamlab kelayotgan islom dini, Qur'oni Karim, Hadislar, ayniqsa hadis ilmining buyuk allomalari Ismoil al-Buxoriy(810-870y), Imom at-Termiziy(824-892y)lar g'oyalarining ahamiyati bugungi kunda ham beqiyos. O'lkamizga Islom dini kirib kelmasidan oldin, biz zardushtiylik dinida edik. Ta'lim jarayonlari esa toshga bitilib yozilar,o'qitilar edi, negaki u paytda qog'oz qimmat edi. Nisbattan ta'lim jarayonidan ko'ra,bizda tijorat va homashyoga bo'lgan e'tibor kuchli edi. Arablar yurtimizga kirib kelishi natijasida, fan-texnika, adabiyot, tibbiyot kabi yo'nalishlar rivojlandi desak xato aytmagan bo'lamiz.

Ta'lim-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va shaxs, oila, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladigan shuningdek ma'lum bilimlar,ko'nikmalar,qadriyatlar,tajriba va kompetetsiya yig'indisi bo'lgan intellektual,ma'naviy-marifiy ta'limning yagona yo'naltirilgan jarayoni shaxsning axloqiy va ijodiy, jismoniy va kasbiy rivojlanishi, uning ta'lim ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish.Islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim kasb etadi.

Ma'lumki,inson kamolati va avvalo uning ilim va tafakkur darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish,ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan.Ilm-fan,ma'rifat taraqqiy etgan jamiyatgina ijtimoiy,iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlanadi."Qur'on"ning "Zumar" surasi 9-oyatida kishilarni ilm o'rganishga davat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: "Aytin:Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bulurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalari pand-nasihat qila olurlar."¹Islomdan insonning aqliy kamolati va tafakkurini rivojlantirishga katta etibor beriladi:bular ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash, so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish,fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiladi.

Alloma asarlarida axloqiy tayarbiyaga oid ta'limotlarning markazida komillik, insonlarning o'zaro mehribon bo'lishlari,bir-birlariga har doim yordam berishi,ahil-totuv yashash kerakligi,halol mehnat qilish,yaxshilik ,ezgulik g'oyalari yotadi.Imom

¹ Quroni Karim "Zumar" surasi 9- oyat.



Buxoriy qalbi pok, iymonli, atrofdagilariga umuman zarar yetkazmaydigan, odamlarga faqat yaxshilik qiladigan va yordam beradigan insonlarga axloqan barkamoldeb hisoblaydi. Yaxshilik va ezgulik inson axloqining asosiy fazilatlaridan biridir. Alloma “Al-Adab al-mufrat” asarida inson axloqi, odobi, tarbiyasi, ma’naviy komolatiga doir hadislarni turli mavzular buyicha tasnif qilgan va izohlab bergan.

Tarbiya shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakillantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo’lgan xususiyatlarga ega bo’lishini ta’minlash yo’lida ko’riladigan chora tadbirlar yig’indisi. Tarbiya insonning insonligini ta’minlaydigan eng qadimiy va adabiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo’la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o’tadi. Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir.² Ta’lim-bilim berish, malaka va ko’nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Payg’ambarimiz: ”Bolalaringizni yetti yoshida namozga o’rgating. Agar o’n yoshida o’qimasa uringiz”, -demishlar.

Tarbiya farzandni doimo nazoratga olish, kuzatib borish degani, Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga maqtovlar bo’lsin, degan. Bu oyatda Alloh Rob ismini keltirgan. ”Robbil a’lamiyn”-butun olamlarning murabbiysi degani. Agar Alloh murabbiyligi, ya’ni nazorati, kuzatuvini lahza to’xtatsa, olamlar izidan chiqib ketadi.

Agar murabbiy yoki ota-ona farzandiga bir lahza etiborsiz bo’lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi.

Shariati Islom farzandga birinchi o’rinda ota onani javobgar qilib qo’ygan. Ota-ona zimmasiga tarbiyani vojib qilib yuklagan. Ko’p jixatdan farzandning tarbiyasida onalarning ta’siri katta buladi. Ota-ona farzandini tarbiya qilish kerak bo’lgan paytda orzu-havas uchun tirikchilik qilishga majbur, bola tarbiya oladigan yoshda to’liq tarbiya olamay qoladi. Ammo, afsuski, ertaga orzuhavaslar o’tmay qolishi bor.

Aslida orzu-havas chiroyli tarbiya bilan bo’ladi. Payg’ambarimiz sollollohu alayhi vasallamning: ”Ota farzandiga chiroyli tarbiyadan ko’ra, yaxshi odob berishdan ko’ra yaxshiroq narsa meros qoldirmagan”, degan hadislar bor.

² Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston Yoxud Axloq.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Islom dini qanchalik go'zal din ekanligini har bir musulmon ich-ichidan his qiladi. Islom dini va uning muqaddas kitobi

Qur'oni Karim insonni hech qachon yomonlik tomon boshlamaydi, aksincha yaxshilikka yetaklaydi. Islom dinida ham ta'lim-tarbiyaga katta etibor berilgan. Dinimiz beshikdan qabirgacha foydali ilm o'rganishga buyiradi. Farzand tarbiyasida uning ota-onasi masul hisoblanadi. Farzand tarbiyasini, islom ruhida qilgan yaxshi, Farzand tarbiyasi onaning qornidaligidan boshlanadi. Farzand tarbiyasiga ko'proq ona masul hisoblanadi. Payg'ambarimiz Rasululloh sallallohu alayhi va sallam: "Hech bir ota-ona farzandlariga go'zal tarbiya va yaxshi odobdan ortiq bir tuhfa in'om etolmaydi" deydi.

Ilm-u fan-dengiz unda had,

Tolibi ilm unda g'avvosdir abad. (Jaloliddin Rumiy)

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Asqar Zunnunov "ШАРК" НАШРИЕТ-МАТБАА АКЦИЯДЦРЛИК КЦМПАНИЯСИ БЦЩ ТАХРИРИЯТИ TOSHKENT-2004
2. Abdulla Avloniy "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ"
3. <https://muslimun.uz/iclomda-talim-va-tarbiya/>
4. <https://qalampir.uz/uz/news/tarbiya-oiladan-boshlanadi-4809>
5. Buyuk siymolar, allomalar 1-kitob, -Toshkent, fan, 1995.
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №.



SALOHIDDIN AYYUBIYNING ISLOM OLAMIGA QO'SHGAN HISSASI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov
TATU Samarqand filiali
Kompyuter Injineriing fakulteti
KI23-02 guruh talabasi
SALIYEV.S.J

Annotatsiya: Ushbu maqolada asli kurd millatiga mansub bo'lgan sarkarda, Misr va Shom hukmdori, Quddusni salbchilar qo'ldan ozod etgan halaskor, Ayyubiylar sulolasi asoschisi Salohiddin al-Ayyubiyga bag'shlanadi.

Аннотация: Данная статья посвящена Салахиддину аль-Айюби, курдскому генералу, правителю Египта и Сирии, спасителю, освободившему Иерусалим от крестоносцев, основателю династии Айюбидов.

Abstract: This article is dedicated to Salahiddin al-Ayyubi, a Kurdish general, the ruler of Egypt and Syria, the savior who freed Jerusalem from the Crusaders, and the founder of the Ayyubid dynasty.

Kalit so'zlar: Quddus, salibchilar, yepiskop, islom, Salohiddin, fath, halifa,

Tarixda buyuk sarkardalar ko'p ammo Misr va Shom hukmdori, Quddusni salbchilar qo'ldan ozod etgan qomondon Salohiddin Ayyubiyga o'xshagan sarkarda boshqa yo'q. U umri davomida salibchilarning 27 ta qo'shinini mag'lub etgan. Uning asl ism-sharifi Yusuf ibn Ayub bo'lgan.

U milodiy 1137 (hijriy 532) yili Iroqning Tikrit shahrida tavallud topadi. U 1174-yilda Nurad-din o'limidan ko'p o'tmay, Salohiddin Shom (Suriya)ni bosib olishga kirishadi, tez orada Damashq shahrini jangsiz egallaydi. Ammo Salohiddin Mosuldagi Zengid qal'asini egallab ola olmadi. Salohiddin 1177-yilda Misrga qaytadi. Shundan so'ng u Shimoliy Suriya va Yuqori Mesopatamiya yerlarini egallaydi.

Salohiddin Ayyubiy milodiy 1171-1193-yillarda Misr, Shom, umuman, g'arbda Tunis yerlarigacha, sharqda Frot daryosigacha, shimolda Mo'sil va Halabdan to janubdagi Yamangacha bo'lgan yerlarda – hatto Hijoz o'lkasi: muqaddas Makka-Madinada ham adolatli hukmronlik qilgan.

Salohiddin Ayyubiy Ahli sunnat va jamoatning ash'ariya aqidaviy mazhabiga taqlid qiluvchi, sof islomiy e'tiqodga og'ishmay amal qiluvchi, diniy ilmlarni chuqur o'zlashtirgan ana shunday buyuk islom fotihi edi.



Salohiddin Ayyubiy o‘zi hukmronlik qilgan yerlarda Alloh taoloning kalimasini ulug‘ladi, tavhidni oliy qildi, Islom hukmlarini butun dunyo musulmonlarining ulamolari rozi bo‘ladigan tarzda joriy qildi, musulmonlarning hukmdorlari eng-eng adolatli bo‘lishlarini butun dunyoga oshkor qildi.

Salohiddin Ayyubiy Bag‘dodni, Misrni, Shomni, Yamanni, Hijozni, Tunisni va Halabni, bir so‘z bilan aytganda, Islom davlatlarining bosh markazlarini qo‘lga kiritgan bo‘lsa ham, ana shunday buyuk fotih, ulug‘ hukmdor, amalda mustaqil saltanat yuritgan bo‘lishiga qaramasdan xalifalik da‘vo qilib chiqqan emas, xalifalik davlati tuzishga harakat qilgan emas. Shuncha janglarni o‘tkazgan qomondonligiga qaramay u juda kamtar edi. Qur‘on tilovatlarini tinglashni yaxshi ko‘rar, hamma narsadan ko‘ra jihodga ixlosmand bo‘lgan.

Uni Yevropada “Saladdin “nomi bilan atashgan. “Men uchun barchasi amakim bilan bo‘lgan yurishlardan boshlandi. U Misrni qo‘lga kiritgach, vafot etdi. Shundan so‘ng, Alloh menga o‘zim kutmagan hokimiyatni berdi”, deb yozadi mashhur sarkarda Salohiddin Ayyubiy o‘z qaydnomalarida.

Yetarlicha kuch va obro‘ to‘plagan Salohiddining ko‘ziga musulmonlarning «Birinchi qiblasi» «Muqaddas zamin» nomi bilan ulug‘lanuvchi Quddus ko‘rinmasligi mumkin emas edi. 200 ming kishilik qo‘shinga ega Suriya va Misr hukmdori Salohiddin salibchilarda daxshat hissini uyg‘otgan.

Salohiddin Misrda mustaqil davlat tuzgach, 1170-yilda salibchilar ustiga yurish qiladi. Remle yaqinida Quddus qiroli Balduin IV bilan bo‘lib o‘tgan jangda sulton kutilmaganda mag‘lubiyatga uchraydi. Shundan so‘ng, Ayyubiylar sultoni Qohiraga qaytishga majbur bo‘ladi. Salohiddin Quddusni qaytarib olishga qasam ichgan edi. Shu sababli navbatdagi yurishga har tomonlama tayyorgarlik ko‘radi. U 1182-yilda Mosul amirligiga hujum qilib, ularni o‘ziga bo‘ysundiradi. Keyinchalik, Salohiddin salibchilar bilan ittifoqda bo‘lgan Aleppo (hozirgi Halab) qal‘asini egallaydi. Sulton salibchilarning barcha ittifoqchilarni birma-bir yo‘q qilgach, nasroniylar ustiga yurish qilish uchun qulay fursat kutdi.

Lekin Salohiddin kichik g‘alabalardan g‘ururlanib ko‘r-ko‘rona Quddusga bostirib bormadi. U juda aqilli strateg edi, jangdan charchagan qo‘shiniga dam beradi va janga qulay fursatni kutadi.

Tez orada Salohiddin kutgan payt keladi, moxov bo‘lib jon talvasasida yotgan Quddus qiroli Balduin IV 1185-yilda vafot etadi. Aynan Balduin IV Salohiddini Quddusga hujum qilishdan qaytarib turgan edi. Taxt esa qirolning olti yashar og‘li Balduin V ga qoladi. Taxtga yosh bola kelganidan foydalangan Gi de Luzinyan va Reno de Shatilon hokimiyatni egallashadi. Luzinyan o‘zini qirol deb e‘lon qiladi.



Luzinyan Salohiddinni yomon ko'rar edi, lekin qirol Balduin IV agar salibchilar Salohiddin bilan to'qnashsa salibchilar yengilishini bilar edi shu bois Balduin IV Luzinyanni tiyib turgan. Keyinchalik qirol bo'lgan Luzinyanga hech kim qarshilik ko'rsatolmadi. Luzinyan buyrug'i bilan Hajga ketayotgan karvon talanadi. Shu voqeadan so'ng muqaddas Quddus uchun urush boshlanishi aniq bo'lib qoldi.

Salibchilar qo'shini 1185-yil yozida Salohiddinga qarshi yurushga otlanadilar. Qal'adagi ayrim ritsarlar Luzinyanni fikridan qaytarishga urunadilar lekin g'alabani o'ylab ko'zi ko'r bo'lgan Luzinyan ularni fikrini e'tiborga ham olmaydi. Mag'lubiyat aniq bo'lib qolgani uchun ba'zi o'z odamlarini o'limga yuborishni istamagan ritsarlar Quddusdan chekinadilar, ba'zilar qolib Salohiddining hujumiga tayyorlanadilar. Salohiddinga qarshi Luzinyan boshchiligida yo'lga chiqib ketgan qo'shin cho'lda tashnalikda borardi. Salohiddin ularni Xettin qishlog'i yaqinida tormor etadi. Jangda deyarli barcha kelgan salibchilar qirib tashlanadi. Qirol Gi de Luzinyan esa asir olinadi, lekin o'ldirilmaydi.

Salohiddin qo'shini Quddusga yetib keladi, bu paytda Quddusda 60 ming atrofida salibchilar qolgan edi. Rivoyatlarda aytilishicha Salohiddin qo'shinining vajohatini ko'rgan xristian yepiskoplari islomni qabul qilib shahardan eson omon chiqib ketmoqchi ham bo'lishgan. Shahar 20-sentyabrdan 27-sentyabrgacha bo'lgan oraliqda qamal qilinadi. 27-sentyabr kuni shahar devori buzuladi. Mag'lubiyat aniqligini bilgan salibchilar qomondoni Salohiddinning oldiga elchi yuboradi. Biroq Salohiddin elchini qabul qilmay shunday dedi:

«Yuz yil oldin salibchilar Quddusga qanday kirgan bo'lsalar men ham shunday kiraman».

Salibchilar Quddusni egallashganda barcha musulmonlarni qilichdan o'tkazishgan edi. Shahar qamali bir muddat davom etdi. Ilojsiz qolgan qal'a qomondoni sultonning xuzuriga o'zi elchi bo'lib keldi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Salohiddin bilan ritsar o'rtasida shunday suhbat bo'lib o'tgan.

Salohiddin al-Ayyubiy: — Quddus mening qo'limda. Agar xohlasam, u qulaydi.

Quddus qo'mondoni: — Mehribonlik buyuk hukmdorlarga xos xususiyatdir.

Salohiddin al-Ayyubiy: — Masihiylar Muqaddas yerni egallab olishganda, hamma musulmonlarni yo'q qilishdi. Mening xalqim ham shuni xohlaydi.

Quddus qo'mondoni: — Agar siz qasos olsangiz, nasroniylar bundan ham katta qo'shin bilan qaytadilar. Va urush hech qachon tugamaydi.

Salohiddin al-Ayyubiy: — Siz oqilona gapiryapsiz, ritsar. Agar barcha raqiblarim sizga o'xshaganida edi, biz hech qachon bu urushda g'olib chiqmagan bo'lardik.



Sulton Salohiddin Quddusdagi barcha nasroniylarni to'lov evaziga shaharni tark etishlari uchun ruxsat beradi. Qal'a qo'mondoni bu taklifga rozi bo'ldi.

Rivoyatlarda aytilishicha Quddusni himoya qilgan ritsar Salohiddin

Mosulda egallab ola olmagan Zengid qal'asini mudofaasini tashkillashtirgan salbchi ritsarining o'g'li bo'lgan.

Lekin harbiy strateg va tarixchilar Salohiddin Quddusdan oldin Tir (hozirgi Livan qirg'oqlaridagi shahar)ni qo'lga kiritishi kerak edi deb hisolaydilar. Chunki Salohiddinning strategik jihatdan Quddusdan oldin Tirni qo'lga kiritishi mantiyqiyroq bo'lar edi. Lekin Salohiddin musulmonlar uchun Quddus muqaddas shahar bo'lganligi sababli ham birinchi bo'lib Quddusni egalladi. Lekin baribir Salohiddin Tirga ham yurush qiladi. Lekin Tir mudofaasida turgan ritsar Montferralik Konard shahar mudofaasini kuchaytiradi va Salohiddinning ikki marta ketma-ket qilingan qamaliga dosh beradi. 1189-yilda Salohiddin qirol Luzinyanni ozod qiladi. Luzinyan va rafiqasi Sibella Tir shahriga kirmoqchi bo'lishganda shahar mudofaasini boshqarayotgan ritsar Konard bunga izn bermaydi, sababi u Luzinyanni qirol sifatida tan olmasdi. Luzinyan yanada orqaga chekinadi.

Salohiddin al-Ayyubiy Quddusga juma kuni kirib keldi. O'sha kuni shaharda azon aytilib juma namozi o'qildi. Salohiddin Quddusni egallagach Askalon, Akra, Tiveriada va Trablus grafligining bir qismini egalladi. Musulmonlar kuchga to'lganidan qo'rquvga tushgan Rim Papasi Kilment III yangi salib yurishini tashkillashtirdi. Bu yurishda Angliya qirol Richerd I Sheryurak, Fransiya qirol Filipp II va Germaniya imperatori Fridrix I Barbarossa ishtirok etdi.

Lekin Quddusning qulashi yangi urushga «Uchinchi salib yurishlari»ga sabab bo'ladi. Bu urushlar tarixda ikki din o'rtasida bo'lgan eng katta urushlar sifatida qoldi. Insoniyat tarixida ikki din to'qnashuvidagi hech bir urushda bunchalik qon to'kilmagan. Uchinchi salib yurishlarida qirol Richardning shaxsan o'zi qatnashadi, Salohiddin qirol Richard bilan bir necha marta to'qnashadi va katta talofatlarfga uchraydi. Salohiddin orqaga chekinib Misr va Falastinni bog'lovchi hududdagi istehkomlarni vayron qiladi. Lekin, Richard Quddusga hujum qilmaydi va u ham orqaga chekinadi, keyingi yillarda sulh tuziladi hamda Quddusda uzoq kutilgan tinchlik o'rnatiladi.

Aytishlaricha Salohiddin Quddus qaytarilmagunicha kulmaslikga ont ichgan, odamlar undan buning sababini so'rashganda u shunday javob bergan:
«Hazrati Muhammad alayhissalomning merojga ko'tarilganlari Masjid Alaqso tutqun ekan, hazrati Umar fath etgan Quddus asir ekan men qanday kulaman» degan



ekan. U va'dasida turib Quddus fath etilmaguncha kulmagan. Odamlar uning ilk tabassumini Quddus jangida g'olib bo'lganida ko'rishgan.

Buyuk sarkarda va podshoh Salohiddin Ayyubiy 1193-yilning 4-mart kuni Damashq shahrida vafot etadi. O'limidan oldin ham u o'zning qanday saxovatli inson ekanini namoyon qiladi, u o'z boyliklarini kambag'al fuqorolarga beradi.

Salohiddining qabri Suriyaning Damashq shahrida Umaviylar masjidining shimoli-g'arbiy burchagida joylashgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak buyuk sarkarda va podshoh Salohiddin Ayyubiy islom olamidagi eng katta fotihlardan biri, adolatli shoh, kuchli sarkarda bo'lgan. U halifalik qurmadi, lekin u halifalik qurishga haqqi bor shoh edi, zero u fath qiligan Quddusni o'zidan oldin faqat halifa Umar ibn Hattobgina fath qilishga erishgan. Salohiddin Ayyubiy islom olamiga o'z hayotini baxsh etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Wikipedia : <https://en.wikipedia.org/wiki/Saladin>
2. Ahlisunna.uz : https://ahlisunna.uz/salohiddin_ayyubiy_ashariy_bolgan/
3. «Salib yurishlaridagi arab tarixchilari» Kaliforniya unversiteti matbuoti.1984-yil, AQSH. 99100-betlar.
4. Qalampir.uz <https://qalampir.uz/uz/news/k-uddusning-fat%D2%B3https://qalampir.uz/uz/news/k-uddusning-fat%D2%B3-etilishi-salo%D2%B3iddin-al-ayyubiy-salibchilarni-k-anday-yer-tishlatgan-49843etilishisalo%D2%B3iddin-al-ayyubiy-salibchilarni-k-anday-yer-tishlatgan-49843>
5. https://t.me/Salohiddin_Ayubbiy/39
6. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
7. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
8. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.



MA'RIFATPARVAR JADIDLAR HAYOTI VA JADIDCHILIK HARAKATLARI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov
TATU Samarqand filiali
Kompyuter Injineriing fakulteti
KI23-02 guruh talabasi
ORTIQBOYEV.D.I

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'rta Osiyoda jadidlarning mahalliy xalqga ma'rifatini va dunyo qarashini oshirish yo'lida qilgan harakatlari yoritilib o'tilgan. Turkiston, Buxoro va Xiva xonligidagi jadidchilik harakatlari keltirib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье освещаются усилия джадидов в Центральной Азии по повышению просвещенности и мировоззрения местного населения.

Abstract: This article highlights the efforts made by Jadids in Central Asia to increase the enlightenment and world view of the local people.

Kalit so'zlar: *jadid, jadidchilik, sovet tuzumi, ma'rifatchilik, mafkura.*

Ma'lumki o'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasining ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Aslida jadid so'zi (arabcha "jaded"-yangi) yangilanish ma'nosini anglatib, yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullarini jamiyatga tadbiiq etishdan iborat ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy harakat, shu oqim tarafdorlarining umumiy nomi. Jadidchilik XIX asr oxiri va XX asr birinchi chorigada Turkistonda milliy ozodlik harakatining va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakillandi¹.

Shu o'rinda ma'rifatparvar shoir, zabardast tilshunos, tarixshunos olim, ilk o'zbek matbaachilaridan biri Ibratning yangi maktablar ochish, o'qituvchilar tayyorlash, ayollarni ilm-ma'rifatli qilish ishlarida faol qatnashganini, o'z she'rlarida mahalliy va chor amaldorlari kirdikorlarini fosh etganini, xalqning ilmi, ma'rifatli bo'lishi yo'lida amalga oshirgan ishlarini esga olish kifoya.

Jadidchilik dastlab XIX asr 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gaspirali rahbarligida vujudga kelgan.

¹ Husnida Numonjonov Qizi Komilova(2021).JADIDLAR FAOLIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK VA BARAKAMOL AVLOD TARBIYASI MASALARI.scientific progress,2(8),368-372.



Jadidchilik harakati namoyondalari ko'pincha o'zlarini tarqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Jadidchilik mohiyati siyosatni va mustamlakchilikni tugatish, ozod mustaqil davlat barpo etish bo'lgan. Jadidchilik harakatlarini asosiy 3 davrga bo'lib o'rganish mumkin.

I davr: 1895-1915 yillar **Ma'rifatchilik.**

II davr: 1915-1918 yillar **Muhtoriyachilik.**

III davr: 1918-1920 yilgacha **Mustabid sovetlar davridagi faoliyat.**

Jadidlarning xalq ma'rifati uchun kurash dasturi uch asosiy yo'nalishdan iboratdir:

1. Yangi usul maktablarini yaratish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.
3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli tomonlarini tomonlarini gazetalarda chop etish.

O'rta osiyoda bu dasturini amalga oshirish yo'lida Maxmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydillaxo'ja Asadullaxo'jayev, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon va boshqa ziyolilar jonbozlik ko'rsatishdilar.

Turkiston jadidlari bilan Buxoro jadidlari orasi juda kata farq bor edi. Turkiston o'lkasidagi jadidchilikning iltimoiy asosini ziyolilar tashkil qildi. Ular Chor Rossiyasi mustamlakachiligiga qarshi kurashning oldingi saflarida turib, chorizimning xomashyo manbaiga aylantirilgan Turkistonning dastlab muxtor, so'ng mustaqil davlat bo'lishini yoqlab chiqdilar.

Buxorodagi jadidchilikda Turkistondagiga nisbatan og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitga yuzaga kelgan edi. Buxorodagi jadidchilik harakatiga ayrim johil mullalar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo'lgan qadimchilar oqimiga qarshi chiqdi. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 guruhga: Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar va Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo'lingan edi². Jadidchilik Buxoro va Turkostonda bir vaqtda boshlangan bo'lsa ham, amirlikdagi og'ir muhit uning taraqqiyotini tezlashtirib yubordi. 1910-yildan boshlab Buxorodagi jadidchilik harakati asosiy o'ringa o'tdi.

Xivada jadidchilik XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Xivada asosan ikkita oqimdan iborat edi: o'ng oqim va so'l oqim. Ular Xiva xonligida yangi usul maktablarini tashkil etish maqsadini omma oldiga olib chiqdi. 1904-yil "jamiyat xayriya" tuzulib, uning ko'magi bilan Xiva shahrida dastlabki yangi usul maktabi ochildi. (1901-yil 10-noyabrda). Xiva jadidlari ma'rifiy ishlar bilan kifoyalani

² "Jadidizm". Ensiklopedik lug'at. 1. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. p. 271.



qolmasdan, xon tuzumiga qarshi kurash ham olib bordilar. Birinchi jahon urushigacha Xiva jadrlarining yagona markazi va dasturiy hujjatlari bo'lmagan. Biroq jadidchilik harakati Xiva xonligida katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylanib, 1914-yil avgustda u partiya shaklini olgan.

M.Behbudiy. Mahmudxoja Behbudiy ibn Behbudxo'ja 1870-yili Samarqand dunyoga kelgan. U Yassaviy avlolidan bo'lib, 18 yoshidayoq qozixonada mirzalik qiladi. Keyinchlik qozi, muftiy darajasigaham ko'tariladi. Behbudiy haj safarida bo'lgan paytida Arabiston, Misr, Turkiyani kezib chiqadi.

Sayohat davomida yangi maktab ochish yo'llarini o'rganib, Samarqand shahri yaqinidagi Halvoy qishlog'ida yangi maktab ochadi. Behbudiy Qozon va Ufa ga borib (1903-1904), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi³.

Behbudiyning yurt obodonligi yo'lida qilgan ishlaridan biri "Behbuiya" kutubhonasini ochgani bo'lgan. Birinchi bo'lib Samarqanda kutubxona faoliyatini yuritgan. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimi ruxsati bilan kutubxonani yurita boshlagan.

Behbudiyning "Risolayu asbobi savod", "Muntaxabi jug'rofiya umumiy" "Kitobatul atfol", "Amaliyot islom", "Tarixi islom" kabi kitoblarni chop etgan. Bu asarlari xalqni ongnini va dunyo qarashini o'sishida kata o'rin egallagan. Behbudiy 1919-yil 25-martda (44 yoshida) vafot etadi.

A.Cholpon Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yil Andijon shahrida tavallud topgan. Shoir, yozuvchi, drammaturg dastlab madrasada so'ngra rus tuzem maktabida ta'lim olgan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo'li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimni oshirgan.

Adabiy ijodi 1913-1914-yillarda Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqidagi xabarlar yozish bilan boshlangan. 1914-yil Toshkentda Milliy uyg'onish harakati namoyondasi sifatida shakllanishda muhim omil bo'lgan.

Cho'lponning adabiy merosi she'riyat, nasr, drammaturgiya, publistlik va adabiy tanqidiy maqolalar hamda tarjimadan iborat.

Cho'lponning eng mashhur asarlaridan "Kecha va Kunduz", "Novvoy qiz", "Oydin kechalarda", "Buloqlar" kabi qalblarni junbushga keltiruvchi, ajoyib xazinalari hozir ham ko'plab adabiyotshunoslarning e'tirofiga sabab bo'lmoqda.

Cho'lpon 1938 yili Toshkent shahrida dunyodan ko'z yumadi.

Mustaqillikka kelib marhum prezident Islom Karimov jadidlar xotirasini abadiylashtirdi, Toshkentda muzey ochildi, Shahidlar xiyoboni bunyod qilindi.

³ "Jadidizm". O'zbek sovet ensiklopediyasi. 4. Toshkent: O'zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b.



Ammo bundan qat'i nazar, jadidlar merosiga nisbatan xovotir tuzumni tark etmadi, ular adabiyoti mamlakatda targ'ib etilmadi, jadidlar g'oyasi qabul qilinmadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o'qituvchilar kuni munosabati bilan o'tgan tantanada sovetlar qatl etgan jadidchilar Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy va Munavvarqori Abdurashidxonovni "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlash qarorini ma'lum qildi⁴.

Bugun mamlakatda xalq ta'limi inqirozli davrni boshdan kechirayotgani, shunday vaziyatda milliy ta'lim uchun jon fido qilgan Avloniy, Behbudiy, Munavvarqori xotirasiga yuksak ehtirom ko'rsatilgani inobatga olinsa, Mirziyoyev uchun masalaning siyosiy emas, aynan ma'rifiy tomoni ustundek ko'rinadi. Jadidlar oruzusidagi Turkiston ilg'or ta'limga, ma'rifatga, taraqqiyotga asoslangan edi bu orzu qobiqni, chegaralarni, monarxiya va diktaturani inkor etadi. Turkiston istiqboli haqida mushohada yuritgan jadidlarning shu xulosalarda to'xtaganiga ham yuz yil, bir asrdan oshmoqda.

Bu xulosalar esa bir asr o'tib ham hozirgi O'zbekiston uchun hamon dolzarb. Mamlakatda so'nggi to'rt yilda yangi O'zbekiston haqida, yaqindan boshlab uchinchi uyg'onish davri haqida gapirilmoqda.

Turkiyada Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston yoshlari umumjahon assotsiatsiyasi "Jadidlar haftaligi" forumini o'tkazdi.

Ko'nya shahridagi Najmiddin Erbakan universiteti professori Birol Merjan "Jadidlar" kitoblar to'plamini turk tiliga tarjima qilish bo'yicha amaliy ishlar boshlanganini va tez fursatda turk kitobxonlariga taqdim qilinishini ma'lum qildi.

Forumda yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazilib, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev bilan onlayn uchrashuv ham tashkil etildi. Alisher Sa'dullayev jadidchilik harakati va uning mazmun-mohiyatini targ'ib etish bo'yicha qilinayotgan ishlar to'g'risida gapirdi⁵.

Jadid degani – yangi degani bo'lsa, demak, Yangi O'zbekiston yangilik va yaxshilik tarafdori bo'lgan jadidlarning orzusi ham edi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Husnida Numonjonov Qizi Komilova(2021).JADIDLAR FAOLIYATIDA MA'RIFATPARVARLIK VA BARAKAMOL AVLOD TARBIYASI MASALARI.scientific progress,2(8),368-372.

⁴ Ahmedov, Sirojiddin; Rajabov, Qahramon (2000-2005). "Jadidchilik". O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.



2. "Jadidizm". Ensiklopedik lugʻat. 1. Toshkent: Oʻzbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1988. p. 271.
3. "Jadidizm". Oʻzbek sovet ensiklopediyasi. 4. Toshkent: Oʻzbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi. 1973. 278-279 b.
4. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/turkiyada-jadidlar-haftaligi>
5. <https://biztv.uz/posts/jadidlar-merosini-organish-anglash-ildizi-baquvvat-daraxtga-aylanish-imkonidir>
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
7. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021). Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 45-48.



AMIR TEMURNING YOSHLAR TARBIYASIGA QARASHLARI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand Filiali

Kompyuter Injineriing fakulteti

KI23-02 guruh talabasi

TORAQULOV.A.A

Annotatsiya: ushbu maqolada Amir Temur hayoti, ijodi, shuningdek, manaviy merosi haqida fikr yuritiladi. Qilgan janglari va islom diniga qarashlari haqida ma'lumot beriladi.

Annotation: this article discusses the life, work, and spiritual heritage of Amir Temur. Information is provided about the battles he fought and his views on Islam.

Аннотация: в статье рассматривается жизнь, деятельность и духовное наследие Амира Темура, приводятся сведения о сражениях, в которых он участвовал, и его взглядах на ислам.

Kalit so'zlar: *Amir Temur, Tuzuki Temur, Temur tuzuklari, loy jangi, malfuzoti temuriy.*

Amir Temurning to'liq ismi Amir Temur Ibn Amir Tarag'ay Ibn Amir Barqul bo'lib, u 1336-yil 9-aprelda Shahrisabzda tavallud topgan. Mo'g'ullar 1369-1361 yillarda Movorounnahrda ketma ket ikki marta yurish qilgan. Ana shunday qaltis vaziyatda siyosiy kurash maydoniga yosh Amir Temur kirib keldi.

1360-yilda Tug'luq Temur tomonidan yuborilgan beklklar bilan kelishib Temur xon xizmatiga kiradi. U Kesh viloyatining hokimi etib tayinlandi. Lekin Movorounnahrning hukmdori etib tayinlangan Ilyosxo'ja bilan kelishmay qoladi. Shuning uchun 1361-yilning oxirida Temur mamlakatni tark etishga majbur boladi. Shu davrda Balx hokimi Amir Husayn bilan yaqinlashadi. Ular ittifoq tuzib mo'g'ullarni mamlakatdan quvib chiqarishga kelishib oladilar. Ularning eng yaqinlashuv davrlari 1362-1365 yillarni o'z ichiga oladi. 1363-yilda Tug'luq Temur vafotidan so'ng Ilyosxo'ja Mo'iliston xoni boladi. 1363-1364 yillar davomida Amir Temur va Amir Husayn qo'shinlari mo'g'ulga bir necha bor hujumlar qilib mo'g'ullarni Movorounnahrda quvib chiqaradi. Biroq, Movorounnahrni qo'ldan bermaslikni istagan Ilyosxo'ja 1365-yilda Movorounnahrda yurish qiladi hal qiluvchi jang 1365-yilning 25-mayda Toshkent va Chinoz o'rtasidagi chirchiq daryosi bo'yida boladi. Bu jang tarixda "loy jangi" nomini oladi. Jngda Amir Husaynning hiyonati



tufayli ittifoqchilar mag'lubiyatga uchraydi. Ilyosxo'ja Samarqandni egallashga yo'l oladi. Lekin Samarqandda sarbadirlerden mag'lubiyatga uchrab orqaga qaytadi. Bundan habardor bo'lgan Temur va Husayn samarqandga o'tlanadi. Bu yerda Husayn ikki marta hiyonat qiladi. Temur bilan maslahatlashmasdan sarbadorlar rahbarlarini osib o'ldiradi.

"TEMUR TUZUKLARI" — Amir Temurning harbiy va siyosiy faoliyatidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar. "Tuzuki Temur" va "Tuzukoti Temur" nomlari bilan atalgan. Amir Temurning "Tuzuklar" muallifi ekanligini e'tirof etadigan olimlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bular orasida "Temur tuzuklari"ning inglizcha tarjimonlari va noshirlari Devi va Uaytlar, mashxur turk qomusiy olimi Shamsuddin Somiy, qo'lyozmalarning yirik tadqiqotchisi N.D. Mikluxo Maklaylar ham bor. Boshqa bir guruh olimlarning fikricha, asar 16—17-asrlarda Hindistonda yozilgan.

Asar 2 qismdan iborat. Birinchi qismda Amir Temurning tarjimai holi, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, uning Movarounnahrda markaziy hokimiyatni qo'lga kiritishi, siyosiy tarqoqlikka barham berishi, markazlashgan davlat tuzishi, 27 mamlakatni, shu jumladan, Eron, Afg'oniston, Ozarbayjon, Gruziya va Hindistonni o'z tasarrufiga kiritishi, Oltin O'rda hukmdori To'xtamish, turk sultoni Boyazid I Yildirimga qarshi harbiy yurishlari, ulkan saltanatini mustahkamlash uchun turli ijtimoiy tabaqalarga nisbatan qanday munosabatda bo'lganligi buyuk sohibqiron tilidan ixcham tarzda bayon etilgan.

Ikkinchi qism mashhur jahongirning farzandlariga atalgan o'ziga xos vasiyat, pandnasihatlari va o'gitlaridan iborat. Unda davlatni idora etishda kimlarga tayanish, toju taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo'shin boshliqlarini tanlash, armiyaning tuzilishi va jang olib borish qoidalari, sipohiyarning maoshi, mamlakatni boshqarish tartibi, davlat arboblari va qo'shin boshliklarining burch va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toju taxt oldida ko'rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash yo'sini va boshqa xususida gap boradi.

Asar Amir Temur davridagi o'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. "Temur tuzuklari" ("Tuzuki Temuriy")ning fanda qayd etilgan ilk nusxasi eski o'zbek tilda bitilganligi ma'lum. Bu usmoniy turk hokimlaridan biri — Yaman hokimi Ja'far Posho (hukmronlik yillari 1607—12) ning kutubxonasidagi turkiy tilda yozilgan asar bilan bog'liq. "Tuzuki Temuriy"ning suz boshida keltirilishicha, o'rtaosiyolik Mir Abu Tolib Husayniy alAriziy atTurbatiy Makkai mukarrama va Madinai munavvaraga haj qilgan vaqtida asarni o'qishga muyassar bo'lgan va 1610-yil Ja'far Poshoning topshirig'i bilan uni fors tiliga o'giran. Bizgacha ana shu forsiy nusxa tosh bosmalar, zamonaviy nashrlar va



qo'lyozmalar shaklida yetib kelgan. Husayniy Turbatiy forscha tarjimini 1637-yil bobuiy hukmdor Shoh Jahonga (1628—57) tortiq qilgan. Shoh Jahon tarjima bilan tanishib chiqib, unda ayrim noanikliklar va kamchiliklar topgan hamda yirik olim, Dekan viloyatining qozikaloni Muhammad Ashraf Buxoriyni (vafoti 1652-yil) huzuriga chaqirtirib, mazkur tarjimini mo'`tabar asarlar, xususan, Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"si va shunga o'xshash muhim manbalarga solishtirib chiqish va shu yo'l bilan tarjimadagi xato va kamchiliklarni bartaraf qilishni topshirgan. Muhammad Ashraf Buxoriy ko'rsatmaga ko'ra, Mir Abu Tolib alHusayniy atTurbatiy nusxasini diqqat bilan tahrir qilgan. Shu zaylda asarning yangi, to'ldirilgan tahriri vujudga keladi va u "Malfuzoti Temuriy" ("Temurning aytganlari") va "Voqeoti Temuriy" ("Temurning boshidan kechirganlari") nomi bilan taniladi. Keyinchalik undan ko'plab nusxalar ko'chirilgani ma'lum ¹.

Ma'lum bo'ladiki, Boburiylar saltanatida "Tuzuki Temuriy" asosida ikkita mustaqil asar vujudga kelgan va ularning keyingi asrlarda tarqalishi bilan bog'liq o'ziga xos tafsilotlar bor.

"Tuzuki Temuriy" nusxasini dastlab Hindistonda yashagan ingliz zobiti mayor Devi 1779-yilda Angliyaga olib kelgan. So'ngra arab tili professor ingliz mayori Uaytga uni ko'rib chiqish uchun topshirgan. Uayt "Tuzuki Temuriy" ning forscha matnini nashrga tayyorlagan, mayor Devi esa uni inglizchaga o'g'irgan va ko'rsatkich, izohlar bilan ta'minlagan. (Temur tuzuklaridan)

Amir Temurning har bir harakatida, har bir yurishida, xar bir hulosasida Islom dinining ilohiy qudrati sezilib turadi. Temur o'z tuzuklarida ta'kidlaganidek: "birinchisi,- davlat va saltanatinga bog'langan mening birinchi tuzugim- Tangri taoloning dini va Muhammad Mustafoning shariatida dunyoda rivoj berdim. Xar yerda va xar vaqt Islom dinini quvvatladim", degan fikriga alohida e'tibor berish kerak.

Amir Temur nazarida Islom xalqni iymonda saqlaydigan, uni baxt saodatga eltadigan qudratli kuchdir. Shu manoda Amir Temur o'z tuzuklarida " Dinga e'tiqod butun bo'lsa, aslo naslimiz yuqotilmagay, tilimiz unitilmagay, e'tiqod susaysa, til emas, iymon ham unitilgay.",deb yozadi.

Go'ri Amir yoki Amir Temur maqbarasi (15-asr boshi — 1405-yil) — Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Xalq orasida Go'ri Amir yoki Go'ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka, o'g'illari Umarshayx,

¹ <https://meros.uz/object/gori-amir-maqbarasi>



Mironshoh va Shohrux, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug‘bek va boshqalar) dafn etilgan. Boburning ta‘kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton Mirzo Samarqand qal‘asi yaqinida Toshqo‘rg‘on — tomonda Madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok bo‘lgach (1403), Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon beradi. Maqbara Madrasa hovlisining to‘riga bunyod etilgan.

1941-yil iyun oyida SSSR hukumati Temur va uning qarindoshlari qabrini ochishga qaror qildi. Ekspeditsiya tarkibiga O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti raisining o‘rinbosari, shuningdek, tarixchi va mutaxassis professor T. N. Qori Niyoziy, yozuvchi Sadridin Ayniy, sharqshunos A. A. Semenov, haykaltarosh-antropolog M. M. Gerasimov, arxeolog olim E. Masson kiritilgan. Ekspeditsiya a‘zolari sifatida arxeologlar V. A. Shishkin va Yahyo G‘ulomov, adabiyotshunos Hodi Zaripov, yozuvchi M. I. Sheverdin, antropolog L. V. Oshaninlar qatnashdilar. Qabrlarni ochish jarayonini suratga olish yosh operator M. Qayumovga ishonib topshirilgan.

Boshqa bir ma‘lumotga ko‘ra, 1941-yilda Go‘ri Amir maqbarasi yaqinida Inturist mehmonxonasi qurilishi munosabati bilan qabristonni suv bosgan. Bu Temuriylar maqbarasi qoldiqlarini yo‘q qilishi mumkin edi. Maqbarani vayron bo‘lishini oldini olish uchun bir guruh olimlar antropolog Mixail Mixaylovich Gerasimov boshchiligida qazish ishlarini boshlaganlar[6]. T. N. Qori-Niyozov tomonidan tuzilgan O‘zSSR Hukumatining maxsus ekspeditsiyasi davomida qabrlarning haqiqiylikini aniqlash, dafn marosimi, Temur va uning avlodlarini dafn etish bilan bog‘liq boshqa holatlarni aniqlash, chuqur antropologik o‘rganish vazifasini bajargan².

Temur sunniy musulmon bo‘lgan, ehtimol, Naqshbandiya tasavvufi, Hanafiy mazhabiga mansub bo‘lib, u Mavarinnatda nufuzli bo‘lgan. Uning bosh rasmiy diniy maslahatchisi va maslahatchisi hanafiy olimi Abdu l-Jabbor Xorazmiy edi. Termizda u Go‘riamirda Temur bilan birga dafn etilgan Balxlik rahnamo Sayyid Barakaning ustozlari ta‘siriga tushgan edi.

Temur hazrati Ali va Ahli-baytni yuksak qadrlashi bilan mashhur bo‘lgan va turli olimlar tomonidan o‘zining "shiaparast" pozitsiyasi bilan e‘tirof etilgan. Biroq u shialarni ham sahobalarning xotiralarini tahqirlaganliklari uchun jazoladi. Temur, shuningdek, sunniylik uzrlari bilan shialarga hujum qilgani, boshqa paytlarda esa sunniylarga diniy sabablarga ko‘ra hujum qilgani ham e‘tirof etilgan. Aksincha, Temur saljuqiylar sultoni Ahmad Sanjarni Alamutda ismoiliylarga hujum qilgani

² https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Temur_tuzuklari



uchun yuqori baholagan bo'lsa, Temurning o'zining Anjudandagi ismoiliylarga qilgan hujumi ham xuddi shunday shafqatsiz edi. Amir Temur oz tasarruflarini Quroni Karim oyatlari va Paygambarimiz sallollohu alayhi vasallamning sunnatlariga togri kelgan joylarini eslatish bilan Quron va sunnatga muvofiq ish korishga harakat qilganini bayon qiladi. Amir Temur urushlardan birida, kim shayx Hisomiddin Sabzavoriyning uyiga kirib olsa, omon qoladi, degan amrni chiqardi.

Mazkur shayx Hisomiddin Sazavoriy shiya bolgan. Sohibqironning uning uyiga kirganlar omon boladi, deyishi esa shayx uchun katta obro edi. Tabiiyki, osha davr olchoviga kora, bir shiya odamga nima uchun shunchalik hurmat, degan savol paydo boladi. Amir Temur buni Paygambarimiz sallollohu alayhi vasallamning qilgan ishlariga moslab qilganligini bayon qiladi. Paygambarimiz sallollohu alayhi vasallam Makkai Mukarramani fath qilgan kunlari, kim Abu Sufyonning uyiga kirsam omon qoladi, deb elon qiladilar. Abu Sufyon osha paytda mushrik - kofir edi. Shunday bolsa ham Paygambarimiz sallollohu alayhi vasallam uning uyini omonlik joyi deb elon qildilar. Men, bir shiya odamning uyini omonlik joyi desam nima bolibdi, deydi.

Shuningdek, Amir Temur Islom hukmiga amal qiluvchilarni korsa ham juda mamnun bolar edi. Bu narsa ayniqsa Xuroson janubidagi Bishraveyh shahriga bolgan munosabatida yaqqol korinadi. Sohibqiron u shaharga yaqinlashganda uni yol chetida sodda kiyingan bir necha odam kutib oladi. Amir Temur ulardan «Shaharning amiri kim?», deb soraydi. Ular, amirimiz yoq, ozimiz qolimizdan kelganicha Quronu sunnatga amal qilib yashamoqdamiz, deyishadi. Bu gap Sohibqironni qiziqtirib qoladi-da, shahar bilan yaqindan tanishishga qaror qiladi. U yerning Imomi Husayn ibn Ishoq bilan birgalikda hamma narsa bilan yaqindan tanishib chiqadi. Aholining barchasi yoshu qari, erkagu ayol ilmi bolib, oqish-yozishni biladigan, bosh vaqtini ilmga sarflaydigan boladi. Hamma halol mehnat bilan mashgul boladi. Amir Temur ularga oltin bersa, hurmat qilganingiz uchun rahmat, ammo bu tillolarga hojatimiz yoq, ozimiz ishlab topganimiz yetadi, deyishadi. Aholining rahbari, imom Husayn ibn Ishoq ham qoliga ketmon olib dehqonchilik qiladigan boladi. Unga Amir Temur bir ot sovga qilsa uzr aytib olmaydi, ot mina olmayman, eshak minib organib qolganman deydi. Bu narsalardan xursand bolgan Amir Temur sharoit bilan yanada yaqinroq tanishadi. Sohibqiron bir dokondorning ayol xaridorga narsa tortib berayotib «Voy lullil mutaffifin» - «Torozudan urib qoluvchilarga voy bolsin» oyatini oqiganini eshitadi. Ayol ketganidan keyin borib dokondordan, «ozing oqigan oyatning manosini bilasanmi?», deb soraydi. U, bilaman, deb, oyat manosini aytib beradi. Bir oz savol-javobdan song, dokondor, torozu tortishda xiyonat qilib qoymay,



deb har kimga bir narsa tortganimda shu oyatni oqib turaman, deydi. Shuningdek, Amir Temur bir attorning oldidan otib ketayotib uning «Vazinuu bil qistosil mustaqiym» yani, «Va adolat tarozusi ila vazn olchanglar» oyatini oqiganini eshitib qoladi va osha attor bilan ham yuqoridagi oxshash suhbat va savol-javoblardan song Amir Temurga kopgina ozini xursand qiladigan narsalar ayon boladi.

Bishraveyhda qulf va qarovul yoq ekan. Odamlarni Islomga amal qilib yashaganlari uchun bunga ehtiyoj yoq ekan. Shuningdek, qozi ham yoq ekan. Yoshi ulug bolib qolgan Husayn ibn Ishoq birovning sokishganini yoki urishganini eslay olmasligini aytadi. Bu yerda oila buzilishi - taloq ham, birovning haqqini tortib olish ham yoq ekan. Bu haqiqatlarni bilib Amir Temur nihoyatda xursand boladi. Quron va sunnatga amal qilib yashayotgan bu muxlis - musulmon aholini taqdirlashga qaror qiladi. Amaldorlarini toplab majlis otkazadi.

Bishraveyhni «Dorul ilmi val omon» deb elon qiladi. Modomiki, Temur xonadoniga mansub hokimlar bor ekan, bu shahardan xiroj olinmaydi, hech kim, hech qanday bahona bilan bu yerga hujum qilmaydi, deb farmon chiqaradi.

Mana shuning ozi ham Amir Temurning Islomga, Quron va sunnatga amal qilib yashashni qanchalik uluglashini korsatib turadi. Amir Temurning mazkur farmoni osha shahar aholisining Quron va sunnatga amal qilib yashayotganlarini munosib taqdirlash bolishi bilan birga, boshqa shahar va qishloqlar aholisini ham shunday yashashga targib qilish hamdir.

Mazkur tahlillardan korinib turibdiki, buyuk vatandoshimiz, ulug Movarounnahr saltanatining quruvchisi, Sohobqiron Amir Temurni ozi rahmatiga olgan bolsin, qolganlarni hidoyat qilsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Temur tuzuklari.
2. Ibn Arabshoh: Amir Temur tarixi. 1991-yil.324- betlar.Mehnat nashriyoti.
3. Yunus O'g'uz: Amir Temur. 2011-yil 2-jild.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, 1994 yil.
5. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Temur_tuzuklari
6. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/amir-temur-va-islom>
7. <https://meros.uz/object/gori-amir-maqbarasi>
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. — 2021.
9. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. — 2016. — №. 2. — C. 175-179.



JADIDLARLARNING TA'LIM VA TARBIYAGA OID QARASHLARI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand filiali

Kompyuter Injineriing fakulteti

KI23-02 guruh talabasi

HAMIDOVA.B.A

Annotatsiya: Maqolada jadidlar faoliyati va ularning barkamol avlod tarbiyasi masalalari yuzasidan qarashlari haqida ma'lumotlar va Milliy uyg'onish davri yurtimizda jadidchilik harakati shaklida paydo bo'lganligi haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Milliy uyg'onish davri, jadid, jadidchilik, sho'ro tizimi, ma'rifatparvarlik, komil inson.

Insoniyat tarixini o'rganish hamma vaqt har qanday davr olimlari uchun muhim bo'lgan. Inson tabiatan o'z o'tmishiga qiziqib yashaydi. O'z hayotiga nazar solib, o'tmishga katta qiziqish bilan qaraydi. Bu esa tarixdan saboq chiqarishga, o'z istiqbolini belgilashga zamin yaratadi. Bu maqolada men ham yurtimiz tarixida milliy istiqbol uchun kurashgan jadidlar harakatlari va ular yaratgan ta'limot haqida keltirib o'tishni lozim topdim. Chunki buni jamiyat tubdan o'zgarayotgan tarixning ko'zga yaqqol tashlanadigan nuqtalaridan biri deb hisoblayman.

Vatanimizda Milliy uyg'onish davri jadidchilik harakati shaklida namoyon bo'ldi. U 1865-yildan boshlanib, 1929-yilda harakat namoyondalarini jismoniy tugatishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu harakatning yuzaga kelishi bevosita istilo va uning oqibatlari bilan bog'langan bo'lib, uning shakllanish davri 1865-1905-yillar bilan belgilanadi. Adabiy harakat an'anaga ko'ra ko'proq Qo'qon, Xiva, Buxoro, Samarqandda rivoj topdi. Toshkent ham general-gubernatorlikning poytaxti sifatida tez rivojlandi, adabiy-madaniy markazga aylanib bordi. 1905-yil voqealari, xususan, 1905-yil 17-oktabr Manifestidan keyin rivojlanish bosqichiga kirdi. 1916-yilga kelib mazkur harakat namoyondalari "qora xalqni oqartirmoq va ko'zini ochmoq chorasiga" kirishdilar. Shu tariqa, milliy uyg'onish (jadidchilik) nihoyatda tez rivojlandi.

Milliy uyg'onish (jadid adabiyoti) mazkur harakatlarning adabiy-badiiy ifodasi sifatida namoyon bo'ldi va yangi o'zbek adabiyotini boshlab berdi. Uning avj



taraqqiysi 1915-1925-yillarga to'g'ri keldi. Shulardan kelib chiqqan holda, o'zbek milliy uyg'onish adabiyotini ikki bosqichga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Ilk mustamlakachilik davri: manbalari, yuzaga kelishi (1865-1905)

2. Milliy va ijtimoiy kurashlar davri: taraqqiyoti va tugatilishi (1905-1929). Bunday har bir sana muayyan ma'no tashiydi. 1865-yil Toshkent istilo qilingan sana. 1929-yil esa tarixda jadidchilik harakatining sho'rolar siyosati tomondan mahv etilishi sanasi sifatida muhrlangan.¹

O'z faoliyatini nafaqat siyosiy, balki ta'lim va tarbiyani yuksaltirish, Turkiston o'lkasini ma'naviy hamda ma'rifiy isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash masalasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan jadidlar² harakati o'lka xalqlari tarixida muhim rol o'ynagan. Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr birinchi choragida Turkistondagi milliy ozodlik harakatining milliy mafkurasi, o'lka xalqlarining milliy mustaqillik g'oyasi sifatida shakllandi.

XIX asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan nom olgan va XX asr boshida rivojlangan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari – Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy Samarqandda, Abdurauf Fitrat, Sadridin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev Buxoroda, Farg'ona vodiysida esa Abdulhamid Cho'lpon, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev va boshqalar. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilaridir. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surganlar.

Jadidlar yurtimizni mustaqil, ozod holda ko'rishni o'zlarining bosh maqsadlari deb bilganlar. Ular milliy ozodlik kurashida qurol kuchi bilan muvaffaqiyat bo'lmasligini bilishar edi. Shu bois ular milliy istibdodga tushib qolishlarining sabablarini tahlil qilib, bularning tub ildizlari yo'q qilib tashlash lozimligini anglab yetdilar. Natijada jadidlarning hamma narsadan oldin xalqqa ma'rifat berish lozim degan g'oya yuzaga kelgan. Jadidlar 1906-yildayoq "Taraqqiyot" deb nomlangan gazeta nashr ettirib o'z g'oyalarini tarqata boshladilar. Turkistonning turli shaharlarida jadid maktablari ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar, jumladan tabiat haqidagi bilimlar ham targ'ib qilina boshlandi. Jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordamida o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar. Jadidlar o'z

¹ <http://portal.guldu.uz/download-edfiles-11124.doc>.

² Jadid – arabcha "jadid" - yangi, yangilanish ma'nosini anglatadi.



orzularini faqat maktab, ma'orif va ta'lim tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, uni rivojlantirish bilangina amalga oshirish mumkin deb bildilar.

Jadidlar haqida gap keyganda dastlab Qrimlik Ismoil Gasprialini tilga olishimiz kerak. U Rossiya musulmonlari orasida birinchi bo'lib, "maktabi usuli jadida" ya'ni "yangi usul maktabi"ga asos soldi. Maktabning tuzilishi, o'qitish metodikasi nazorat turlari ko'p jihatdan Yevropa ta'lim tizimiga yaqin bo'lgan. U madraslarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o'qitish maslalarini ko'taradi.

Barkamol avlod tarbiyasida jadidlar faoliyatining muhim xususiyati shunda ediki, avvalambor Turkistonni o'rta asrga xos tarqoqlikdan ozod qilish, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo'lga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va faravon jamiyat qurish hamda ma'rifatparvarlik kabi masalalar edi. Bunday g'oyalar avvalambor yosh avlodni milliy, ma'naviy hamda g'oyaviy jipslashtirish, ularni o'lka taqdiriga dahldorlik tuyg'usi bilan yashashga jalb etish kabilrda aks etadi. Turkiston jadidchiligidagi asosiy g'oyaviy nazariy yo'nalish Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat, Cho'lponlar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, Turkiston xalqi va davlatini qurish, zamonaviy taraqqiyot yo'lidan borishni taklif etganlar³.

Turkiston jadidlari chor hukumati istibdodidan qoloq ahvolga tushib qolga Turkiston mahalliy aholini, jumladan o'sib kelayotgan yoshlarni ijtimoiy-siyosiy, madaniy-marifiy turmushini, ong-saviyasini ko'tarish, taraqqiy ettirish maqsadida juda kata madaniy ishlarni olib bordilar. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'kidlaganidek: "Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobig'a tasavvul (vosita) va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzilida bo'lgan maktabi ibtidoiy ila intiboh va islohot jarchisi bo'lgan milliy matbuot qayratlu yoshlarning harakati maorif parvaronlarini soyasida vujudga keldi".⁴

Jadidlar ta'limoti – o'z zamonasining haqiqiy ta'limoti edi. Chunki u nafaqat taraqqiyparvar shaxslar, balki fikrlovchi yoshlarni o'z ketidan ergashtira olgan. Jdidlar eng avvalo, o'qitishning eski usullari o'rniga yoshlarga zamonaviy ilmlarni o'rgatish zarurligini tushunishlari bilan birga ta'limtizimida ona tilini chuqurroq o'rgatish, ona tilidagi darslarni ko'paytirish, boshqacha qilib aytganda o'quv dasturida ona tilidagi darslarni oshirish orqali yoshlarda vatanparvarlik, millatparvarlik tuyg'usini shakllantirish mumkin degan xulosaga kelish va bu yo'ldagi dadil harakat jadidlarning ma'rifat sohasidagi yangicha qarashlari

³ Oblomurodov N, Hazratqulov A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. (o'quv qo'llanma) T. 2011

⁴ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T: O'zbekiston. 1999. B. 385



Konsepsiya edi. Ana shu harakat zamirida jadidlarning pedagogik qarashlari ham shakllanib bordi. Jadidlar “Taraqquyot” gazetasida maktab dasturiga alohida e’tibor berdi. Ularning ayrim dasturlariga ko’ra boshlang’ich maktab 4-sinfdan tashkil topishi kerak. Unga 7 yoshdan kichik bolalar qabul qilinmaydi. Dasturda qanday fanlar o’qitilishi bilan birga maktabning tashkiliy tomonlari haqida ham aniq ko’rsatmalar bor edi. Jumladan, yilda to’qqiz oy taxsil, uch oy ta’til bo’lishi haqida, o’quvchilarni maktabga avgustning 15-sanasida 1-sentyabrgacha qabul qilish, 15-mayda imtihon bo’lishi haqida qaror keltirilgan. Dasturda bayramlarda bir kun dam olish bo’lishi, maktabda darslar ketayotganda maktabga qabul qilish to’xtatilishi to’g’risida qaror ham mavjud bo’lgan.

Jadidlar voyaga yetgan yoshlar Turkiston kelajagi, ravnaqi uchun kurashchi bo’lib yetishishi kerakligini uqtirdilar va bunda ular har xil illatlardan xalos bo’lishlarini ta’kidlaydilar. XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg’ona vodiysi shaharlarida o’nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Behbudiy yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi. Behbudiy O’rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo’lboshchisi edi. Turkistonda ma’rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga kata hissa qo’shgan shaxs hisoblanadi. Mahmudxo’ja Behbudiy yosh yigitchalarni turli xil yomon illatlardan qaytargan, uning oqibatlaridan o’quvchilarni xabardor qilgan va Samarqandda ruslar tomonidan ochilgan pivo do’konlarini qattiq tanqid ostiga olgan. Uning fikricha, bunday do’konlar masjid va madrasalarning yaqinida bo’lib, bolalarga salbiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlagan. Mahmudxo’ja Behbudiy barchani kelajak avlodni sog’lom o’stirishga chorlaydi. Sog’lom aqlli, bilimli farzandlarimiz o’sib ulg’ayib, o’qib, ilm egallab, Turkistonga xizmat qiluvchi shifokor, huquqshunos, iqtisodchi va boshqa zamonaviy mutaxassislar yetishib chiqishini orzu qilgan. Sog’lom farzandlarni tarbiyalash uchun o’qib o’rganib ilmi, ma’rifatli, eng asosiysi esa ota-onalar o’z vaqtida farzandlarini zamonaviy fanlarini egallashga yordam berishlarini ta’kidlaganlar. Munavvarqori Abdurashidxonov bolaning ta’lim va tarbiya olishida ota-onaning javobgarligi haqida so’z yuritib, o’z farzandining ma’rifatli bo’lishi uchun qo’llaridan kelgancha harakat qiladigan zotlar mavjudligini ta’kidlagan.

Jadidlarning tarbiya haqida qarashlari ham ilg’or fikrlar bilan boydir. Ularning tarbiya odob-axloq haqidagi fikrlari, asosan qadimdan islom olamida qaror topgan qarashlar negizida shakllangan. Jadidlar ota-onalar o’z farzandlarining tarbiyasi bilan shug’ullanib, ularni maktab va madrasalarga tayyorlab berishlarini ta’kidlaganlar. Maktab va madrasalarda o’qib, ularni tugatib, yoshlar rivojlangan davlatlarning o’quv yurtlarida bilimlarini oshirib, zamonaviy ilmlarni egallashlari



kerakligaini uqtirganlar. Adabiyotlarda yozilishicha, Behbudiy Bayrut oliy o'quv yurtlari va dorulfununida farang, olomon va ingliz tillarida o'qitilishi, Yevropalik olimlarning u yerda dars berishi, tibbiyot oliygohlarida jarrohlik xonalarining borligiga havas va e'tiqod qilgan bo'lib, ona-Turkistonning taraqqiyotida naqadar orqada qolganini afsuslar bilan yozadi.

Turkistondagi maorif tizimini isloh qilishni asosiy maqsad qilib olgan jadidlar yoshlarni milliy mustaqillik manfaatlarini himoya qila oladigan, iqtisodiy va siyosiy qaramlikdan chiqish muammolari bilan shug'ullanadilar, zamonaviy bilimga ega kadrlar bo'lishi kerakligini anglaganlar. Jadidlar xalqning madaniyat darajasini xalqaro saviyaga ko'tarishni orzu qilganlar, buning uchun esa yoshlarni Yevropaning eng yaxshi o'quv maskanlarida o'qitish zarur, deb hisoblaganlar. Yoshlarni chet elda o'qib kelib, o'z yurtiga foydasi tegadiganligi haqida Mahmudxo'ja Behbudiy esa "Oyna" jurnalida quyidagicha yozgan: "To'y va ma'raka oqchasidan bolalarni..., talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulga Rossiya dorilfunun va dorulsaltanatlarig'a yuborilib, diniy va dunyoviy, zamonaviy odamlar yetishdurmoqg'a sa'y qilinsun. Ma'lumki, Munavvarqori Abdurashidxonov ham bu yo'lda jonbozlik ko'rsatgan. U o'zining "Jamiyati Xayriya" nomli yordam tashkiloti "ilk maktablarni bitirgandan so'ngra Turkiya, O'rinburg, Ufa va Ozarbayjonga yashirin yuborilgan talabalarga yordam ishlarini boshqarar edi".

Jadid namoyondalari yoshlarga murojaat ham etib, ularni oldinga intilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga va umuman, ravnaq etishga chorlaganlar. Shu o'rinda jadidlarning yoshlarga murojaatiga e'tibor qilaylik: "Ey, g'ayratlik yoshlar! Bir-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, ... millat yo'lida xizmat etingiz. Millat va xalq sizdan hurmat va yaxshilik talab etadur, nafsoniyat va g'urur emas ... muhtaram yoshlar! Zamon siznikidir. Balki butun shahringiz va millatingiz ila taraqqiy qilursiz". Bu gaplardan biz yoshlar shuni xulosa qilishimiz kerakki, bir-birimiz bilan jiplashgan holda vatanimiz kelajagi uchun doimo oldinga harakat qilib, millat yo'lida xizmat qilishimiz lozim.

Jadidlar, komil inson – bu, eng zamonaviy insondir. Zamonaviy inson esa, millat va Vatan manfaatini barcha narsadan ustun qo'yuvchi, ma'rifatli, diniy va zamonaviy ilm-fanlarni egallagan tarbiyali kishidir deydilar.

Tarixdan ibrat olib yashash, tarix haqiqatlarini bilish kishiga quvvat beradi, uni hayot haqiqati bilan qurollantiradi. Tarixni yozishda hech qachon o'ng tomonga ham, chap tomonga ham og'masdan, faqat haqiqat va adolat nuqtai nazaridan yo'l tutilishi kerak. Soxta tarix bamisoli og'u kabi insonni zaharlaydi, uning ong-u dunyoqarashini chalg'itadi. Eski tuzum davrida biz o'z tariximizni bilmas edik.



Ko'zimiz bamosoli ko'r edi. Butun olam yuksak hurmat va ehtirom bilan tilga oladigan buyuk ajdodlarimizni tanimas edik-u, soxta "dohiy"lar hayotini qachon, qayerda tug'ilgan, nima karomatlar ko'rsatganini bilar edik, to'g'rirog'i, yodlab olgan edik. Ularni bobomiz, otamiz, deb sig'inar edik. Bu aynan istibdod va qullik davri edi. Nafaqat moddiy jihatdan nochor edik, eng yomoni, or-nomusimiz toptalgan, qadriyat va an'analarimiz oyoqosti qilingan edi. Bir soz bilan aytganda qornimizga emas, qadrimizga yig'laydigan bir davr edi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib, xizmat qildi. Zamonning dolzarb maslalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy-ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib ketish maqsadida ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining xamonaviy bilimdon, mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtini obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlari ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr-g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlar asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning ong-saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda. Jadidlarning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari va harakatlari natijasida O'rta Osiyo jumladan, O'zbekistonda dunyoviy ilmlar tabiat fanlari, fan texnikaga, tabobatga oid ilmlarni rivojlanishiga turtki bo'ldi. Bularning hammasi ular tufayli amalga oshdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Oblomurodov N. ,Hazratqulov A. va boshqalar. O'zbekiston tarixi.(o'quv qo'llanma)T.2011



2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T: O'zbekiston. 1999. B. 385
3. Behbudiy M. Muhtaram yoshlarga murojaat. Oyna-1914. 41-son
4. M. Abdurashidxonov. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidan lavhalar). Sharq-2001. B. 108-109
5. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
6. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) // European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 45-48.
7. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.



IMOM AL-BUXORIYNING ISLOM DINI VA JAMIYAT MA'NAVIY-MADANIY HAYOTIGA QOLDIRGAN ME'ROSI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov
TATU Samarqand Filiali
Kompyuter Injineri
fakulteti KI23-02 guruh talabasi
Xamidov. S.V

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dinida Quroni karimdan so‘ng ikkinchi manba bo‘lib e‘tirof etilgan kitob Imom Buxoriyning “al-Jome‘ as-sahih” – (“Ishonarli hadislar to‘plami”) asari yozilish tarixi, inson ma‘naviyatida tutgan o‘rni batafsil yoritib beriladi. Shuningdek, asar yozilish sabablari va asar muallifi faoliyati haqida qimmatli ma‘lumotlar olish mumkin.

Annotation: This article details the history of the writing of Imam Buxorah's book Al-Jome'as-Sahih, which is recognized as the second source after the Koran in Islam, and its role in human spirituality. You can also learn valuable information about the reasons for the writing of the work and the work of the author.

Аннотация: В статье подробно рассматривается история написания книги имама Буксоры «Аль-Джомеас-Сахих», которая признана вторым после Корана источником в исламе, и ее роль в духовности человека. Также можно узнать ценную информацию о причинах написания работы и работе автора.

Kalit so‘zlar: Qur‘on, Hadis, Tafsir, Madrasa, Sunnat.

Imom Buxoriyning ilmiy-ma‘naviy merosini chuqur o‘rganish va keng jamoatchilikka taqdim etish uchun 2017 yili Prezidentimizning farmoni bilan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi va Oliy hadis maktabining tashkil etilishi va bu yerda olib borilayotgan tadqiqotlar shular jumlasidandir. Buxoriy, Imom al-Buxoriy- asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy 810-yilda buxoroda tavallud topib, — 870-yil Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog‘ida vafot etadi. Islom olamining yirik mutafakkiri. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sultoni deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi validasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammadning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar — Doxiliy, Muhammad ibn



Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Otasi Ismoil o‘z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo‘lib, tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammadning hadislarini o‘rganishga va yodlashga kirishadi. Taniqli muhaddislar — Doxiliy, Muhammad ibn Salom Poykandiy, Muhammad ibn Yusuf Poykandiy, Abdulloh ibn Muhammad Masnadiy va boshqalardan saboq olgan. Azaldan muhaddislar safarga chiqishdan oldin o‘z yurtidagi roviylardan birorta ham hadis qoldirmasdan yozib olgan bo‘lishi va shundan keyingina boshqa shahar yoki mamlakatga safarga otlanishi mumkin edi. Buxoriy 16 yoshga yetguncha, o‘z yurtidagi mashoyixlardan hadis eshitib, yozib olib, xalifalikning turli viloyatlari tomon yo‘l oladi. 825-yil Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Makkaga kelib, haj ibodatini ado etadi. Islom dinida Quroni karimdan so‘ng ikkinchi manba bo‘lib e‘tirof etilgan kitob Imom Buxoriyning “al-Jome’ as-sahih” – (“Ishonarli hadislar to‘plami”) asaridir. Hadis ilmining sultoni, ulug‘ bobokalonimiz Muhammad ibn Ismoil Buxoriy ta’lif etgan bu asar, ko‘plab nusxalarda musulmon xalqlarining orasida tarqalib, unga yuzlab sharhlar bitilgan va dunyoning turli tillariga ta Onasi va akasini Buxoroga qaytarib, o‘zi Makkada qoladi. Bu yerda faoliyat ko‘rsatayotgan olimlarning ilmiy yig‘inida qatnashadi. 827-yil Madinaga boradi. Madinadagi mashhur ulamolardan Ibrohim ibn Munzir, Mutrif ibn Abdulloh, Ibrohim ibn Hamza va boshqalar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan hadislar bo‘yicha saboq oladi. Bu vaqtda Rasulullohning sahobalari, sahobalarning izdoshlari turli mamlakatga tarqab ketgan edilar. Shunday sharoitda Muhammadning hadislarini to‘plash turli shahar va mamlakatlarga borishni taqozo qilar edi. Bir necha tarixchilarning ta’kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So‘ng Basra, Kufa va Bag‘dodga safar qiladi. Shom va Misrga o‘tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo‘lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to‘pladi. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani "Al-jome' as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo‘lgan



ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo‘lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: „Al-jome’ as-sahih“, „Al-adab al-mufrad“, „At-tarix al-kabir“, „At-tarix as-sag‘ir“, „At-tarix al-avsat“, „At-tafsir al-kabir“, „Birrul volidayn“, „Asmo as-sahoba“, „Kunyalar“ va boshqalar. Ular orasidagi „Al-jome’ as-sahih“ asari islom olamida Qur’ondan keyingi eng muhim manba sifatida e’zozlanuvchi manba hisoblanadi. Imom Buxoriyning hadislar to‘plash borasidagi qo‘ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko‘ra aniqroq bo‘lgani sababli „Al-jome’ as-sahih“ asari „Eng ishonchli hadislar to‘plagan“ nomiga sazovor bo‘lgan. Muhaddislar hadislarining roviylarini o‘zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo‘lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarining roviylari o‘zaro uchrashganini alohida ko‘rgan guvohning e’tirofini ham shart qilib qo‘ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Asqaloniyning hisobiga ko‘ra „Al-jome’ as-sahih“dagi hadislarining soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo‘shilsa, kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi. rjima qilingan va hozirda ham tarjima qilinmoqda. Mazkur asarning yozilish sabablaridan biri sifatida, Imom Buxoriyning ustoz, hadis ilmida mo‘minlarning amiri Is’hoq ibn Rohavayhning so‘zlari ko‘rsatilgan. Ibrohim ibn Ma’qil Nasafiydan rivoyat qilinadi: Imom Buxoriy: “Is’hoq ibn Rohavayh bir kuni: “Qaniydi sizlar Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislaridan sahihlarini to‘plab bir asar ta’lif etsangiz”, deb aytdi. Mana shu so‘z mening qalbinga qattiq o‘rnashib qoldi. Natijada “al-Jome’ as-sahih” – (“Ishonarli hadislar to‘plami”)ni jamlashga kirishdim”, dedi.[1] Imom Firabriy shunday rivoyat qiladi: “Muhammad ibn Abu Hotamning shunday deb aytayotganini eshitdim: “Muhammad ibn Ismoil Buxoriyni tushimda ko‘rdim. U kishi Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning ortidan yurib ketayotgan edi. Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallam har qachonki qadamlarini ko‘tarsalar, u zotning qadamlarini izlariga Imom Buxoriy o‘z qadamini qo‘yar edi.[2] Jumladan, mazkur tushni Najm ibn Fuzaylning ham ko‘rgani manbalar Imom Buxoriyning mazkur shoh asarini qayerda ta’lif etilgani to‘g‘risida manbalarda turli fikr-mulohazalar mavjud. Shulardan; Imom Buxoriy bu asarining sharh va izohlarini Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning qabrlari va minbarlari o‘rtasidagi joyda yozgan. Abu Fazl Maqdisiyning yozishicha, uni Buxoroda tasnif qilib chiqqan. Ba’zi manbalarda bu asarning yozilishi Basra deb, ba’zilarida Makka deb ko‘rsatilgan. Umar ibn Muhammad ibn Bajir Samarqandiydan esa quyidagicha rivoyat qilinadi: Imom Buxoriyning: ““Al-Jome’” kitobimni Masjidul Haramda tasnif qilib chiqdim. Bu



kitobga biror hadisni kiritishdan oldin gʻusl qilib, ikki rakat istixora (Alloh taolodan bir ishda yaxshilik soʻrab qilinadigan ibodat) namozini oʻqib, soʻng oʻsha hadisni sahihligiga toʻliq ishonch hosil qilgandan keyingina uni kitobimga kirgizganman”, deb aytayotganini eshitganman”[3].da rivoyat qiling Jumladan, Imom Buxoriyning nazdida hadis sanadidagi tabaqlarda roviylarning oz boʻlishi ham hadisning sahihligiga dalolat qilgan. Masalan; agar sanaddagi tobeʼinlar tabaqasida ikki roviy boʻlsa, u holda hadis “hasan” – “rivoyat qilinish uslubi chiroyli” martabasida boʻlgan, agar bu tabaqada bir roviy keltirilgan boʻlsa, u hadisni “sahih” deb eʼtirof etgan. Imom Buxoriyning bunday yoʻl tutishining oʻziga xos sababi mavjud, chunki hadis qanchalik koʻp roviydan oʻtib muhaddisga yetib kelsa, uning iboralaridagi xato va adashish shunchalik koʻp boʻlishi ehtimoli mavjuddir. Shuningdek, Imom Buxoriy hadis sohasida “haddasano” – “bizga hadis aytdi” iborasini va uning oʻrniga qoim boʻladigan boshqa iboralarni hamda “an–an – falonchi falonchidan, u esa falonchidan hadis aytdi” iborasini ham istilohiy maʼnoda qoʻllaganki, bu sanaddagi roviylarning darajasiga ham dalolat qiladi. Jumladan, Imom Buxoriy “al-Jomeʼ as-sahih”ni taʼlif etishda hadislarni boblarga tasnif qilib, ularni fiqhiy masalalarga muvofiq tartib bilan keltirganki, bu ham oʻquvchiga kitobdan istifoda qilishni yengillashtiradi. Har bir kitobning va bobning avvalida oyat va sharhlarning kelishi ham oʻziga xos bir uslub boʻlib, bu oʻquvchining fikr doirasini kengaytirishga imkon beradi. Shuningdek, Imom Buxoriy mazkur hadis toʻplamini “Vahiyning boshlanishi” kitobidan boshlab “Tavhid” kitobi bilan yakunlagani ham bir hikmat boʻlib, oʻqish jaryonida eʼtiborli kitobxon bu bilan muallifning nimaga ishora qilayotganini teran payqab oladi. Al-Jomeʼ as-sahih” hadis toʻplami 97 ta kitob va 3881 ta bobdan iborat boʻlib[4], undagi barcha hadislar soni, takroriylari bilan qoʻshib hisoblaganda 7563 tadir.

Kitobning hoshiyasidagi muaʼallaq hadislar 1391 ta, biror hadisga tobeʼ boʻlib kelgan hadislar 344 ta va bu kitobdagi barcha hadislar adadi 9082 taga yetadi. Imom Buxoriy bu hadislarni olti yuz ming hadis orasidan eng-eng sahihlarini ajratib olganini hisobga olsak, bu kitobning yana bir beqiyos qiymati koʻz oldimizda yaqqol namoyon boʻladi. Agar hadislarning har birini oldin gʻusl qilib, ikki rakaat namoz oʻqigandan keyin oʻz toʻplamiga kiritganini ham yodga olsak, bu qiymat yanada ravshanroq koʻrinadi. Bu haqda Imom Firabriydan shunday rivoyat qilinadi: “Imom Buxoriyning: “Mana bu “as-Sahih” kitobimga har bir hadisni gʻusl qilib, ikki rakaat namoz oʻqiganimdan keyingina kiritdim”, deb aytayotganini eshitganman”.

Hadislarni sahih deb qabul qilishda muhaddis ulamolarning sahihlik shartlari turlicha boʻlgan. Muhaddis olimlarning hadislarni sahih deb eʼtirof etishida asosan



beshta shart mavjud bo'lgan. Bu besh shart quyidagilar: 1) Sanadning uzluksiz bog'langan bo'lmog'i; 2) sanaddagi roviyning odilligi; 3) sanaddagi roviyning xotirasini mukammal bo'lmog'i; 4) hadis o'z matni va uning roviylari martabasiga zarar yetkazuvchi sabablardan xoli bo'lmog'i; 5) hadis matni va sanadi shuzuz (tarqoqlik)dan xoli bo'lmog'i lozim. Imom Buxoriy nazdida esa hadislar sahihlik darajasiga yetishi uchun o'n ikkita sharti mavjud bo'lgan. Bu o'n ikkita shart yuqorida keltirilgan beshta asosiy shartlarning zahirida turadi. Ular quyidagilar: Bir-biridan hadis rivoyat qilayotgan roviylar bir shaharda zamondosh bo'lishi, agar bir shaharda zamondosh bo'lib istiqomat qilmagan bo'lsa hadis muttasil sanad deb qaralmagan. Bir-biridan hadis rivoyat qilayotgan roviylar bir marta bo'lsa ham uchrashgan bo'lishi, agar bir shaharda istiqomat qilib uchrashmagan bo'lsa ularning bir-biridan hadis rivoyat qilishi muttasil sanad deb qaralmagan. Roviyy (hadis rivoyat qiluvchi shaxs) hadisni o'ziga yetkazuvchi roviydan ijozatan yuzma-yuz holatda og'zaki (rivoyatan) yoki yozma ravishda (diroyatan) olgan bo'lishi (bu uch (1-3) shart "sanadning ko'rish, eshitish va o'qish orqali bog'lanishi" zahirida turadi). Roviyy musulmon bo'lishi, dinsiz va g'ayridin kishidan hadis qabul qilinmagan. Roviyy balog'atga yetgan bo'lishi, ya'ni hadisni yod olib boshqalarga yetkazishda mas'uliyatni anglab yetadigan yoshda bo'lishi. Roviyy aqlli bo'lishi, aqli zaifdan hadis rivoyat qilinmaydi. Roviyy fosiq bo'lmasligi, fosiq kishining hadisni qabul qilinmaydi. Roviylarning eng ishonchlisi, rostgo'yi, odamiyligi (bu beshta (4-8) shartlar "roviyning din va dunyo ishlarida odil bo'lmog'i" sharti zahirida turadi). Roviyy xotirasining kuchli bo'lishi, ya'ni eshitgan hadisini asl holda yod olib qolmog'i. Roviyy xotirasi sust bo'lsa eshitganini yodlab yozib qo'ygan bo'lishi (bu ikki shart (9-10) "hadis sanadidagi roviylar xotirasini mukammal bo'lmog'i" sharti zahirida turadi). Hadis sanadi va matni ixtilofdan xoli bo'lishi (bu 11-shart "hadis matni va sanadi shuzuz (tarqoqlik)dan xoli bo'lmog'i" sharti zahirida turadi). Hadis sanadi va matni zarar yetkazuvchi sabablardan xoli bo'lishi (bu 12-shart "hadis o'z matni va uning roviylari martabasiga zarar yetkazuvchi sabablardan xoli bo'lmog'i" shartining zahirida turadi). Imom Buxoriy hadislarini sahih deb qabul qilishda mana shu o'n ikki shartga qat'iy amal qilgan va shu sababli ham butun dunyo olimlari tomonidan uning hadis to'plamlari mutlaq sahih hadislar deb e'tirof etilgan.

Hatto, ayrim ulamolar Imom Buxoriyning hadislarini qabul qilishdagi sahihlik shartlarini o'n beshtaga yetkazgan. Bu tadqiqotlarimiz natijalariga asoslanib Imom Buxoriyning "al-Jome' as-sahih" hadis to'plamidagi hadislarining sahihlik darajasi boshqa muhaddislarning sahih hadislaridan ustun ekanini aytishimiz mumkin bo'ladi. Tadqiqotlar natijasi hadis to'plamlari sahih deb tan olingan to'qqiz



muhaddisidan faqat Imom Buxoriy mana shu oʻn ikki shartga qatʻiy amal qilganini koʻrsatadi. Yaʼni, hadis sanadi va matni mana shu shartlarga toʻliq javob bersa, u hadis Imom Buxoriy nazdida sahih hadis hisoblangan. Imom Muslim sahihlikning ushbu shartlarini oʻn bittasiga qatʻiy amal qilgan, yaʼni sahihlikning oʻn bir shartiga javob bergan hadis sanadi va matni u kishining nazdida sahih sanalgan. Masalan; Bir shaharga shayx (hadis rivoyat qiluvchi ustoz)lardan birortasi kelib dars tashkil qilib biror hadis aytsa-yu, tinglaganlardan biri u hadisni shu shaharda istiqomat qiluvchi, ammo oʻsha darsda boʻlmagan bir doʻstiga aytsa, u hadisni eshitgan darsda hozir boʻlmagan uchinchi shaxs oʻsha hadisni shayxdan rivoyat qilsa, jadvalga koʻra bu hadis Imom Buxoriyda sanadi muttasil (sanadi bogʻlangan) sanalmaydi, Imom Muslim va boshqa ayrim muhaddislar nazdida bu hadisning sanadi muttasil deb qaraladi. Imom Abu Dovud nazdida bu shartlarning toʻqqiztasi qaysi bir hadisda topilsa oʻsha hadis sahih deb sanalgan. Imom Termiziy nazdida esa hadis sahih boʻlishi uchun oʻnta shart topilishi lozim boʻlgan va shu sababli ham ayrim hadis ulamolari Imom Termiziyning “Sunan” hadis toʻplamini Imom Abu Dovudning “Sunan”idan ustun qoʻyishadi. Imom Molik va Imom Ahmادلarning hadis qabul qilishdagi shartlari boshqa muhaddislarnikidan kam. Ammo bu ularning hadis toʻplamlariga kiritgan hadislari sahihlik darajasidan past ekanini anglatmaydi, chunki buning bir necha ijobiy sabablari mavjud. Sabablar quyidagilar; ular yashagan davrning Paygʻambarimiz sollallohu alayhi vasallam zamonlariga yaqinligi, hadisning yetib kelishida muhaddis bilan Nabiy sollallohu alayhi vasallam oʻrtasida roviylar ozligi va yana bir qancha sabablar borki, hatto u sabablar bilan ularning hadis toʻplamlaridagi ayrim hadislar sanadi oliy sanadga koʻtarilishi ham mumkin. Imom Buxoriy hadislarni sahih deb qabul qilishda mana shu oʻn ikki shartga qatʻiy amal qilgan va shu sababli ham butun dunyo olimlari tomonidan uning hadis toʻplamlari mutlaq sahih hadislar deb eʼtirof etilgan. Hatto, ayrim ulamolar Imom Buxoriyning hadislarni qabul qilishdagi sahihlik shartlarini oʻn beshtaga yetkazgan. Bu tadqiqotlarimiz natijalariga asoslanib Imom Buxoriyning “al-Jomeʼ as-sahih” hadis toʻplamidagi hadislarining sahihlik darajasi boshqa muhaddislarining sahih hadislaridan ustun ekanini aytishimiz mumkin boʻladi. Keyingi yillarda Imom Buxoriyning ilmiy maʼnaviy merosini va shu zamin farzandi boʻlgan boshqa allomalarimizning qoldirgan maʼnaviy merosini oʻrganib, ilmiy tadqiq etish va keng ommaga yetkazish Bu ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimlari va oliy maktab ustozlari muhaddis allomaning ilmiy merosi boʻlgan “Birrul-volidayn”, “Xolqu afʼalu-l-ibod” va “at-Tarix as-sagʻir” asarlarining tarjimai hamda “Sahihul Buxoriy” hadislar toʻplamidagi oliy sanadli hadislar majmuasi “Sulosiyotu-l-



Buxoriy” kitobining nashr etilish arafasida turgani fikrimizning dalilidir. maqsadida olimlarimiz ko‘plab tadqiqotlar va ilmiy-amaliy ishlar olib bormoqda.

Foydalanilgan adaboyotlar ro‘yxati:

1. Ibn Hajar al-Asqaloniyy. Fathu-l-Boriyy. Qohira. 1880y.– B 5.
2. Al-Kutub-s-sitta. Riyoz Doru-s-alom. 2000y.-b670
3. Izoh sifatida keltirilgan sanadsiz hadislar.
4. Shamsiddinxon ibn ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon. Sihohu-s-sitta. Toshkent 1986. B 36.
5. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
6. Mahmud Tohhan. Taysiru mustolah-l-hadis. Maktabatu-l- ma’orif. Riyoz 2010. B44
7. Mannahajul-Imam al-Buxoriy fiy tas’hihil-ahadisi va-t-ta’lilaha. Dor’u ibn Hazm.Bayrut 2000. B71
1. 8.Abu Fazl Muhammad ibn Tohir.Shurutu-l-aimmati-s-sitta va yalihi shurutu aimmati-l-xamsa. Bayrut 1984. B18
8. Abu Fazl Muhammad ibn Tohir.Shurutu-l-aimmati-s-sitta va yalihi shurutu aimmati-l-xamsa. Bayrut 1984. B21
9. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
- 10.Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.



LUTFIY MA'NAVIY MEROSINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

TATU Samarqand Filiali

Kompyuter Injineriing fakulteti

KI23-02 guruh talabasi

NAJIMOV.D.N

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mavlono Lutfiyning hayoti, ijodi, shuningdek, uning yuksak insoniy fazilatlari haqida fikr yuritiladi. Lutfiyning yozgan asarlari hamda uning qoldirgan buyuk ma'naviy merosi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье рассматривается жизнь и деятельность Мауланы Лютфи, а также его высокие человеческие качества. Обсуждаются произведения Лютфия и его великое духовное наследие.

Abstract: This article discusses the life and work of Maulana Lutfi, as well as his high human qualities. The works written by Lutfi and his great spiritual legacy are discussed.

Kalit so'zlar: Mavlono Lutfiy, shoirlik, so'fiylik, g'azallar, g'oya, sevgimuhabbat, "Gul va Navro'z" asari, hofizlar, Zafarnoma.

Mavlono Lutfiy o'z davrida katta obro'ga ega taniqli shoir, g'azalshunos kishilardan biri bo'lgan. Lutfiy yoshligidan zehni o'tkir, teran fikrli, aqlli, tirishqoq kishi bo'lgan. Lutfiy dunyoviy ilmlarni hamda adabiyot haqidagi ilmlarni juda erta o'rgangan. Lutfiy nafaqat forsiy balki turkiy tilda ham ijod qilgan shoir hisoblanadi.

U o'z zamonining "malik ul-kalomi" bo'lgan Orif, mutafakkir, shoir Lutfiy 1366- yil Hirotning Dehi Kanor mavzeida tavallud topgan va shu yerda 1465- yili vafot etgan deyiladi. Lekin Shayx Ahmad Taroziyning Mirzo Ulug'bekka bag'ishlab yozgan "Funun ul-balog'a" asari topilgach, asardagi "ma'dan ul-latoyif Lutfiyi Shoshiy" jumllariga asoslanib, Lutfiyning tug'ilgan joyi Toshkent bo'lgan, degan nazariya ham ilgari suriladi. Mavlono Lutfiy O'zbek adabiyoti tarixida eng mashhur shoir va tarjimonlardan biri hisoblanadi. Uning asli ismi Lutfullah, ammo o'zbek adabiyoti davrida uning nomi Lutfiy sifatida mashhur bo'lgan. Mavlono Lutfiyning shoirlik ijodi, o'zbek adabiyotida yirik ahamiyatga ega bo'lib, uning yaratgan asarlar turli davrlarda O'rta Osiyoda va boshqa mamlakatlarda katta iz qoldirdi. Uning qo'shma sarguzasht va qissalari shoir ijodiy qobiliyatini naqadar kuchli ekanini namoyon etadi va adabiyot tarixida uning o'rni muhimligidan dalolat beradi.



Mavlono Lutfiyning tarjimai holi uning adabiyotda yaratgan tarjimalari va tarjima asarlari orqali ifodalangan. Uning tarjimalarida o'ziga xos uslub va izohli so'z san'ati keng qo'llanilgan. Mavlono Lutfiyning ijodiy faoliyati va yaratgan asarlari adabiyot tarixida katta e'tirof va hurmat bilan qaraladi.

Lutfiyning hayot yo'li kabi uning ijodiy faoliyati ham ibratli. Shoir 99 yil umr ko'rgan. Lutfiy umrining asosiy qismini o'qish, ilm o'rganish va badiiy ijod bilan shug'ullanib o'tkazgan. Navoiyning "Majilis un-nafois" tazkirasidagi ma'lumotlarga ko'ra, Lutfiy umrining oxirlarida "oftob" radifli bir she'r yozgan, o'sha zamonning ko'plab shoirlari Lutfiyga tatabbu qilganlar, ammo ulardan hech biri Lutfiyning "panjasiga panja" ura olmaganlar, ya'ni shaxsan ko'risha olmaganlar. Navoiyning yozishicha, Lutfiy 90 yoshdan o'tganda, Abdurahmon Jomiy otig'a radifi "suxan" saj' qasidae aytib erdiki, zamon xushgo'ylari barcha xo'bliqqa musallam tutmishlar("Nasoyim ul-muhabbat"). Lutfiy ham zohiriydunyoviy, ham diniy tasavvufiy ilmlarni chuqur egallagan, davr va zamoniga ochiq nazar bilan qarashga qodir, haqiqat va ma'rifatga sodiq ijodkor edi. Lutfiy o'z ona tili bo'lgan turkiy tilda ijod qilib mashhurlikka erishgan bo'lsada, forsiy tilda ham u o'z iqtidori va katta mahorat egasi ekanligini ko'rsata olgan. Shoir hayotiga oid ma'lumotlar:

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois", "Holoti Sayid Hasan Ardasher", "Nasoyim ul-muhabbat", Xondamirning „Makorim ul-axloq“ kabi asarlarida keltirilgan.

Lutfiy ijodi xilma-xil shakllardan tarkib topgan mazmundor va rangin she'riyatdir. Bugungi kungacha shoirning XVI-XX-asrlarda ko'chirilgan turkiy devonining 33 nusxadagi qo'lyozmalari yetib kelgan. Hozirda bu asarlar Toshkent, Dushanbe, Istanbul, Tehron, London, Parij, Sankt-Peterburgdagi kutubxonalar va qo'lyozma fondlarida saqlanib kelinmoqda. Olim E.Ahmadxo'jayevning aniqlashi bo'yicha Lutfiy ijodiga mansub she'rlarning umumiy miqdori 2774 bayt yoki 5548 misradan ortiq. Ularning katta qismi, ya'ni 2086 bayti g'azal janriga mansub bo'lgan. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Lutfiy g'azalnavis sifatida Sharq adabiyotida barqarorlashgan adabiy-estetik an'analar bilan xalq og'zaki ijodiyoti tajriba tamoyili va usullarini nihoyatda mohirlik bilan muvofiqlashtirgan. Shu sababdan ham uning g'azallarida milliy his-tuyg'ular nurlanib, insoniy dard, armon, qayg'u va shodlik tasviri takrorsiz bir ta'sirchanlik kasb etgan. Lutfiy g'azallarida, ruboiy, tuyuq, qit'a, fardga o'xshash boshqa janrlardagi she'rlarida ham nafosat hissi shakllangan, did va saviyasi baland kishilarning – zukko va hayotsevar xalq vakillarining fikr-u tuyg'ularini tarannum etgan.



Shoirning “*Sensan sevarim, xoh inon xoh inonma, Qondur jigarim, xoh inon xoh inonma,*” kabi misralarini o’qiganda, ularning bundan bir necha asr muqaddam yozilganiga ba’zan ishongingiz ham kelmaydi. Chunki bunday asarlar shu darajada sodda, og’zaki, nutqqa yaqin va kitobiy bezakdorlikdan holi va samimiydir.

Lutfiyning devonidagi bosh mavzu sevgi-muhabbat, ishq va asosiy maqsad oshiqning kasb-u holini tasvirlashdan iborat. Lekin shoir deyarli har bir she’rida mavzuga yangicha yondashib, betakror ohanglar yaratadi, mohiyatiga mos poetik obrazlar topadi, bir-biriga o’xshamaygan san’atlarni qo’llaydi. Lutfiy devonida tashbeh, talmeh, tazod, iymon, xususan, irsoli masal san’atlari ham keng qo’llangan. Mavlono Lutfiy ruboiy, tuyuq qit’alarini ham san’at namunasi maqomiga ko’tara olgan shoirdir.

Yaqin-yaqingacha “Gul va Navro’z” dostoni Lutfiy qalamiga mansub deb hisoblanar edi. Keyingi tadqiqotlar natijasida bu doston muallifi Haydar Xorazmiy ekanligi aniqlanadi. Lutfiy – turkiy she’riyatda maktab yarata olgan qalami o’tkir san’atkordir. Bu ijod maktabidan Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur saboq olishgan. Roqim, Amiriy, Sultonxonto’ra Ado, Tabibiy singari shoirlarning devonlarida Lutfiy g’azallari ilhomida bitilgan muxammaslar joy olgan.

Lutfiy g’azallarining ta’siri O’rta Osiyo bilan chegaralanib qolmasdan, Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlariga ham yetib borgan. Taniqli turk olimi M.F.Ko’prulizodaning e’tirof etishicha, Lutfiy she’rlari faqat chig’atoy shoirlari orasida emas, balki “Xarabot” muallifi Ziyo Poshoga qadar bo’lgan usmonli turk shoirlari orasida ham zavq bilan o’qilgan. Misol uchun:

*Kelmadi sendek jahonda dibari ayyorae,
Nasli odam ichra yo’q mundoq pari ruxsoraе.
Qon to’kar, el bilmasunlar deb o’zin to’g’ri qilur,
Qo’rmadi hech kim ko’zidek joduyi makkoraе.
Tortaram yuz ming jafо ko’nglum elindin, koshki
Bergay zrди haq ko’ngul , berguncha sangi xoraе.
Yopma yuzkim, haq yaratmish yaxshilarni lutf ila
Kim, alarming ko’rkidin osonlagay bechorae.
Hajr uzotur erdi ko’p zulm ilgini tan mulkida,
Bo’ldilar jonu ko’ngul bir-birisi ovoraе.
Husn to’nin kiydingu esking uchun bo’ldi talosh,
Tortishib gul topti oxir ko’nglagi sadporaе.
Lutfiyning ko’nglin olgil, yoxud o’ltur tiyg’ila,*



Har netak ko'nlung tilar, bechorag'a qil choraе.

"Xoh inon, xoh inonma" radifli g'azali tamoman turkona ruhda bitilgan.

An'anaviy yetti baytdan iborat. Ishq g'azalning asosiy mavzusi. G'azalning tili – sodda, ravon yozilgan. Murakkab, falsafiy – tasavvufiy so'z va timsollar uchramaydi deyarli. Bugungi o'quvchilar uchun ham sodda va tushunarli. Yengil kayfiyat, boshqacha bir ishqiy zavq bilan o'qiladi. Hozirgacha hofizlarimiz bu g'azalni qo'shiq qilib kuylayotgani ham shundan bo'lsa kerak. Bu g'azal ham mumtoz yo'lda, ham zamonaviy estrada usulida ashula qilingan. Lutfiyning bu g'azali ham juda mashhur. Bu g'azal ham juda chuqur ma'noga ega hisoblanadi.

Sensen sevarim, xoh inon, xoh inonma,

Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma.

Hijron kechasi charxi falakka yetar, ey moh,

Ohi saharim, xoh inon, xoh inonma.

Haqqoki qilich kelsa boshimga, eshikingdin

Yo'qtur guzarim, xoh inon, xoh inonma.

Usruk ko'zing ashkolina har gah nazar etsam,

Qolmas xabarim, xoh inon, xoh inonma.

Ya'qub bikin ko'p yig'idin qolmadi sensiz

Nuri basarim, xoh inon, xoh inonma.

Oy yuzung'a ko'z solg'ali o'zga kishi birla,

Yo'qtir nazarim, xoh inon, xoh inonma.

Ishq o'tida Lutfiy yuzi oltunni yoshurdi,

Ey siymbarim, xoh inon, xoh inonma.

"Tortadur" radifli g'azalda shoirning shaxsiy kechinmalari kutilmaganda ijtimoiy xususiyat kasb etadi. U befavo yordan shikoyat qila turib, birdaniga umumlashma xulosa chiqarishga, hayotning adolatsizligini baralla aytishga intiladi. Odatda, o'z yoridan yozg'irilmaydi. Oshiqlik odobi ham, solikning sadoqati ham shuni taqozo qiladi. Lekin har qanday sabr-toqatning ham chegarasi borligi chin bo'lsa kerakki, shoir kimnidir «nodon» degan yorliq bilan siylaydi. Ehtimol, bu sifat yor qoshidan joy olgan kishiga atalgandir, ehtimol ma'shuqaga? Har holda shoir shaxsiy dardini she'ridan umumlashtiruvchi xulosa chiqarishning vositasiga aylantiradi.

Ko'rgali la'ling aqiqin ko'nglum ul yon tortadur,

Bu yamon andishaliqni go'yo qon tortadur.



*Dod ko'zungdinki, dinga necha yuz ursam,
Kufr sori sehr ila ul nomusulmon tortadur.
Olida jon tortadurman, to magar tushg'ay qabul,
Bir nazar qilmas bu miskin sorikim, jon tortadur.
Xoki poyekim anga zulfi tegar ko'p istaram,
Yo meni tuproq, yo rizqi parishon tortadur.
Mayl etar o'z jinsig'a har jins o'zini lojaram,
Beli sori ul kamandi anbarafshon tortadur.
Qoshlari yosin quloqqa yetkura tortar ko'zi,
Ikki yoni masti lo'yaqil ne oson tortadur?
Yo'q turur yolg'uz bu Lutfiy jonig'a javri raqib,
Qayda bir dono durur, ul javri nodon tortadur.*

Lutfiyning bu kabi g'azallari o'zbek va jahon adabiyotining haqiqiy durdonalari hisoblanadi va bu tan olingan. Lutfiyning bu kabi g'azallari juda chiroyli va katta mahorat bilan yozilgan. Lutfiy g'azallariga qoyil qolmaslikning iloji yo'q. Chunki bunday g'azallarni har kimdan ham eshitavermaymiz. Lutfiyning bizga qoldirgan merosi ko'p bo'lmasa ham qoldirganlari juda katta ma'noga ega. Lutfiyning qoldirgan ma'naviy merosi yoshlarni tarbiyalashdagi o'рни juda katta. Sababi bu g'azallarni o'qigan kishida yurtiga, oilasiga, o'z turmush o'rtog'iga, jamiyatga muhabbatini oshishiga ko'makchi vosita bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/lutfi>
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbekmumtoz-adabiyoti/mavlonoh><https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-sheriyati/o-zbek-mumtoz-adabiyoti/mavlonolutfiy-1366-1465>
3. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/lutfiy-poetrydevon.html>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Lutfiy>
5. <https://ilmlar.uz/lutfiy-hayoti-va-ijodi-lutfiy-tarjimai-holi/>
6. Tanlangan asarlar [2-nashri], T., 1968; Sensan sevarim... T., 1987.
7. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – С. 175-179.
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
9. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.



NURIDDIN MAHMUD IBN ZANKIYNING ISLOM OLAMI UCHUN QILGAN ISHLARI

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov
TATU Samarqand filiali
Kompyuter Injineriing fakulteti
KI23-02 guruh talabasi
BOYQULOV R.J.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Shom xaloskori, Salohiddin Ayyubiy ustoz, Harim g'olibi, Turkklar urug'idan bo'lgan Imumuddin o'g'li Nuriddin Mahmud ibn Zankiyning buyuk hayot yo'li va yuksak insoniy fazilatlar haqida fikr yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается великий жизненный путь и высокие человеческие качества Нуриддина Махмуда ибн Занки, освободителя Сирии, учителя Салахиддина Айюби, победителя Харима, сына Имумуддина из тюркского рода.

Abstract: This article discusses the great life path and high human qualities of Nuriddin Mahmud ibn Zanki, the liberator of Syria, the teacher of Salahiddin Ayyubi, the conqueror of Harim, the son of Imumuddin from the Turkic clan.

Kalit so'zlar: Islom, Salibchilar, Misr, Suriya, Damashq, Harim qal'asi, Yevropa, Salohiddin Ayyubiy, Davlat g'aznasi, Amir'ul-odil.

Nuriddin Mahmud ibn Zankiy - Buyuk Saljuqiylarning Halabdagi otabeyidir. Zankiylar sulolasidan bo'lgan Nuriddin 1118-yilda tug'ilgan. 1146-yilda otasi Imaduddin Zankiy vafot etgach davlat eski turkiy urf-odatlariga ko'ra merosxo'rlar o'rtasida taqsimlandi. Bu bo'linish oxirida Mosul Sayfiddin G'oziyga, Halab va uning atrofi esa Nuriddinga qoldirildi. 1150-yilda u Turkiyaning Saljuqiylar sultoni Rukhiddin Masud I ning qiziga uylanadi¹.

I va II Salib yurishlari orasida Anadolu, Suriya va Falastinni, Imoduddin Zankiy 1144-yili Urfani zabt etib, Birinchi salib yurishi oxirida tashkil etilgan Urfa okrugiga barham berdi. Bu g'alaba salibchilarga qarshi birinchi muhim muvaffaqiyatdir. Urfa yo'qolganidan keyin Yevropa ikkinchi salib yurishiga tayyorlandi. O'rta asr islom olamining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Nuriddin Mahmud ibn Zankiy 1148-yilda ukasi vafotidan keyin uni o'z o'rnini

¹ Elisséeff, N., Nûr ad-Dîn Un Grand Prince Mosulman de Syrie au Temps des Croisades, II, Damas 1967.



egallagan akasi va Mosul Otabey Sayfiddin G‘oziy va ukasi Qudbiddin Mevdud bilan birga harakat qilib, salibchilarga qarshi Islom frontini birlashtirdi. Salibchilarga qarshi kurashda u otasidan meros qolgan usul bilan salib yurishini zararsizlantirishga harakat qildi. Zankiylarning bunday fidokorliklari natijasida salibchilar oldinga siljish imkoniyatini topa olmadilar va qirg‘oq bo‘ylab qolib ketishdi.

Nuriddin 1146-yilda Urfani yana to‘satdan hujum bilan zabt etdi va bu qisqacha salibchilar qo‘liga tushdi. Shuning uchun Urfa okrugligini tiklashga urinish muvaffaqiyatsiz tugadi. Keyingi yili u Artak va uning atrofini ham qo‘lga kiritdi. U bilan birga Sayfiddin G‘oziy Damashqni qamal qilib, salibchilar bilan jang qildi. U salib yurishining muvaffaqiyatsiz tugashini ta‘minladi. U Xarim qal‘asini qo‘lga kiritdi, Yagradagi salibchilarni mag‘lub etdi. 1149-yilda Antioxiya shahzodasi Raymond Afrin jangida o‘ldirildi. Bu g‘alaba musulmon olamida Nuriddin Zankiyning obro‘cini juda oshirdi. Keyinchalik u Famiya qal‘asini ham qo‘lga kiritdi².

U Urfa grafi Joselin II ni 1152-yil asirga olib, Halabda qamoqqa tashladi. 1154-yilda Damashqqa hujum qilib, Muchiriddin Abakdan Damashqni oldi. 1156-yilda Quddus qiroli Boduen III bilan sulh tuzdi. Biroq Boduen turk va arab chodirlariga hujum qilganda bu tinchlik buzildi. Nuriddin Damashq yaqinidagi janglarda g‘alaba qozondi va Banyasda o‘ldirilganlar uchun nasroniy asirlarini qilichdan o‘tkazdirdi³.

1158-yilda salibchilardan yengilgan bo‘lsa-da, 1164-yilda Harimda ularni mag‘lub etadi.

Mahmud Zankiy Misrda Fotimiy halifasining makkorligini anglab yetadi va Eseduddin Shirkuh va Shirkuhning jiyani Salohiddin Ayyubiyni Misrga jo‘natadi va Fotimiylarning salibchilar bilan hamkorlik qilishiga to‘sqinlik qiladi va shu tariqa Misrning Quddus podsholigi tasarrufiga o‘tishining oldini oladi. Shundan so‘ng, 1171-yilda islom olamida ikkilikka sabab bo‘lgan Fotimiylar xalifaligining yemirilishini ta‘minlab, saljuqiylarning orzusi, ya‘ni islom birligining amalga oshishiga olib keldi.⁴ Salohuddin Ayyubiy Nuriddin Zangi vafotigacha Misrning noibi bo‘lib, uning amridan tashqariga chiqmadi.

² H. Gibb (“The Career of Nur ad Din”, A History of the Crusades, ed. K.M. Setton, London 1969, p. 515)

³ Ibn al-Qalanisi, p. 318-21; Ibn al-Azir, XI, p.169 f.;

⁴ Ibn al-Azir, XI, p. 296 f.; Ibn Shaddad, p. 61 f



Nuriddin Mahmud 1173-yilda Marash va Go'ksunni Anadolu saljuqiylaridan oldi, lekin Qilich Arslon II bilan shartnoma tuzib, shaharlarni qaytarib berdi. Nuriddin 1174-yilda Damashqda faringitdan vafot etadi.

Nuriddin Mahmud Zangi adolatli hukmdor edi. Shuning uchun ham o'z qavmi unga **Amir'ul-odil** (Odil hukmdor) laqabini qo'ygan. Bolaligida yaxshi ta'lim olgan Nuriddin davlat boshqaruvida diplomatik uslubdan foydalangan. U amalga oshirgan usta siyosati tufayli musulmonlarning birligini ta'minladi va keyinchalik qo'mondonlaridan biri Salohuddin tomonidan amalga oshirilgan Quddusni fath qilish uchun zamin tayyorladi.

Nuriddin ilg'or rahnamo edi, har doim kelajakni o'ylab qadam tashlardi. Uning uchta orzusi bor edi. Birinchisi, musulmonlarni birlashtirish va islomiy birlikni o'rnatish edi — u tirikligida qilgan. Ikkinchi orzu, ya'ni Quddusni qayta zabt etish, Salohuddin o'zidan keyin amalga oshirdi. Uning oxirgi orzusi Konstantinopolni zabt etish, bu Usmonli sultoni Mehmed II ga nasib bo'ldi.

Nuriddin maorifga katta ahamiyat bergan. Damashq, Halab, Xama, Homs va Baalbek shaharlarida ta'lim muassasalari tashkil etdi. U birinchi „Dorul hadis“ga asos solgan, rasadxonada quyosh soati qurdirgan. U o'z qo'mondonlariga alohida ahamiyat berib, ularni, ayniqsa Salohuddinni ham sarkardalik, ham siyosatga o'rgatgan. Damashqdagi Nuriya madrasasida dafn etilgan, tirikligida o'zi tomonidan qurilgan. U Damashqda qurgan buyuk kasalxona o'sha davrning eng mashhur mutaxassis shifokorlari xizmat ko'rsatgan sog'liqni saqlash muassasasi edi. U hadis universiteti bo'lgan birinchi „dor-ul-hadis“ga asos solgan va ko'plab kitoblarni hadya qilgan. U dindor edi va olimlarning homiysi edi. Hatto o'z qarorgohida ham Qur'on o'qib, hurmat bilan tinglardi. U o'z davlatini adolat bilan boshqargani uchun „Malik-ul-Odil“ laqabi bilan mashhur edi. Haftada ikki kun xalq oldiga chiqib, shikoyatlarni tinglardi. Adolatsizlikning oldini olish, davlat manfaatlarini himoya qilish maqsadida razvedka idorasini tuzdi. U muloqotda kabutarlardan foydalandi. O'zining va oilasining ehtiyoj va manfaatini shaxsiy mol-mulkidan sarf qilar edi. O'ljadan ulamolar halol degan narsadan boshqa narsani olmas, oltin va kumush ishlatmas, ipak kiymas edi⁵.

U davlatni adolat bilan boshqardi. Uning davlatida deyarli hech kimdan soliq olinmasdi, faqat urush davrlari boylardangina soliq olinardi. Keyinchalik ulardan ham soliq olish to'xtatiladi.

⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Nuriddin_Mahmud_ibn_Zangi

⁶ Ibn al-Azir, al-Bâhir, p. 301 ff.; Ibn Kathir, XII, p. 494.



Nuriddin Zankiy haqida tarixchi Ibn ul-Asir shunday deydi: “Islom tarixini o’rganish mobaynida eng adolatli 4 Xulafoi Roshidinlardan keyin Umar ibn Abdulazizda mana shu adolatni ko’rdim. Umardan keyin bunaqa adolatli kishini uchratmadim, lekin ularning safiga qo’shish mumkin bo’lgan yana bir kishi bor, bu Nuriddin Mahmud ibn Zankiydir”.⁶ U davlat tepasiga kelgandan, adolat qurdi. “Biz shariat hukumlarini ijro etuvchi posbonlarmiz” Uning shunday so’zlarini eslab o’tishimizning o’zigina uning davridagi adolatsizliklar, to’xtovsiz urushlar va musulmonlar hayoti uchun katta xavf solib turgan Salibchilar armiyasining harakati kechayotgan davrdagi qiyinchiliklarni tasavvur qilishimiz mumkin. U shunday og’ir davrda nafaqat o’z davlatini adolat bilan boshqardi, balki tarqalib ketgan boshqa musulmon davlatlarini ham birlashtirib asosiy dushmanga qarshi kurashish yo’lidan dadil odimladi.

Nuriddin Zankiy hech qachon davlat xazinasidan o’z ehtiyojlari uchun bir chaqa ham pul olmagan, doimo o’ziga kerakli harajatlar uchun o’zi harakat qilgan. U kishi hech qanday shohona saroylar-u hashamatli uylarda yashamagan. Janglardan tushgan o’ljalarni kambag’allarga tarqatib yuborgan. Aytishlaricha undan, nega jangdan tushgan o’ljalarni o’zingiz yoki qo’shiningiz uchun sarflamaysiz deb so’rashganda, u kishi: “Axir men mana shu insonlarning duolari evazigagina janglarda g’alaba qozonayotgan bo’lsam, yana qanday qilib ularning haqqini ishlatishim mumkin” - deya javob bergan.

Nuriddin Mahmud Zankiy doimo o’z qo’shinini ruhlantirish, dushmanga qarshi mardonavor jang qilishga chaqirish uchun janglarga birinchi qatorlarda kirgan va har bir jangda shahidlik orzusida dushman bilan olishgan. Lekin Alloh unga jangda shahid bo’lish taqdirini bitmadi.

Nuriddin Mahmud Zangi taqvo bo’yicha ham odamlarga o’rnak bo’ldi. U yarim tungacha uxlab tunning o’rtasida turib tahajjud namozini o’qirdi. So’ngra bomdod namozini o’qib, erta tongdan davlat ishlarini bajarish uchun shoshardi. Nuriddin Hanafiy fiqhini juda yaxshi bilgan, lekin hech kimga mutaassiblik ko’rsatmagan. Ko’p vaqtini ibodat bilan o’tkazgan va uning diniy turmush tarsi ko’pchilikka ibrat bo’ldi. Hattoki Quddusdagi salibchilar: “U bizdan askarlari soni bilan emas, balki kechalari o’qigan namozlari soni bilan ustun keldi” - der edi.⁶ Shu asnoda bir hikoyani eslab o’tishni joiz deb topdim. Bu Nuriddin Zankiyning hayotidagi eng sharaflari va e’tiborli voqea sanaladi.

⁶ Ibn al-Azir, XI, p. 323; Ibn Kathir, XII, p.501



Hijriy 557 yil. Iroqning shamoliy qismidagi shaharlarda havo o'zgarib, osmonda chaqmoq chaqa boshladi. Odil, taqvodor podsho Mahmud Nuriddin Zankiy har doimgidek tahajjud namozini o'qib bo'lgach, uxlashga yotdi. Ko'p o'tmay, tushida Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning: Meni mana bu ikki oq-sariqdan kelgan odamdan qutqargin, deyayotganlarini ko'rdi. Podshoh cho'chib uyg'onib, o'rnidan turdi. Tahorat olib, namoz o'qidi, so'ng Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamga salovot aytib, yana uyquga ketdi. Sal o'tmay yana tush ko'rdi. Tushiga yana Rasululloh sollallohu alayhi vasallam kirdilar, Ey Mahmud! Meni mana bu ikkita malla odamdan qutqargin deb, oq-sariqdan kelgan ikki kishiga ishora qildilar. Mahmud Nuriddin yana cho'chib uyg'ondi. Tahorat olib, namoz o'qidi va yana salovot aytib, ikkinchi marta uyquga yotdi. Ko'zi ilinishi bilanoq yana Rasululloh sollallohu alayhi vasallamni tush ko'rdi. U Zot yana boyagi so'zlarini qaytardilar. Podshoh uyg'onib, o'rnidan turdi. Endi uyqu yo'q, dedi-da, ko'rgan tushini dono va ziyarak vaziri Jamoliddin Musiliyga aytdi.

Vazir podshohga: Muhtaram sulton, bu tushingizni hech kimga aytmang. Hozirning o'zida Madinaga qarab yo'l oling, dedi. Mahmud Nuriddin Zankiy o'sha zahoti o'zi bilan bir qancha mol-mulk, yigirma kishilik askar va dono vazirini olib Madina tomon yo'l oldi. O'n olti kun deganda Madinai Munavvaraga yetib kelishdi. Sulton g'usl qilib, Masjidi Nabaviyga kirdi va Ravzai mutohharada namoz o'qidi. So'ng Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning qabrlari oldiga keldi, U Zotga salom va salovot aytdi. So'ng nima qilishini bilmay, turib qoldi. Dono vazir podshohga: Madina ahlining barchasiga Podshohning sovg'asi bor, deb e'lon qiling. So'ng sovg'a olishga kelganlarga qarang. Tushingizda ko'rgan odamni uchratsangiz, uni hibsga olib, so'roq qilamiz, dedi. Darhaqiqat, e'londan so'ng Madina ahli podshodan sovg'a olish uchun birin-ketin kela boshlashdi. Podshoh sovg'alarni har bir kishiga o'z qo'li bilan ulashdi. Hammaga sovg'a tarqatib bo'lindi, ammo sulton tushida ko'rgan odamlarni uchratmadi. So'ng Madina ulug'laridan: Madinadagi hamma sovg'a olib bo'ldimi?, deb so'radi. Ular: Ha, sultonim! Hamma oldi. Faqatgina Mag'ribdan kelgan ikki kishi sovg'a olishga kelmadi. Ular juda taqvodor kishilar ekan, ko'plab muhtojlarga hadya ulashishdi. Har kuni kechgacha Masjidi Nabaviyda ibodat qilishadi. Ertalab tongda Baqi' qabristonini ziyorat qilishadi. Juda yaxshi insonlar ekan, deb javob berishdi. Podsho Ularni mening huzurimga olib kelinglar, dedi. Ularni olib kelishgan edi, podsho ularni darhol tanidi. Ular Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam tushda ko'rsatgan o'sha oq-sariqdan kelgan ikki kishi edi. Podsho ularning bu yerga kelish sababini so'radi. Ular: Bu dunyoda Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga qo'shni bo'lib,



ravzalarida namoz o'qib, buyuk sahobalarning qabrlarini ziyorat qilish uchun kelganmiz, deyishdi. Podshoh: Qayerda qo'nim topdingizlar? deb so'radi. Ular: Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning Hujrai saodatlariga yaqin bir mahallada, deyishdi. Podshoh ularning uyini ko'rish uchun bordi. Qarasa, sadaqa va ehson qilish uchun olib kelingan boyliklar va ba'zi kitoblar bor ekan. Podshoh taajjubda qoldi. Tushida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shu ikkovidan meni qutqar degan edilar, bular esa solih, taqvodor zotlar bo'lib chiqyapti-ku, deb hayron edi.

Oradan sal o'tmay, sulton ularning uyini qaytadan tekshirdi. Bir bo'yraning tagini ko'tarib qarashsa, chuqur handaq bor ekan. Handaqa tushib, ichini mash'ala bilan yoritishdi. Bu Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning Hujrai saodatlari tomonga qarab qazilgan lahm bo'lib chiqdi. Mahmud Nuriddin Zankiy Madinaga yetib kelganda lahmning oxiri Hujrai saodatga ozgina qolgan ekan. Podshoh ularni qattiq so'roq qildi. Ma'lum bo'lishicha, ular asli nasroniylar ekan. So'roq davomida ikkovi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning jussalarini o'g'rilash uchun kelganiga iqror bo'ldi. Ular kechalari lahm kavlashar, erta tongda esa go'yo Baqi' qabristonini ziyorat qilgan kishidek ko'rinib, aslida tunda to'planib qolgan tuproqni qabristonga to'kish uchun borishar ekan. Podshoh ularni qatl qildi, Hujrai saodatning atrofini esa chuqur qilib kavlatdi, atrofiga qo'rg'oshin eritib quyib, mustahkamlab qo'ydi. Odil, taqvodor podshoh Sulton Mahmud Nuriddin Zankiy Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam o'zlarini himoya qilish uchun uni loyiq ko'rganlariga, uni tanlaganlariga xursand bo'lganidan ko'z yoshlarini tiya olmas edi⁷. (Ushbu ma'lumotlar imom Barzanjiyning Tarixul Madina, Ibn Najjorning Tarixul Bag'dod, Muhiyuddin Tobariyning Riyozun nazira va Alloma Sayyid Nuriddin Ali Samhudiyning Xulosatul vafo asarlarida keltirilgan) Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, besh marta Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning muborak jasadlarini o'g'rilashga urinishgan. Lekin niyati buzuq o'g'rilarning birortasi maqsadiga erishmagan.⁸ Zero tirikliklarida himoya qilgan Alloh, vafot etganlaridan keyin ham O'zi himoya qiladi: **النَّاسِ مِنَ يَعْصِمُكَ وَاللَّهِ** **Alloh seni odamlardan saqlar**. (Moida surasi 67-oyat)⁹.

Nuriddin Mahmud Zankiy nafaqat Islom olamidagi barcha musulmonlarga, balki butun insoniyat uchun o'rnak bo'ladigan hayot kechirdi. Uning 27 yillik

⁷ 8 Evliya Çelebi Seyahatnamesi, IX, İstanbul 1935, p. 621-626. Cf. M. S. Küçükaşçı, Abbasiler'den Osmanlılara Mekke-Medine Tarihi, İstanbul 2007, p. 147 f.

⁸ <https://aniq.uz>

⁹ Qur'oni Karim



hukmronlik davri jang-u jadal, fitna, qiyinchilik va kurashlarga boy edi. Buning sababi, u katta maqsadlarni qo'ygan rahbar edi va uzoqni ko'ra bilgan siyosat olib borib o'zi boshlagan jihad harakatini davom ettirdi. O'z davrida adolatga intilgan insonlarning cheksiz hurmati va ishonchiga sabab bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, o'zining qo'rqqanligi, odil va taqvodorligi, g'animlarning zulmlariga qarshi kurashib shahidlik orzusi bilan yashashi uning hozirgi zamon yoshlari uchun katta tarbiya beradigan hayot yo'lini yaratdi. Biz mana shunday ulug' insonlarning hayot yo'lini o'rganar ekanmiz, o'zimiz uchun yuksak ahamiyatga ega bo'lgan tarbiya va o'rnak olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nuriddin_Mahmud_ibn_Zangi
2. <https://Aniq.uz>
3. Elisséeff, N., *Nûr ad-Dîn Un Grand Prince Mosulman de Syrie au Temps des Croisades, II*, Damas 1967.
4. Ibn al-Athir, *İslâm Tarihi*, İbnü'l-Esîr el Kâmil Fi't-Tarih Tercümesi, translated by A. Özeydin, XI, İstanbul 1987.
5. Ibn Kathir, *el-Bidâye ve'n-Nihâye*. Büyük İslâm Tarihi, translated by M. Keskin, XII, İstanbul 2000.
6. Ibn Shaddad, translated by C.R. Conder, *The Life of Saladin 1137-1193, by Beha ad-din Compared with the Original Arabic and Annotated*, PPTS, XIII, London 1897.
7. Evliya Çelebi Seyahatnamesi, IX, İstanbul 1935.
8. Cf. M. S. Küçükaşçı, Abbasiler'den Osmanlılara *Mekke-Medine Tarihi*, İstanbul 2007.
9. H. Gibb. "The Career of Nur ad Din", *A History of the Crusades*, ed. K. M. Setton, London 1969.
10. Ibn al-Qalanisi, *The Damascus Chronicle of The Crusades*, translated by (partially) H.A.R. Gibb, London 1932.
11. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." *Theoretical & Applied Science* 2 (2016): 175-179.
12. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
13. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." *European Scholar Journal* 2.11 (2021)



ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР ЎРТАСИДА НАЗОРАТСИЗЛИК ВА ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ.

*ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ ВА
КРИМИНАЛОГИЯ КАФЕДРАСИ*

Рахмонов Султонбек Сардорбек ўғли

*Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ҳуқуқбузарликлар
профилактикаси йўналиши бўйича таълим олаётган 310-гуруҳ
курсанти.*

АННОТАЦИЯ: Битирув малакавий ишида тадқиқот мавзусининг долзарблиги, предмети, объекти, вазифалари, профилактика инспекторларининг фуқаролик жамияти институтлари билан ҳамкорлиги тушунчаси, бугунги кунда бандлик органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикасидаги ролининг аҳамияти, ушбу ҳамкорликнинг ҳуқуқбузарликларнинг барвақт олдини олишдаги аҳамияти, ҳозирги ҳолат, шунингдек ушбу ҳамкорлик доирасидаги қатор муаммо ва камчиликлар ҳамда уларни бартараф етиш бўйича бир қатор таклифлар ишлаб чиқилган.

Жамиятда барқарорлик, тинчлик ва осойишталикни қарор топтириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларига сўзсиз риоя этилишини таъминлаш мамлакатни ижтимоийиктисодий жиҳатдан янада ривожлантириш, аҳоли фаровонлигини юксалтириш, ҳуқуқий демократик давлат куриш бўйича амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлардан кўзланган мақсадларга эришишнинг муҳим шарти ҳисобланади. Мамлакатимизда олиб борилаётган кенг кўламли ислохотлар ҳалқимиз томонидан қўллаб-қувватланмоқда. Бу ўзгаришларнинг дастлабки натижалари аҳолимиз ҳаёти ва кундалих турмушида ўзининг яққол ифодасини топмоқда, элюртимизнинг ижтимоий фаоллиги, эртанги кунга ишончи ўсиб бормоқда. Биз мамлакат ҳаётига дойр ҳар бир қарорни ҳалқимиз билан маслаҳатлашиб, бевосита мулоқот асосида қабул қилмоқдамиз. «Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат идоралари ҳалқимизга хизмат қилиши керак» деган ғоя фаолиятимиз мезонига айланмоқда. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жинойтчиликка қарши кураш борасидаги чора-тадбирларни аниқ манзилга йуналтириш ва уларга комплекс ёндашиш, идоралараро ҳамкорликни ривожлантириш,



ҳуқуқбузарликларнинг самарали профилактикасини амалга ошириш борасида ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан бир қаторда, бошқа давлат органлари ва жамоат ташкилотларнинг ҳам устувор вазифаси этиб белгиланиши бу борада уларнинг олдига алоҳида вазифалар белгилаб берилиши ҳуқуқбузарликлар профилактикасида самарали натижаларга эришишга имкон берди.

Ўтган қисқа давр ичида мамлакатимиз суд-ҳуқуқ тизимида кенг кўламли ислохотлар амалга оширилиб, унинг натижасида ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тизими изчил ислох этилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли кимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тугрисида» 2017 йил 10 апрелдаги 5005-сонли фармони, «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 14 мартдаги 2833-сонли қарорида ижтимоий муаммоларни ҳал этиш биринчи навбатда аҳоли бандлигини таъминлаш, аёллар ва ёшларни ижтимоий фойдали фаолиятга жалб этишни фаоллаштириш, вояга етмаганларнинг буш вақтини мазмунли ташкил этиш буйича чора-тадбирларнинг самарадорлигини ошириш шунингдек ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг барвақт олдини олишни таъминлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, ички ишлар органларининг соҳавий хизматлари ҳамда ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ва жамоатчилик органлари билан ҳамкорликни самарали ташкил этиш каби катор вазифалар белгилаб берилган.

Дарҳақиқат, мамлакатимизда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини самарали ташкил этиш, шу жумладан вояга етмаганлар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш тизимини такомиллаштиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Бундай саъйҳаракатлар, аввало, кенг жамоатчиликнинг иштироки билан 2020 йилда умумий жиноятчиликни 36 фоизга камайтиришга эришилди, 3 минг 205 та ёки 35 фоиздан зиёд маҳаллада эса бирорта ҳам жиноят содир этилмади.

Профилактика инспекторларининг вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар ҳуқуқбузарликларнинг сабаблари ва содир этилишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш ва бартараф этиш фаолиятида биринчидан, вояга етмаганлар томонидан содир этилган



ҳуқуқбузарликларнинг сабаблари ва уларга имкон бераётган шартшароитларни аниқлаш, таҳлил қилиш, ҳисобини юритиш ва бартараф этиш борасида самарали чораларни ишлаб чиқишга; иккинчидан, ушбу тоифадаги шахслар билан ишлаш тизимини такомиллаштиришга; учинчидан, ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил, вақтинча ишсиз, назоратсиз ва қаровсиз аҳволда бўлган вояга етмаганлар ва ёшларни ўз вақтида аниқлаш, улар билан профилактик ишларни тўғри ташкил этишга; тўртинчидан, уюлмаган ёшлар томонидан содир этилган ҳуқуқбузарликларнинг сабаб шароитлари ҳақида ҳуқуқий тарғибот ишлари самарадорлигини ошириш борасида ҳуқуқий тарғибот ишларини кучайтиришга хизмат қилади.

Профилактика инспекторлари томонидан вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда:

- ички ишлар органлари фаолиятини юридик таъминлаш ва уларнинг қонун ижодкорлиги ҳамда ҳуқуқни қўллаш амалиётида қонунийликка риоя этишга қаратилган чора-тадбирларни амалга ошириш; – қонунчилик ва ҳуқуқни қўллаш амалиётида ҳуқуқбузарликларни содир этиш сабаблари ва шарт-шароитлари бўлган омилларни аниқлашни таъминлаш, шунингдек уларнинг тизимли таҳлилини амалга ошириш;
- қонунчилик ва ҳуқуқни қўллаш амалиётини такомиллаштириш, ҳуқуқбузарликларни содир этиш сабаблари ва шарт-шароитларини бартараф этишга доир таклифлар ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш, шунингдек уларни давлат ҳокимияти ва бошқаруви органларига белгиланган тартибда киритиш;
- ички ишлар органлари фаолиятини такомиллаштириш, улар зиммасига юклатилган вазифа ва функцияларни амалга ошириш масалалари бўйича норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш;
- норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг тизимлаштирилган ҳисобини юритиш

Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда қонун ҳужжатларида қуйидагилар таклиф этилади:

- а) вояга етмаганлар ўртасида жиноятларнинг содир этилишини асл сабаб ва шароитларини аниқлаш ҳамда бартараф этиш бўйича марказлашган электрон маълумотлар базаси юритилишини йўлга қўйиш;
- б) вояга етмаганлар ўртасида жиноятларнинг содир этилишини асл сабаб ва шароитларини аниқлаш ҳамда бартараф этиш ишларининг аҳволини ҳар ойда бир маротаба халқ депутатлари вилоят, туман, шаҳар кенгашлари сессияларида



танқидий муҳокама қилиш ва айбдор шахсларнинг жавобгарлигини қатъий кўриб бориш тартибини жорий этиш;

в) маиший зўравонлик билан боғлиқ жиноят содир этишга мойил бўлган шахслар, хусусан уюшмаган ёшлар билан профилактик ишлар самарадорлигини ошириш мақсадида «маиший зўравонликка мойил шахслар»ни профилактик ҳисобга олиш юритиладиган шахслар доирасига киритиш;

г) оғир ёки ўта оғир жиноятнинг содир этилиши сабаблари ҳамда унга имкон берувчи шарт-шароитларни бартараф этиш бўйича тақдимнома (хусусий ажрим)ни бажармаслик учун жиноий жавобгарлик белгилаш, хусусан Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексини қуйидаги мазмундаги 2071 - модда (тақдимнома (хусусий ажрим)ни бажармаслик) билан тўлдириш: “Ваколатли орган ёки мансабдор шахс томонидан давлат органи, жамоат ёки бошқа ташкилот раҳбарига киритилган оғир ёки ўта жиноятнинг содир этилиши сабаблари ҳамда унга имкон берувчи шарт-шароитларни бартараф этиш бўйича тақдимнома (хусусий ажрим)ни бажармаслик

Муаммо:

Вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси инспектори фаолиятини такомиллаштириш юзасидан профилактика инспекторларининг иш фаолиятида етарлича юкламалар мавжудлиги, иш вақтининг камлиги яъни, ушбу соҳада фаолият олиб борувчи ходимлар вояга етмаганлар ишлари бўйича инспектор-психологларга қонун ҳужжатларига мувофиқ назорат қилиш ҳамда чора кўриш ваколатларининг берилмаганлиги; Таклиф:

Вояга етмаганлар ва ёшлар ўртасида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси инспектори фаолиятини такомиллаштириш юзасидан профилактика инспекторларининг иш фаолиятида етарлича юкламалар мавжудлиги, иш вақтининг камлиги яъни, ушбу соҳада фаолият олиб борувчи ходимлар вояга етмаганлар ишлари бўйича инспектор-психологларга назорат қилиш ҳамда чора кўриш бериш лозимлиги;

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Каримов.И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Ўзбекистон, 2008
2. Мирзиев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., «Ўзбекистон», 2016. – 56 б



3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Т,«Ўзбекистон», 2017.– 48 б.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон мафаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир. – Халқ сўзи. – Т., 2017. 8 янв
5. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қаттиқ тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак / Ш.М.Мирзиёев; – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
6. Мирзиёев Ш.М. Инсон манфаатларини таъминлаш учун аввало унинг ҳуқуқ ва эркинликлари, осуда ва фаровон ҳаёти ҳимоя қилинмоғи керак Халқ сўзи. – Т., 2017. 10 фев.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017.
8. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – 2017. – 23 дек.
9. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари ташкил этилганинг 26 йиллиги ва Ватан ҳимоячилари куни муносабати билан байрам табриги // Халқ сўзи.–2018.–13 янв.
- 10.Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 28 йиллиги муносабати билан байрам табриги // Халқ сўзи.–2020.–8 дек.



OMMAVIY TADBIRLAR TUSHUNCHASI.

*Xamdamov Amirbek Xatam o`g`li
O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
kunduzgi ta`lim 3-kurs kursanti*

Annotatsiya: mazkur maqolada tadqiqot mavzusining dolzarbligi, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining ommaviy tadbirlarini o`tkazish jarayonidagi asosiy vazifalarini va ushbu vazifalarni amalga oshirish davomida yuzaga kelishi mumkin bo`lgan muammoli holatlarni, tadbirlar davomida yuz berishi mumkin bo`lgan huquqbuzarliklarning oldini olish chora-tadbirlari, profilaktika inspektorining ushbu huquqbuzarliklarni oldini olish jarayonida jamoatchilik ishtiroki, ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va ta`minlashga oid chora tadbirlar, ommaviy tadbirlar davomida sodir etilgan huquqbuzarliklar natijasida jabrlangan shaxslarni himoya qilishning huquqiy asoslar, profilaktika inspektorining ushbu faoliyati doirasida yuritiladigan protsessual xujjatlar, ushbu faoliyatdagi muammo, shuningdek, ayrim turdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo`yicha bir qator takliflar, yuqorida keltirib o`tilganlardan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo`nalishlari yoritib o`tilgan.

Kalit so`zlar: ommaviy tadbirlar tushunchasi, ommaviy tadbirlarda jamoat tartibini saqlash va ta`minlashga oid chora tadbirlar, ommaviy tadbirlar davomida sodir etilgan huquqbuzarliklar natijasida jabrlangan shaxslarni himoya qilishning huquqiy asoslari.

Abstract: in this article, the relevance of the research topic, the main tasks of preventive inspectors of the internal affairs bodies in the process of conducting mass events and the problematic situations that may arise during the implementation of these tasks, measures to prevent violations that may occur during the events, public participation of the prevention inspector in the process of preventing these violations, measures related to maintaining and ensuring public order at public events, legal grounds for the protection of persons injured as a result of violations committed during public events, procedural documents kept within the scope of this activity of the prevention inspector, problems in this activity, as well as a number of proposals for eliminating certain types of existing shortcomings, directions for improving this activity using the above-mentioned are highlighted.



Key words: the concept of public events, measures to maintain and ensure public order at public events, legal grounds for the protection of persons injured as a result of offenses committed during public events.

Аннотация: в данной статье рассмотрена актуальность темы исследования, основные задачи инспекторов-профилакторов органов внутренних дел в процессе проведения массовых мероприятий и проблемные ситуации, которые могут возникнуть при реализации этих задач, меры по предупреждению нарушений, которые могут возникнуть во время проведения мероприятий, публичное участие инспектора по профилактике в процессе предотвращения этих нарушений, меры, связанные с поддержанием и обеспечением общественного порядка на публичных мероприятиях, правовые основания защиты лиц, пострадавших в результате нарушений, совершенных во время публичных мероприятий, освещены процессуальные документы, находящиеся в пределах данной деятельности инспектора по профилактике, проблемы в этой деятельности, а также ряд предложений по устранению отдельных видов имеющихся недостатков, направления совершенствования этой деятельности с использованием изложенного.

Ключевые слова: понятие публичных мероприятий, меры по поддержанию и обеспечению общественного порядка на публичных мероприятиях, правовые основы защиты лиц, пострадавших в результате правонарушений, совершенных во время публичных мероприятий.

Dunyo mamlakatlarida ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash ko'p qirrali va kompleks tavsiflanuvchi masala sifatida davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelayotgan muammolardan biridir. Ommaviy tadbirlarni o'tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bir tomondan, fuqarolarning erkin ravishda yig'ilishlar o'tkazishga bo'lgan huquqlarini kafolatlash bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan ommaviy tadbirlarni ruxsatsiz va noqonuniy holda o'tkazish davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida baholanadi. Xorij mamlakatlaridan AQSH (2020), Fransiya (2018), Ukraina (2018), Belarus (2020), Qirg'iziston (2018, 2020) va boshqa davlatlarda ommaviy tadbirlarni o'tkazish, jumladan, ko'cha namoyishlari va mitinglar bilan bog'liq noxush holatlarning yuzaga kelganligi masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Jahon miqyosida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni tashkiliy-huquqiy tartibga solish muammolarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa ommaviy tadbirlar vaqtida



ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tartibsizliklar, noqonuniy miting va ko'cha yurishlari kabi murakkab jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, mazkur omillar natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfning oldini olish va ommani boshqarishning ilmiy asoslangan samarali mezonlarini ishlab chiqish, jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash darajasini oshirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, jami o'tkazilgan ommaviy tadbirlar 2022 yilda 74 811 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 109 977 taga yetib, o'tgan yilga nisbatan 47 foizga oshgan. Tadbirlarda ishtirok etuvchilar ko'rsatkichining 259 051 nafardan (2022 yilda) 357 978 nafarga (2023 yilda) yetib, 58 foizga ko'payganligi mamlakatimizda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibining ommaviy buzilishini oldini olishda ichki ishlar organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligining ilmiy-nazariy asoslari va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etib, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, ularning natijalarini huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etishni talab etadi. Hozirgi kunda ommaviy tadbirlarni tinch va osoyishta o'tkazish jarayonida ichki ishlar organlarining o'rni va roli beqiyos. Amaldagi normativ qonun hujjatlariga asosan O'zbekiston Respublikasida ommaviy tadbirlarni o'tkazishining huquqiy asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2014-yil 29-iyul) 205-son qarori¹ hamda O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining 2015-yil 7 iyuldagi "Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davomida jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni taminlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 112-sonli buyrug'i² O'zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi, hamda ular ishtirokchilari obektlari, mamuriyatlari, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya bo'linmalari, shuningdek, davlat boshqa organlarining ommaviy tadbirlarni

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2014-yil 29-iyul) 205-son qarori

² O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligining 2015-yil 7 iyuldagi "Ommaviy tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish davomida jamoat tartibini saqlash, xavfsizlikni taminlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 112-sonli buyrug'i



o‘tkazishda fuqarolarning havfsizligini va jamoat tartibini taminlash bo‘yicha o‘zaro munosabatlari, huquqlari va majburiyatlarini tartibga soladi. Shu o‘rinda, tadbirlarning turlari va ularni o‘tkazish tartibiga to‘xtalishdan avval, uning lug‘aviy manosiga alohida etibor qaratsak “ O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ommaviy ”so‘zining mohiyatiga “ommaga, ko‘pchilikka oid, ko‘pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan ommaviy ish, ommaviy harkatlar” deb izoh berilgan. “Ommaviy tadbir” tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi (2014-yil 29-iyul) 205-son qarorning 3-bandida³ quyidagicha tarif berilgan :

Ommaviy tadbir – 100 va undan ortiq kishilarning ijtimoiy – siyosiy (anjumanlar , konfrensiyalar, syezdlar, va boshqalar) madaniy-ommaviy ko‘ngilochar-tomoshla dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar va o‘yinlar, kurik tanlov va boshqalar) shuningdek umumxalq , diniy , kasb bayramlarini o‘tkazish maqsadida ommaviy tadbirlarni o‘tkazish obektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikda qatnashishlari ommaviy tadbir hisoblanadi. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish chog‘ida turli nojo‘ya holatlar va ko‘ngilsiz vaziyatlar sodir bo‘lmasligini taminlash uchun ommaviy tadbirlarni tashkillashtirish va o‘tkazish tartibini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Hozirgi kunda birgina Sirdaryo viloyatida o‘tkazilayotgan 100 dan ortiq ommaviy tadbirlarni tinch va osoyishta o‘tkazilishi shuningdek yong‘in havfsizligi, yo‘l harakati havfsizligi, jamoat tartibi va havfsizligini taminlash faqt bir organga, yani ichki ishlar organlariga yuklatilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarida ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash ko‘p qirrali va kompleks tavsiflanuvchi masala sifatida davlat, jamoat tashkilotlari, fuqarolarning doimiy diqqat markazida bo‘lib kelayotgan muammolardan biri. Ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat tartibi va xavfsizligini ta‘minlash bir tomondan, fuqarolarning erkin ravishda yig‘ilishlar o‘tkazishga bo‘lgan huquqlarini kafolatlash bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomonidan ommaviy tadbirlarni ruxsatsiz va noqonuniy holda o‘tkazish davlat va jamiyat xavfsizligiga tahdid sifatida baholanadi. Xorij mamlakatlaridan AQSH (2020), Fransiya (2018), Ukraina (2018), Belarus (2020), Qirg‘iziston (2018, 2020) va boshqa davlatlarda ommaviy tadbirlarni o‘tkazish, jumladan, ko‘cha namoyishlari va mitinglar bilan bog‘liq noxush holatlarning yuzaga kelganligi

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2014-yil 29-iyul) 205-son qarori



masalaning dolzarbligini ko'rsatadi. Jahon miqyosida ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishni tashkiliy-huquqiy tartibga solish muammolarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqsa ommaviy tadbirlar vaqtida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va diniy omillar ta'sirida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tartibsizliklar, noqonuniy miting va ko'cha yurishlari kabi murakkab jarayonlarning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish, mazkur omillar natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfning oldini olish va ommani boshqarishning ilmiy asoslangan samarali mezonlarini ishlab chiqish, jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash darajasini oshirish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini topishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, jami o'tkazilgan ommaviy tadbirlar 2022 yilda 74 811 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 109 977 taga yetib, o'tgan yilga nisbatan 47 foizga oshgan⁴. Tadbirlarda ishtirok etuvchilar ko'rsatkichining 259 051 nafardan (2018 yilda) 357 978 nafarga (2023 yilda) yetib, 58 foizga ko'payganligi mamlakatimizda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishda jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibining ommaviy buzilishini oldini olishda ichki ishlar organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligining ilmiy-nazariy asoslari va tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etib, mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, ularning natijalarini huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etishni talab etadi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar ommaviy tadbirlarni o'tkazish tashkilotchilari bo'lishlari mumkin. Quyidagilar: tashkilotchilar, artistlar, sportchilar va dasturlarda nazarda tutilgan tomoshali chiqishlarni(harakatlarni) bevosita amalga oshiruvchi boshqa shaxslar hamda tomoshabinlar ommaviy tadbirlar qatnashchilari hisoblanadilar. Har bir ommaviy tadbir tashkil yetilishi va o'tkazilishi uchun ma'lum hudud va obyekt zarur bo'ladi va uning ham o'ziga xos huquq va majburiyatlari mavjud bo'ladi.

“Ommaviy tadbir” tushunchasiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada

⁴ www.stat.uz



takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi (2014-yil 29-iyul) 205-son qarorning⁵ 3-bandida ushbu muammoga sazovor tashkilot, muassasaga quyidagicha tarif berilgan :

Ommaviy tadbirni o'tkazish obyektining ma'muriyati - tasarrufida, foydalanishda, ixtiyorida ommaviy tadbirni o'tkazish obyekti joylashgan davlat organi, yuridek va jismoniy shaxs; Bundan tashqari ushbu qarorda ommaviy tadbirlar bilan bog'liq bir qancha zarur tushunchalar va ularning ta'rifi berilgan:

birinchi toifadagi ommaviy tadbir – 200 va undan ko'p kishilar ishtirokida Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlari hududida o'tkaziladigan ommaviy tadbir;

ikkinchi toifadagi ommaviy tadbir – birinchi toifaga kirmaydigan ommaviy tadbir; ommaviy tadbir o'tkazish obyekti – ommaviy tadbirlarni o'tkazish uchun maxsus mo'ljallangan yoki moslashtirilgan, yong'inga qarshi xafvsizlik, tez tibbiy yordam ko'rsatish, evakuatsiya qilish, kommunikatsiya, muhandis-texnik himoya vositalari va ommaviy tadbir ishtirokchilarining xafvsizligini ta'minlashning boshqa vositalari va tizimlari bilan jixozlangan, birinchi va ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlarni o'tkazish obyektlari ro'yxatlariga kiritilgan ochiq joy o'chastkalari, binolar, inshootlar va boshqa joylar (ma'daniyat va ma'rifat muassasalari, sport majmualari va boshqalar);

ommaviy tadbir tashkilotchisi – ommaviy tadbirni tashkil qilish va o'tkazish majburiyatini o'z zimmasiga olgan davlat organi, yuridik shaxs va 18 yoshga yetgan jismoniy shaxs;

ommaiy tadbir dasturi – ommaviy tadbirni o'tkazish maqsadlari, obyekti, sanasi va aniq vaqtini, har bir bosqichini o'tkazish uchun javobgar bo'lgan shaxslarni ko'rsatgan holda uning asosiy bosqichlarining vaqt bo'yicha jadvalini (bosqichma bosqich rejasini), foydalaniladigan texnik va muhandis-texnik vositalar (sahna maydonchasi, ovoz kuchaytirish, elektr ta'minoti manbai, chiroq va pirotexnika bilan bezatilishi, tibbiy xizmat ko'satish, ommaviy tadbir o'tkazilgandan keyin hududning yig'ishtirilishi)ni belgilab beruvchi, ommaviy tadbirni o'tkazish obyektining ma'muriyati bilan kelishuv bo'yicha ommaviy tadbir tashkilotchisi tomonidan tasdiqlangan hujjat;

ommaviy tadbir o'tkazish uchun ruxsatnoma – ommaviy tadbirni o'tkazish huquqini beradigan, vakolatli organ tomonidan qabul qilinadigan va ommaviy tadbir tashkilotchisiga beriladigan qaror;

ommaviy tadbirni o'tkazish obyektiga tutash hududlar – chegaralari mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari bilan belgilanadigan joy uchastkalari;

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2014-yil 29-iyul) 205-son qarori



vakolatli organ – Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklari;

Шу билан бирга, Фуқаролик процессуал кодекси, Иқтисодий процессуал кодекси ва Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодексга мувофиқ 2023 йил 1 майга қадар қабул қилинган биринчи инстанция судининг суд ҳужжатлари юқори инстанция судлари томонидан қайта кўрилаётганда уларда қўлланилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг Конституция нормаларига мос келмаслиги аниқланиши суд ҳужжатларини ўзгартириш ёки бекор қилиш учун асос бўлмайди. Бунда, Фуқаролик кодексининг 4-моддаси ва «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуннинг 41-моддаси талабларидан келиб чиқиб, фуқаролик ишлари бўйича, иқтисодий ва маъмурий судлар томонидан ишларни кўришда низоли муносабат бўйича тарафларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари қачон вужудга келганлиги аниқланиши керак.

Конституциянинг 20-моддасида инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари бевосита амал қилиши; инсоннинг ҳуқуқ ва эркинликлари давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, уларнинг мансабдор шахслари фаолиятининг моҳияти ва мазмунини ташкил этиши лозимлиги белгиланган. Шунга кўра, судлар давлат органлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари, уларнинг мансабдор шахслари билан муносабатларда инсон ҳуқуқларининг самарали ҳимоя қилинишини таъминлаш мақсадида мазкур органлар ва уларнинг мансабдор шахслари томонидан инсонга нисбатан ҳуқуқий таъсир чораларини қўллашда Конституцияда белгиланган мутаносиблик принципига риоя қилинганлигини текширишлари лозим. Бунда инсон билан давлат органларининг ўзаро муносабатларида юзага келадиган қонунчиликдаги барча зиддиятлар ва ноаниқликлар инсон фойдасига талқин этилади.



Шунингдек, Конституциянинг 55-моддасида давлат органлари ёхуд улар мансабдор шахсларининг қонунга хилоф қарорлари, ҳаракатлари ёки ҳаракатсизлиги оқибатида етказилган зарар ихтиёрий равишда қопланмаган тақдирда, унинг ўрни манфаатдор шахсининг аризасига асосан суд тартибида давлат томонидан қопланиши кафолатланганлиги инобатга олинаши лозим.

Судлар Конституциянинг 20-моддаси талабларидан келиб чиқиб, шахсга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши кераклигини инобатга олишлари зарур. Бунда ҳуқуқбузарлик содир этишда айбдор бўлган шахсга нисбатан қўлланиладиган жазо ёки бошқа ҳуқуқий таъсир чораси одилona бўлиши, яъни ҳуқуқбузарликнинг оғир-енгиллигига, айбнинг ва шахсининг ижтимоий хавфлилик даражасига мувофиқ бўлиши керак.

Судлар муайян ишларни кўришда Конституция 21-моддасидаги шахсга унинг розилигисиз қонунчиликда белгиланмаган мажбурият юклатилиши мумкин эмаслиги ҳақидаги нормага риоя этилганлигини текширишлари лозим. Бунда қонунчилик деганда, нафақат қонун ҳужжатлари, балки қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳам назарда тутилиши инобатга олинаши зарур.

Судлар Конституциянинг 28-моддаси талабларига мувофиқ айбдорликка оид барча шубҳаларни бартараф қилишнинг имкони йўқлиги шахсни айбсиз деб топишга асос бўлишини инобатга олишлари лозим.

Шахсининг ўз айбини тан олганлиги унинг айби судда текширилган бошқа далиллар билан исботланган тақдирдагина айблов ҳукми чиқарилишига асос бўла олади.

Жиноят ишларини юритишда гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи ўзининг айбсизлигини исботлаши шарт эмаслиги, исталган вақтда сукут сақлаш ҳуқуқидан фойдаланиши, ўзи ва яқин қариндошларига қарши гувоҳлик беришга мажбур эмаслиги билан боғлиқ Конституцияда белгиланган шахсий ҳуқуқ ва эркинликларини бузилиши процессуал қонун нормаларининг жиддий бузилиши деб эътироф этилади.

Судларнинг эътибори Конституциянинг 29-моддаси тўртинчи қисмига асосан қонунни бузган ҳолда олинган далиллардан одил судловни амалга ошириш чоғида фойдаланишга йўл қўйилмаслигига қаратилсин.

Конституцияда мустаҳкамланган шахсий ҳуқуқ ва эркинликларни ҳамда қонунларда белгиланган тартибларни бузган ҳолда ёхуд қонунларда



назарда тутилмаган ҳаракатлар натижасида тўпланган далиллар қонунни бузган ҳолда олинган далиллар деб эътироф этилиши лозим.

Конституциянинг 29-моддасига мувофиқ ҳар кимга малакали юридик ёрдам олиш ҳуқуқи кафолатланган бўлиб, қонунда назарда тутилган ҳолларда юридик ёрдам давлат ҳисобидан кўрсатилиши лозим.

Ҳар бир шахс жиноят процессининг ҳар қандай босқичида, шахс ушланганида эса унинг ҳаракатланиш эркинлиги ҳуқуқи амалда чекланган пайтдан эътиборан ўз танловига кўра адвокат ёрдамидан фойдаланиш ҳуқуқига эга.

Шунингдек, гумон қилинувчи, айбланувчи ёки судланувчи айбловнинг моҳияти ва асослари тўғрисида хабардор қилинишини, унга қарши ёки унинг фойдасига гувоҳлик бераётган шахсларнинг сўроқ қилинишини талаб этиш ҳуқуқига эга.

Шахсий эркинлик ва дахлсизликни кафолатловчи конституциявий нормаларни бузилиши ҳолатларига баҳо беришда судлар Олий суд Пленумининг 2003 йил 19 декабрдаги «Гумон қилинувчи ва айбланувчини ҳимоя ҳуқуқи билан таъминлашга оид қонунларни қўллаш бўйича суд амалиёти тўғрисида»ги 17-сон қарорида берилган тушунтиришларга амал қилиши лозим.

Судларнинг эътибори шахсга адвокат ёрдамидан фойдаланиш билан боғлиқ конституциявий ҳуқуқи тушунтирилмасдан ёки унинг бундай ҳуқуқларидан амалда фойдаланиши учун реал шароит яратиб берилмасдан туриб, унга нисбатан тергов ҳаракатлари олиб борилиши натижасида олинган далилларнинг мақбул эмас (яроқсиз) деб топилишига ва бундай далиллардан одил судловни амалга ошириш чоғида фойдаланишга йўл қўйилмаслигига қаратилсин.

2023 йил 1 майдан бошлаб шахснинг ёзишмалари, телефон орқали сўзлашувлари, почта, электрон ва бошқа хабарлари сир сақланиши ҳуқуқининг чекланишига, уй-жойида тинтув ўтказилишига фақат қонунга мувофиқ ва суднинг қарорига асосан йўл қўйилади.

Фуқароларнинг ёзишмалари, телефон орқали сўзлашувлари, почта, электрон ва бошқа хабарлари сир сақланиши, уй-жой дахлсизлиги ҳуқуқларининг чекланиши билан боғлиқ ҳолда ўтказилган тезкор-қидирув фаолияти натижалари мазкур тадбирлар суднинг рухсати асосида ҳамда 2012 йил 25 декабрдаги «Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида»ги ЎРҚ-344-сон



Қонунга мувофиқ амалга оширилгандагина ишда далил сифатида фойдаланилиши мумкин бўлади.

Судларнинг эътибори Конституциянинг 139-моддаси иккинчи қисмида суд ишлари олиб борилаётган тилни билмайдиган судда қатнашувчи шахсларнинг таржимон орқали иш материаллари билан тўла танишиш ва суд ишларида иштирок этиш ҳуқуқи ҳамда судда она тилида сўзлаш ҳуқуқи кафолатланганлигига қаратилсин.

Конституциянинг ушбу нормаси ҳамда Жиноят процессуал кодексининг 20-моддаси, Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 273-моддаси, Фуқаролик процессуал кодексининг 11-моддаси, Иқтисодий процессуал кодексининг 10-моддаси ва Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 12-моддасига мувофиқ судлар ишда иштирок этувчи шахсларга ўз она тилида ёки ўзи биладиган бошқа тилда оғзаки ёки ёзма арз қилиш, кўрсатув ва тушунтиришлар бериш, илтимоснома ва шикоятлар билан мурожаат қилиш, судда сўзлаш ҳамда таржимон хизматидан фойдаланиш ҳуқуқларини тушунтиришлари лозим.

Конституциянинг 16-моддасида Ўзбекистон Республикасининг қонунлари ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари Конституция асосида ва уни ижро этиш юзасидан қабул қилиниши, бирорта қонун ёки бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжат Конституциянинг принцип ва нормаларига зид бўлиши мумкин эмаслиги белгиланган.

Муайян ишларда қўлланилиши лозим бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг Конституцияга зидлиги аниқланган тақдирда судлар Олий судга шу масалада Конституциявий судга мурожаат қилиш юзасидан таклиф киритишлари лозим.

Тушунтирилсинки, Конституциявий суднинг тегишли норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг бир қисмини Конституцияга зид деб топиш ҳақидаги қарори судлар томонидан норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг қолган қисми қўлланилишига тўсқинлик қилмайди.

Судлар низоларни кўриш давомида идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат шахсининг Конституция билан кафолатланган ҳуқуқлари ва манфаатларига зидлиги аниқланганда, манфаатдор шахсга бундай ҳужжатни тўлиқ ёки қисман ҳақиқий эмас деб топиш тўғрисидаги ариза билан Маъмурий суд ишларини юритиш тўғрисидаги кодекснинг 22-боби тартибида Олий судга мурожаат қилиш ҳуқуқини тушунтиришлари лозим.



Судлар инобатга олишлари керакки, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг Конституция принцип ва нормаларига зидлиги уни Олий суд томонидан манфаатдор шахснинг аризасига асосан тўлиқ ёки қисман ҳақиқий эмас деб топиш учун асос бўлади.

Судлар ишларни кўриш натижалари бўйича Конституция нормалари ҳамда шахсларнинг кафолатланган ҳуқуқ ва қонуний манфаатлари бузилганлигини аниқлаган ҳар бир ҳолат бўйича қонун бузилишини келтириб чиқарган сабаб ва шарт-шароитларни пухта ўрганиб, тегишли мансабдор шахсларнинг қонунга хилоф ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги)га хусусий ажрим чиқариш йўли билан муносабат билдириши лозим.

Барча судлар, қонунчиликни қўллаётган давлат органлари, корхона, муассаса ва ташкилотлар ҳамда мансабдор шахслар мазкур Пленум қарори тушунтиришларига сўзсиз риоя этсин.

Фойдаланилган адабиёт: Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 23.06.2023 й. 16-сон қарори.



ОСОБЕННОСТИ ОСМОТРА МЕСТА ПРОИСШЕСТВИЯ

*Сотрудник УКД ОВД Сергелийского
района города Ташкент
Усманова Камила Камолжоновна*

АННОТАЦИЯ. Осмотр места происшествия составляет важную информационную базу, на основе которой следователь определяет схему расследования преступления.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: осмотр места происшествия, цели осмотра места происшествия, задачи осмотра места происшествия, принципы осмотра места происшествия, этапы осмотра места происшествия, протокол осмотра места происшествия.

Согласно статьи 141 Уголовно-процессуального Кодекса Республики Узбекистан для обнаружения следов преступления, вещественных доказательств, выяснения обстановки происшествия и иных обстоятельств, имеющих значение для дела, должностное лицо органа, осуществляющего доследственную проверку, дознаватель, следователь или суд производят осмотр места происшествия, трупа, животных, местности, помещений, предметов и документов.

Осмотр места происшествия — неотложное следственное действие, направленное на установление, исследование и фиксацию обстановки места происшествия, следов преступления, преступника и связанных с ними фактических данных, осуществляемое путём непосредственного восприятия следователем.

Осмотр в стадии доследственной проверки, дознания или предварительного следствия производится с участием понятых. Если необходимость в осмотре возникла при разбирательстве дела, суд выносит об этом определение и производит осмотр с участием сторон. В необходимых случаях в ходе осмотра должностное лицо органа, осуществляющего доследственную проверку, дознаватель, следователь или суд производит измерения, фотографирование, киносъемку, видеозапись, составляет планы, схемы, чертежи, изготавливает слепки и оттиски следов. Для содействия в этом к осмотру могут быть привлечены специалисты (статья 136 УПК Республики Узбекистан).



Цель осмотра места происшествия-обнаружение следов преступления, выяснения других обстоятельств, имеющих значения для уголовного дела. В целом они состоят в собирании и исследовании доказательств.

При осмотре места происшествия осматриваются объекты, имеющие криминалистическое значение в комплексе (обстановка места происшествия, следы, участок местности и т.д.), решается вопрос о том, не является ли осматриваемое место местом преступления.

Задачами следственного осмотра места происшествия являются:

- непосредственное изучение обстановки места происшествия для выяснения картины происшедшего события и отдельных его обстоятельств (что произошло, где, как и почему?);
- обнаружение, предварительное исследование, фиксация и изъятие следов преступления и преступника (кто, кого, чем?);
- установление и розыск лица, совершившего преступление по «горячим следам». Поиск доказательственной информации, которая позволила бы в сжатые сроки установить лицо, совершившее преступление, является важнейшей тактической задачей осмотра места происшествия. Важно, чтобы осмотр был проведен, когда преступник еще не уничтожил следы на месте преступления и сохранилась возможность его быстрого установления и задержания.

Принципами проведения осмотра места происшествия являются:

- неотложность осмотра места происшествия (она прямо закреплена в процессуальном законе как безотлагательность выезда на место происшествия) и обеспечивает своевременность обнаружения, фиксации, установление преступника;

— полнота — заключается в том, что все находящееся на месте происшествия следы и предметы, имеющие отношение к событию преступления, должны быть обнаружены, исследованы, закреплены. Необходимо осматривать все. Недопустим выборочный осмотр;

— всесторонность заключается в том, что при осмотре важно получить информацию не только о том, что находится на месте происшествия, но и в какой связи с местом происшествия. Важно в ходе осмотра дать ответ на семь классических вопросов: что, где, кто, как, чем, кого и почему;

— объективность — исследовать все, что обнаруживается на месте происшествия на момент осмотра (фиксировать обстановку, следы в том виде,



как установлено на момент осмотра, не реконструировать, не записывать со слов);

— целенаправленность и планомерность осмотра заключается в том, что осматривать следует по составленному логическому плану. Смотреть на место происшествия как систему объектов и следов, отражающих действия преступника, его жертвы, других лиц. Важно увязать их в логической последовательности и отыскать;

— единое руководство состоит в том, что ответственным за осмотр является следователь. Поэтому при необходимости следует удалить с места происшествия всех посторонних, включая руководителей, и все осматривать самому следователю, не передоверяя это действие другим участникам;

— активное использование научно-технических средств и соблюдение правил работы со следами.

Этапы осмотра места происшествия:

- первый этап — подготовительный, который включает в себя подготовку к осмотру места происшествия до выезда на место и подготовку к осмотру после прибытия на место;
- второй этап — рабочий, т.е. непосредственный осмотр места происшествия и состоящий из общего осмотра и детального осмотра;
- третий этап — заключительный, состоящий из оценки полученных результатов и фиксации результатов осмотра.





Согласно статьи 141 Уголовно-процессуального Кодекса Республики Узбекистан о производстве осмотра должностное лицо органа, осуществляющего последовательную проверку, дознаватель или следователь составляет протокол, а суд фиксирует ход и результаты осмотра в протоколе судебного заседания в соответствии с правилами, предусмотренными [статьями 90 — 92](#) Уголовно-процессуального Кодекса Республики Узбекистан. В протоколе описывается все обнаруженное при осмотре в той последовательности, в какой производился осмотр, и в том виде, в каком обнаруженное наблюдалось в момент осмотра. В протоколе перечисляются все следы, предметы и документы, обнаруженные и изъятые при осмотре. Владельцу изъятого имущества выдается соответствующая справка или копия протокола.

В протоколе, кроме того, должно быть указано: в какое время, при какой погоде и каком освещении производился осмотр; какие научно-технические средства были применены и какие получены результаты; кто был привлечен для оказания содействия в производстве осмотра и в чем это содействие выразилось; какие предметы и документы опечатаны и какой печатью; куда направлены после осмотра труп и другие предметы, имеющие значение для дела.

Своевременно, умело и тщательно произведённый осмотр происшествия выступает залогом быстрого и успешного раскрытия преступления.

Список использованной литературы:

Уголовно-процессуальный кодекс Республики Узбекистан, 2023 г. и др.



XITOIY MILLIY VA AN'ANAVIY LIBOSLARI

Ziyatova Barno Bahodirovna

Alfraganus unversity Filologiya fakulteti

Xorjiy Filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

Xorjiy Filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xitoyning milliy va an'anaviy liboslari, bosh kiyimlari, shuningdek zamonaviy va milliy kiyimlarnimni taqqosashrganmiz haqida yoritib berganmiz

Kalit so'zlar: banbi, banxiu, beizi, changao, daxiushan, diyi, lotus, feniks toji, ruqun, yuanlingshan, cheongsang.

Xitoyning milliy liboslari Hanfu, ya'ni Xon xonadoni kiyimidir. Qizil va qora matolardan tayyorlangan Hanfu kiyim-kechagi rasmiy va juda muhim voqealar uchun ishlatilgan, oq juda aziyatga uchragan va juda kamdan-kam qo'llanilgan, oltin va sariq ranglar imperatorlar, uning oilasi va atrofi bilan taqilgan. O'tgan asrning 30-yillari o'rtalaridan boshlab, Xitoy monarxiyasi mavjud bo'lmaganda, ayollar uchun milliy Xitoy liboslarining odatiy namunasi Tsipao bo'ldi. Ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarda, cipao ko'proq ko'ylak sifatida tarjima qilingan chonsam nomi bilan mashhur. Dastlabki kiyimlar etarlicha sodda edi. Ular ikkita tikuvli matolardan va yoqa stendidan iborat bo'lib, beshta tugma va old tomondan kesilgan edi. Xitoylik ayollarning milliy liboslari turli matolardan tayyorlangan - bu farovonlikka bog'liq edi. Paxta va kenevir matolari o'rta daromadli odamlar tomonidan ishlatilgan, mahalliy aristokratlar ipak matolardan foydalangan. Homilador ayollar uchun an'anaviy kiyinish shimlar bo'lib, fermuarlar yoki tugmalarsiz tikiladi, qorin bo'shlig'ida tikma tikiladi. Bunday kiyim homilador ayolning qorinidagi nopok qudratga kirmaslikka yordam bergan deb hisoblar edi. Xitoyda ayol bilan kichik bir oyoq - bu juda chiroyli deb hisoblashadi. Oyoq o'smasligi uchun, erta bolalikdan qizlar shod edi. Ushbu operatsiyani bajarish og'ir og'riq, oyoq kasalliklari va ayrim holatlarda nogironlik sabab bo'lgan.

Xitoy ayollari liboslari — Xitoy xalqi ayollarining an'anaviy, o'ziga xos va boshqa mintaqalardan ajratib turuvchi milliy liboslari sanaladi. Qadim zamonlardan beri Xitoyda ayollar turli xil kiyimlarga ega bo'lishgan. Bu kiyimlar turli sulolalarda turli xil bo'lgan. Misol uchun, 1920-yillarda Cheongsam sotsialitlar va yuqori sinf



ayollari orasida moda edi. 1960-yillarda juda qattiq kiyim uslublari keng tarqalgan bo'lib bugungi kunda turli xil modalar kiyiladi. Xitoyning turli viloyatlari va mintaqalari ham o'ziga xos turli xildagi kiyim uslublari ega. [Qin](#) va [Xan](#) sulolalarida ayollar odatda uzun, katta, yengi keng kiyim va liboslar kiyishgan. Uzun yubka ostida, odatda, kashtado'zlik uslubida tikilgan bir juft baland poshnali oyoq kiyimlari bor bo'lgan. Odatda, oliy nasabli ayollarning qo'lga o'ralgan Jinguo (kàn) nomli ro'mol bor bo'lib, o'rta darajali, oddiy yoki kambag'al ayollarning qo'llarida turli bezakli mo'nchoqlar bilan birga bezatilgan. Vaqt o'tishi bilan palto qisqaroq, yubka esa uzunroq bo'lib qoldi. Oliy nasabli ayollar etaklarini yerga sudralmasligi uchun etaklarni ko'tarishda xizmatkorlarning yordamiga ham muhtoj bo'lganlar. [Suy](#) va [Tang](#) sulolalarida ayollar kiyimlari ochiqroq bo'lish tendentsiyasiga ega bo'lganlar. Odatda ipdan tikilgan kichik yengli paltolar, hali ham uzun, keng va mayin sharflar bo'lib, yubkalari keng bo'lgan. ko'pincha kiyiladigan narsalar edi. Ular tanasining ko'krigidan yuqori qismini yalang'ochlashlari mumkin bo'lgan. Bunday mato ayollarning go'zalligini yaxshiroq ko'rsatishi uchun mo'ljallangan. O'sha paytda mashhur bo'lgan kiyimlarning yana bir turi katta yengli, kalta ko'krakli ko'ylaklar, uzun va engil yubkalar hisoblangan. Song sulolasi (960-1279) davridagi ayollar kiyimi erkaklar kiyimidan o'ngga emas, chapga nisbatan kiyilishi bilan ajralib turardi. Ayollar uzun ko'ylaklar yoki deyarli to'pig'iga tushadigan bluzkalar kiyishgan. Shuningdek, ular kalta yoki uzun yengli yubka va kurtka kiyishgan.

B a n b i (
 半 臂

[kán](#)), so'zi „yarim qo'l“ ma'nosini bildiradi), shuningdek, **Banxiu** ([kāngcǐ](#)) nomi bilan tanilgan, *rukun* ustiga kiyiladigan va yarim uzunlikdagi yenglari bo'lgan jilet yoki ustki kiyimning bir turi bo'lgan. Uning yoqasi uslubi har xil edi, lekin uni old tomondan bog'lash yoki metall tugma bilan mahkamlash mumkin bo'lgan. Xitoy yozuvlariga ko'ra, *banbi* kiyim uslubi xitoyliklar kiyadigan kalta etakli ko'ylagidan ixtiro qilingan. U dastlab saroy xizmatkorlari uchun jilet sifatida belgilandi, ammo tez orada oddiy odamlar orasida mashhur bo'lib ketgan. [Tang sulolasi davrida](#) yozilgan „Xuo Xiao Yu afsonasi“da ([kāngāoyu-崔小玉传](#)), bosh ayol qahramoni Huo Xiaoyu ko'pincha shu uslubda kiyimlar kiygan.



Beizi (kānì — 襜褕) — bu plashga oʻxshash erkaklar va ayollar uchun umumiy boʻlgan anʼanaviy xitoy kiyimidir. (Ming sulolasi davrida eng mashhur boʻlgan *beizi* Tang sulolasi davrida *banbi* nomi bilan ham tanilgan) Markaziy Osiyodan Tang sulolasi davrida Ipak yoʻli orqali madaniy almashinuvlar tez-tez boʻlib turgan paytda beizi liboslarini mahaliy zodagonlar marosim va tantanalarda kiyganliklari haqida maʼlumotlar bor. Baʼzi manbalarda, u Song sulolasi davrida ham *banbidan* olingan, deb qaraladi, bu erda beizining yenglari uzun va kiyimi choʻziq shaklida boʻlgan.

Chang-ao (xitoycha: 長襖) — ayollar uchun kiyinishning anʼanaviy xitoy uslubi hisoblangan. Bu rasmiy kiyinish shakli boʻlib, koʻpincha ruqunning uzunroq versiyasi sifatida qabul qilingan. Biroq, u aslida Ming sulolasi davrida zhiduodan ishlab chiqilgan va yubka ustidan kiyilgan. U keng yengli, zhiduodan qisqaroq va yon tirqishlarida yon panellari boʻlmagan (shunday qilib, uning ostidagi yubka koʻrsatilgan). Koʻpincha boʻyinbogʻga tikilgan himoya gʻilofi ayollar ixtiyoriga qarab olingan (jǎnín, 護領, lit. „himoya yoqasi“). Huling oq yoki boshqa har qanday (koʻpincha quyuc) ranglarda boʻlishi mumkin boʻlgan. Yoqa kiyim bilan bir xil rangda tikilgan.

Daxiushan „Katta yengli koʻylak“ deb tarjima qilingan *Daxiushan* (kāngāngāng — 大袖衫), ayollar uchun anʼanaviy xitoy kiyimi boʻlib, qirollik oilasi orasida Tang sulolasi davrida eng mashhur boʻlgan kiyimlardan biri boʻlgan. Tang sulolasining oltin davri tugagandan soʻng, Hufu (khufu)(胡服), yoki Markaziy va Gʻarbiy Osiyodaning kiyim uslublari asta-sekin zaiflasha boshladi va Tang qirollik ayollar kiyim uslublari ham asta-sekinlik bilan oʻzgartirishni boshlashdi. Qirollik ayollar kiyimlari va boshqa uslublari oʻrtasidagi tafovut oʻrta va kechki Tan davriga kelib (chàngàngàngíní-中晚唐时期) tobora yaqqol namoyon boʻladi. Kiyim kengligi toʻrt futdan oshdi va uning yenglari koʻpincha 1,3 metrdan kengroq boʻlgan. U tovondan to koʻkrak tepasiga qadar qoplaydigan, beliga oʻralgan tugun, engil va baʼzan koʻzga koʻrinadigan ustki palto, pastki qismida bir-biriga bogʻlab turiladigan va koʻpincha qoʻlga oʻralgan uzun sharf bilan birga ketadigan oʻziga xos libos boʻlgan. Kiyim koʻpincha ayollar koʻkraginging yarmini qoplagan va shuning uchun u malika yoki gējī kabi maʼlum bir maqomga ega boʻlgan ayollar uchun moʻljallangan. U Da-Xiu-Shan nomi bilan mashhur boʻlgan, ammo turli vaqtlarda Dian-Chai-Li-Yi (língíngíní-钿钗礼衣) deb ham nomlangan. Kiyimlar,



asosan, maxsus tantanali marosimlar uchun kiyilgan bo‘lib turli xil o‘zgarishlarga ega bo‘lgan. Ular asosan turli xil yoqa shakllanishlari (masalan, parallel yoki ko‘ndalang yoqalar yoki yoqasizlar) natijasi bo‘lishi mumkin.

Diyi (kíní — 翟衣) — Ming sulolasi davrida imperatorlar va toj malikalari (toj shahzodasining rafiqasi) tomonidan kiyiladigan an’anaviy xitoy libosi hisoblangan. Bu faqat tantanali maqsadlar uchun mo‘ljallangan rasmiy kiyim bo‘lgan. Bu shenyi shakli bo‘lib, uzun dumli qirg‘ovullar (ján, Di-翟) va dumaloq gullar (小輪花) bilan kashtalar qilingan. U feniks toji bilan taqilgan (yon tomondan marvaridlarning iplarisiz osilgan). Diyi Chjou sulolasi davridan beri imperatorlar va boshqa qirollik zodagon ayollari (turli sulolalar davrida farqlanadi) tomonidan Chjou va Song sulolalarida huiyi 禕衣) va Xan sulolasida miaofu (禕衣) kabi turli nomlar ostida kiyilgan.

Lotus poyafzallari 蓮履 / 莲履, lianlǚ)—Xitoyda ayollar yoqlari bog‘langan tomonidan kiyiladigan poyabzal bo‘lgan. Poyafzal konus yoki g‘ilof shaklida bo‘lib, lotus kurtaklariga o‘xshash bo‘lishi kerak bo‘lgan. Ular paxta yoki ipakdan nozik tarzda tikilgan va kaftga sig‘adigan darajada kichik bo‘lgan. Ba’zi dizaynlarda poshnali yoki xanjar shaklidagi tagliklari bor edi. Ular turli xil uslublar va ranglardan qilingan va odatda bezakli bezaklar bilan bezatilgan, poyabzal tagida davom etishi mumkin bo‘lgan hayvonlar yoki gullarning rasmi naqshlari bilan bezatilgan. Ba’zi dizaynlar faqat oyoq uchiga to‘g‘ri keladigan va uzun yubka ostida kiyganda kichkina bog‘langan oyoq ko‘rinishini bergan. Oyoq kiyimini bog‘lash endi qo‘llanilmasa ham, ko‘plab lotus poyabzallari muzeylar yoki shaxsiy kolleksiyalarda artefakt sifatida saqlanib qolgan.

Feniks toji (kao) — ayollar uchun Xitoyning an’anaviy bosh kiyimi hisoblangan. Uni Ming sulolasining xonimlari vazodagon ayollari marosimlarda yoki rasmiy tantanalarda kiyib yurishgan. Shuningdek bu, kelinlar uchun an’anaviy bosh kiyim bo‘lgan. U tilla rangli ajdarlar, qirollik baliqlarining tangaridan yasalgan fenikslar, munchoqli qirg‘ovullar, marvaridlar va qimmatbaho toshlar bilan o‘ziga xos uslubda bezatilgan. Ishlatilgan marvaridlar soni 3426 dan 5449 donagacha, ishlatilgan qimmatbaho toshlar soni esa 95 dan 128 donagacha bo‘lgan. Bu marvaridlar, qimmatbaho toshlar va qirollik baliqlarining tangalaridan bezakli gullar, barglar, bulutlar va bobinlar (tojning yon-orqa qismidagi „qanotlar“) yasalgan. Butun tojning vazni 2 dan 3 kilogrammgacha bo‘lgan.



Ruqun (襦裙) — bu asosan ayollar uchun an'anaviy xitoy kiyimi hisoblangan (*hanfu*). U [bluzkadan \(襦, ru\)](#) va o'ralgan *yubkadan (裙, qun)* iborat bo'lgan. U uzoq tarixga ega va [Urush paytidagi davlatlar davridan](#) beri ayollar tomonidan kiyilib kelingan. Umuman olganda, bluzka yubka ichiga tiqilgan. *Rukun ning* mashhurligi [Xan sulolasi](#) davrida pasayib ketgan, ammo Janubiy va Shimoliy sulolalar davrida yana ommalashgan. [Suy](#) va [Tang](#) sulolalari davrida yubkalar beldan yuqori va balandroq bog'lanib kelingan, vaqt o'tib, oxir-oqibatda ular ko'krakdan yuqoriga bog'langan va kalta bluzkalar bilan kiyilgan. Oddiy o'zaro bog'langan bluzkalar bilan bir qatorda, bu davrda parallel yoki to'g'ri yoqali (對襟) bluzkalar ham kiyilgan, shuning uchun ko'krakning kengligini ochib bergan. Song sulolasi davrida yubkalar oxir-oqibat ko'krak darajasidan normal bel chizig'iga tushirilgan. Ming sulolasi davrida *ruqun* ayollar uchun eng keng tarqalgan kiyim shakliga aylangan. Bluzkaning yenglari, asosan, tor yengli manjet (*pípa* yengi) bilan kavisli bo'lgan. Ko'pincha bo'yinbog'ga tikilgan ixtiyoriy olinadigan himoya g'ilofi (*jánín*, lit. „himoza yoqasi“) mavjud bo'lgan. *Huling* oq yoki boshqa har qanday quyuq rangda bo'lishi mumkin bo'lib, yoqa kiyim bilan bir xil rangda bo'lgan. [Qing sulolasining](#) boshlanish davrlarida yaqin yubka asosan *baizhequn* (百摺裙 lit. „yuz burmali yubka“) yoki *mamianqun* (馬面裙, lit. „ot yuzi yubka“) edi.

Yuanlingshan (圓領衫) — [Ming sulolasi](#) davrida erkak va ayol amaldorlar va zodagonlar uchun eng keng tarqalgan kiyim shakllaridan biri hisoblangan. Fuqarolar va amaldorlar yuanlingshanlari o'rtasidagi farq shundaki, amaldorlar va zodagonlar yuanlingshanida mandarin maydoni (補子) bo'lgan. Yuanlingshanning yenglari, asosan, tor yengli manjetli ((琵琶袖, *pípa* sleeve) bilan kavisli bo'lgan. Uning dumaloq yoqasi va yon tirqishlari ham bor bo'lgan. Amaldorlar va zodagonlarning yuanlingshanlari ham oddiy odamlar uchun to'y liboslari hisoblangan. Kuyov Wusha shlyapasini (烏紗帽 *y-ánzēng*) va 9-darajali rasmiy libosdagi yuanlingshan kiygan. Kelin feniks tojini va qizil yuanlingshan liboslarini kiygan.

Cheongsam — ayollar uchun tanani quchoqlagan shaklidagi ([Shanxayda](#) o'zg artirilgan) bir parcha xitoy libosi; erkak versiyasi esa changshan bo'lib, liboslar orasida o'ziga xos o'ringa ega. Mandarin xitoy tilida qí páo (旗袍) nomi bilan



tanilgan ; Wade-Giles ch'i-p'ao) va ingliz tilida mandarin libosi sifatida ham tanilgan. Zamonaviy va ko'pincha mahkam o'rnashgan cheongsam yoki qipao (chipao) 1920-yillarda [Shanxayda](#) yaratilgan va sotsialistlar hamda yuqori sinf ayollari tomonidan moda bo'lib hisoblangan.

Xitoyda 70-yillarning oxirida kommunistik kiyim standartlari yumshatilgandan so'ng, xitoyliklarning kiyinish uslubi va mamlakatning moda tendentsiyalarida keskin o'zgarishlar bo'lib o'tdi. Zamonaviy shahar kiyimlari brend nomlariga astalik bilan e'tibor qarata boshladi. Yirik shahar markazlarida, ayniqsa, [Shanxayda](#) tobora g'arbiy ko'rinishga ustunlik berilgan va ko'chalarda kattalar uchun kundalik kiyimlardan ko'ra rasmiy kiyinishga urg'u berildi. O'smirlar brend nomlari va g'arbiy kiyimlarni afzal ko'rib kiyinishadilar. Bolalar odatda multfilm qahramonlari bilan bezatilgan kiyimlarni kiyishadi. To'y va marosimlarda ayollar milliy liboslarni kiyishadi. Shu bilan birga, hanfu harakati tomonidan xanfu kabi an'anaviy kiyim shakllarini qayta tiklashga harakat ham mavjud bo'lgan. 2001-yilda Shanxayda bo'lib o'tgan Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamkorligi sammitida mezbon Xitoyning an'anaviy milliy libosi sifatida ipak bilan tikilgan tanchjuang kurtkalarini taqdim etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. „Qipao (Ch'i-p'ao)“. Encyclopædia Britannica. Retrieved 2008-11-18 [Gernet 1962](#).
2. Jump up to:3,0 3,1 Wang Qiao-ling (2008). „Women Fashion of Tang Dynasty and Foreign Cultural Communication“. 21-jild. *Journal of Zhejiang Wanli University*. 1– 3-bet
3. [Information on Civilian Clothings 不拘一格说便服](#)^[sayt ishlamaydi] oldbeijing.org Retrieved 2010-02-10
4. Yoon, Ji-Won. Research of the Foreign Dancing Costumes: From Han to Sui-Tang Dynasty, *The Korean Society of Costume*, v. 56, 57-72. 2006
5. Kim, Sohyun. A Study on the Costume of Khotan, *The Korean Society of Costume*, v. 34, 169-183. 1997.
6. 朱和平 (July 2001). (PDF) (xitoy) (1st-nashr). 中州古籍出版社. 223–224-bet <https://www.scribd.com/doc/7136914/>. Qaraldi: May 20, 2009. {{cite magazine}}: ; Missing or empty |title= (yordam)



УДК. 343.132:343.985:351.74

ORCID: 0009-0005-2988-8626

KIBERJINOYATCHILIKKA KARSHI KURASHISHNING AHAMIYATI

Yakubov Xushnudbek Sheribbayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi katta o'qituvchisi.

xushnud6982@gmail.com.

Qaraxonov Murodbek Shermat o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi kursanti

ANNOTATSIYA

Mazkur makolada bugungi kunda jamiyatimizda eng xavfli va rivojlangan jinoyatlardan biri bo'lgan rakamli texnologiyalar yordamida sodir etilayotgan kiberjinoyatlar, ularning sodir etilish usul va uslublari haqida va ularning ayrim jihatlari, kiberjinoyat tushunchasiga aksariyat olimlar bergan fikrlar, kiberjinoyatchilikning bugungi kundagi statistikasi haqidagi ma'lumotlar, unga qarshi kurashishning o'ziga xos jihatlari, qarshi kurashishdagi ayrim kamchiliklar va ushbu sohada mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: kiberjinoyat, telekommunikatsiyalar tarmog'i, axborot tizimi, axborot, elektron hisoblash mashinalari, kompyuter tizimi, global tarmoq jinoyatchiligi, kompyuter jinoyatchiligi, kiberterrorizm, kiberekstremizm, kiberxavfsizlik, kibernuxit, global tarmoq jinoyatchiligi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье киберпреступления, являющиеся одними из самых опасных и сложных преступлений в нашем обществе сегодня, совершаются с помощью цифровых технологий, о способах и способах их совершения и некоторых их аспектах приводятся мнения большинства ученых. К понятию киберпреступности отражены сведения о статистике киберпреступности на сегодняшний день, конкретных аспектах борьбы с ней, некоторых недостатках в борьбе с ней, а также реформах, проводимых в этой сфере в нашей стране.

Ключевые слова: киберпреступность, телекоммуникационная сеть, информационная система, информация, электронные вычислительные машины, компьютерная система, глобальная сетевая преступность,



компьютерная преступность, кибертерроризм, киберэкстремизм, кибербезопасность, киберсреда, глобальная сетевая преступность.

ANNOTATION

In this article, cybercrimes, which are one of the most dangerous and advanced crimes in our society today, are committed with the help of digital technologies, about the methods and methods of their commission and some of their aspects, the opinions given by most scientists to the concept of cybercrime, information about the statistics of cybercrime today, specific aspects of fighting against it, some shortcomings in fighting against it, and the reforms carried out in this field in our country are reflected.

Key words: cyber crime, telecommunications network, information system, information, electronic computing machines, computer system, global network crime, computer crime, cyber terrorism, cyber extremism, cyber security, cyber environment, global network crime.

Davrimizning fan va texnika sohasidagi yutuqlari kundalik ijtimoiy hayotimizga yanada qulay imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Biroq ana shu afzalliklar bilan bir qatorda, ayrim salbiy holatlar ham yuzaga kelmoqdaki, bundan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Shulardan biri kiberjinoatchilikdir.

Kiberjinoatchilar - bu kompyuter, kompyuter tarmog'i yoki tarmoq qurilmasidan suiiste'mol qilishga qaratilgan jinoiy faoliyat hisoblanadi. Ularning aksariyati kiberjinoatchilar yoki xakerlar tomonidan undan noqonuniy daromad orttirish maqsadida sodir etiladi. Bugun texnologiyalar tobora rivojlanib borgani sari jinoatchilar ham ulardan foydalanib, noqonuniy xatti-harakatlarni sodir etmoqdalar. Xususan, odamlarning plastik kartalaridan pulni o'marish sezilarli darajada oshdi. Tabiiyki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan bu jinoatchilar aniqlanib, tegishli jazo choralari ko'rilmoqda va jabrlanuvchilarga zarar undirib berilmoqda. 2020-yilning birinchi yarmida O'zbekistonda firibgarlik jinoyatlari soni bir yil oldingiga qaraganda ikki barobarga ko'payib, olti oyda 3 ming 881 tani tashkil etgani biz uchun xavotirlidir. Boz ustiga texnologiya rivoj topgani sari firibgarlikning yangidan yangi turlari paydo bo'lmoqda[1].

2022-yilda toshkentliklar kiberjinoatchilardan 45,2 mlrd so'm zarar ko'rdi. Toshkentda fuqarolarning bank kartalaridagi pullarini aldov yo'llari bilan o'zlashtirish holatlari keskin oshdi. 2022-yilda bunday kiberjinoatchilar oqibatida toshkentliklar kamida 45,2 mlrd so'm zarar ko'rgan. Bu pullarning bor-yo'g'i 9,2 mlrd so'mga yaqini undirib berilgan. 2022-yilda Toshkentda axborot texnologiyalari



yordamida 4332 ta yoki 2021-yilga (2281 ta) nisbatan qariyb 2 baravar, 2020-yil bilan (106 ta) taqqoslaganda esa 40 baravar ko‘p kiberjinoyat sodir etildi. Bu haqda Toshkent IIBB Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi vakillari ishtirokida o‘tkazilgan brifingda ma’lum qilindi. Bir yilda qayd etilgan jami jinoyatdan 3372 ta yoki 82 foizi bank plastik kartalardan pul mablag‘larni talon-toroj qilish bilan bog‘liq. Anvar To‘xtayevning so‘zlariga ko‘ra, bunday jinoyatlar birgina O‘zbekistonda emas, balki dunyoning barcha davlatlarida ham ko‘p uchraydi. U MDH davlatlarini yoki boshqa rivojlangan davlatlarning poytaxtlarida ham aynan axborot texnologiyalari yordamida sodir etilayotgan jinoyatlar soni yil sayin ortmoqda. Misol uchun 2022-yil davomida:

Moskvada (Rossiya, 12,6 mln aholi yashaydi) axborot texnologiyalari sohasida 105 360 ta kiberjinoyat qayd etilgan (2021-yilda — 103 600 ta, 2020-yilda — 102 060 ta kiberjinoyat);

Ostonada (Qozog‘iston, 1,3 mln aholi) bunday jinoyatlar 4822 ta aniqlangan (2021-yilda — 4224 ta, 2020-yilda — 5807 ta);

Minskda esa (Belarus, 2 mln ga yaqin aholi) 4773 ta kiberjinoyat sodir bo‘lgani haqida aniq ma’lumotlar bor. (2021-yilda — 4761 ta, 2020-yilda-4 773 ta);

Seulda (Janubiy Koreya, 10,5 mln aholi) 2022-yil 60450 ta kiberjinoyat aniqlangan (2021-yilda — 56210 ta, 2020-yilda — 60450 ta).

Ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish uchun IIBB tarkibida Axborot texnologiyalari sohasida jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi ochildi. Boshqarma bank plastik kartalardan pul mablag‘lar talon-toroj qilinishining oldini olishga qaratilgan videorliklar tayyorlab, ularni OAV orqali yoritgan. Uni jami 2,5 mlndan ortiq kuzatuvchilar tomosha qilgan. Internetdan foydalanmaydigan aholi uchun esa hududiy profilaktika inspektorlari 25 mingdan ortiq xonadonlar bilan suhbatlashgan. Bundan tashqari, aholiga flayerlar tarqatilib, aholi gavjum joylarda fuqarolarga bukletlar berilgan[2].

Yuqoridagi holatga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jinoiy yo‘llar bilan topilgan pul mablag‘lari elektron va kriptohamyonlarda legallashtirilmogda. Bundan tashqari, aholining axborot texnologiyalari sohasidagi bo‘lgan savodxonligi yetarli darajada emas.

Shu o‘rinda kiberterrorizm va uning jamiyat hayotiga solayotgan xavfning ko‘lami ham oshib borayotganini ta’kidlash joiz. Kiberterroristik harakat (kiberhujum) - kompyuterlar va axborot kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshirilgan, odamlarning hayoti va sog‘lig‘iga bevosita xavf tug‘diradigan yoki potensial xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan, moddiy ob‘yektlarga katta zarar



yetkazishi yoki shunga olib kelishi mumkin bo'lgan, ijtimoiy xavfli oqibatlarining boshlanishi yoki maqsadi bo'lgan siyosiy sababdir. Zamonaviy terrorchilar uchun kibermakondan foydalanishning jozibadorligi kibershujumni amalga oshirish katta moliyaviy xarajatlarni talab qilmasligi bilan bog'liq.

Ekspertlarning xulosasiga ko'ra, bu rivojlanayotgan davlatlarning taraqqiyotiga ko'maklashish, umuminsoniy demokratik tamoyillarni qaror toptirish niqobi ostida fuqarolar ongiga ta'sir o'tkazish, ularni turli yo'llar bilan o'z maqsadlari sari bo'ysundirish orqali amalga oshirilmoqda. Afsuski, bu jarayonda kibershujumlarni uyushtirish, bu yo'lda internet global tarmog'ining mislsiz imkoniyatlaridan "samarali" foydalanishga urinishlar tobora avj olmoqda. Internetda mavjud ijtimoiy tarmoqlar, ularning ishlab chiqaruvchilari va homiylarining suveren davlat ichki ishlariga "aralashishlari" qanday ahamiyat o'ynashi oxirigacha o'rganilmaganligi bois ba'zan bunday "aralashuv" mazkur davlatga qarshi ekanligi hali hanuz e'tirof etilgani yo'q.

Ijtimoiy tarmoqlar egalari ushbu tarmoqlar sahifalarida davlat tuzumini ag'darishga da'vat qilingani uchun javobgarlikka tortilishining xalqaro miqyosidagi huquqiy asoslari yaratilmagan. Vaholanki, har bir qilingan jinoiy xatti-harakat yoki harakatsizlik mazmun-mohiyatiga ko'ra, albatta, javobsiz va jazosiz qolmasligi kerak. Internet saytlari to'satdan paydo bo'lib, ko'pincha formatini, so'ngra manzilini o'zgartiradi. Shu bois ayrim ekspertlar internetning butkul ochiqligi kabi dastlabki konsepsiyalardan voz kechib, uning yangi tizimiga o'tishni taklif etmoqda. Yangi modelning asosiy mohiyati tarmoqdan foydalanuvchilarning anonimligidan voz kechishdir. Bu tarmoqning jinoiy tajovuzlardan yanada ko'proq himoyalangan bo'lishini ta'minlashga imkon berdi. Shuningdek, kibershujumatlar va kibershujumbuzarliklarni tergov qilish va ularni aniqlash, bartaraf etish hamda oldini olish bo'yicha zarur qarorlar qabul qilish, kibershujumatlikka qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish, kibershujumatizm, kibershujumatizm, uyushgan jinoiyatchilikka qarshi kurashish, davlat organlari manfaatlariga hamda kibershujumxavfsizligiga tahdid soluvchi kibershujumatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish, kibershujumatlar bo'yicha tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergovni o'tkazish, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklariga tahdid soluvchi kibershujumatlarning sodir etilishiga imkon yaratuvchi sabablar hamda shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish kabi muhim vazifalarni bajarishlari lozim[3].

Kibershujumatlar turli davrlarda turlicha rivoj topgan kabi uning doktrinal va rasmiy ta'riflari turlichadir. Xususan, **Yevropa Kengashining 2001-yildagi**



“Kiberjinoyat haqida”gi Konvensiyasiga asosan “kiberjinoyat kibermuxitda sodir etiladigan har qanday jinoyatdir[4]. Bu eng to’g’ri fikr, sababi istalgan bir texnologiya rivojlanishi mumkin, biroq ular tomonidan sodir etiladigan qilmishlarning barchasi kibermuxitda sodir etiladi va kibermuxitga barcha texnologiyalar ishtiroki bo’lgan ijtimoiy xavfli qilmishlar bajariladigan jarayonlarni qamrab oluvchi muhit kiradi.

Olim “M.Gurcke”ning fikricha, kompyuter tizimi, tarmog’i, ularga ulanadigan boshqa vositalar orqali yoki ularning yordamida kompyuter tizimi, tarmog’i yoki kompyuter axborotiga qarshi kibermuxitda sodir etiladigan jinoyatlar majmui kiberjinoyatdir[5].

Biroq, “Telekommunikatsiyalar to’g’risida”, “Axborotlashtirish to’g’risida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to’g’risida”gi Qonunlarga asosan, telekommunikatsiyalar tarmog’i, axborot tizimi, axborot tushunchalarining mazmun-mohiyatiga asosan, telekommunikatsiya tarmog’i kompyuter tarmog’i hisoblanmaydi va faqatgina komp’yuter axboroti kiberjinoyatlarning tarkibini tashkil qilmaydi, sababi kiberjinoyatlar kibermuxitda sodir etiladigan har qanday texnologiyalar yordamida sodir etilishi mumkin. [6,7,8].

Olimlar K.E.Zinchenko, L.YU.Ismailova, A.N.Karaxan’yan, B.V.Kiselev, V.V.Krilov, Ya.M.Mastinskiy. N.S.Polevoy, Yu.N.Solov’yev, V.V.Xurgin, S.I.Tsvetkov olimlarning fikricha, bu kabi jinoyatlar elektron hisoblash mashinalari orqali sodir etilgan jinoyatdir [9].

Mazkur tushuncha 1994-yilda berilayotganligi orqali ta’kidlashimiz joizki, O’zbekiston tarixi nuqtai nazaridan O’zbekiston Respublikasining “Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma’lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to’g’risida” 1994-yil 6-maydagi 1060–XII-son Qonuni [10] aynan 1994-yilda qabul qilinganligi sababli ham mazkur tushuncha vaqt nuqtai nazaridan to’g’ri talqin qilingan. Olimlar N.Salayev va R.Ro’ziyev axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi, bevosita kompyuter vositalari orqali yoki axborot texnologiyalari vositasida sodir etiladigan qonunga xilof ijtimoiy xavfli qilmishni axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlardir deb atab, unga kompyuter jinoyatchiligi sinonim ekanligini ta’kidlashadi. Shuningdek, kompyuter tizimi, tarmog’i, shuningdek, ularga ulanadigan boshqa vositalar orqali yoki ularning yordamida hamda kompyuter tizimi, tarmog’i yoki kompyuter axborotiga qarshi kibermuxitda sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni kiberjinoyat deb bayon qilishib, yuqoridagi jinoyatlarni kiberjinoyatdan farqli jinoyat deb ta’rif berishadi[11].



Ma'lumki, kibermuxit komp'yuter jinoyatchiligida ham bo'ladi, hatto Yevropa Kengashining 2001-yildagi "Kiberjinoyat haqida"gi Konvensiyasining rus tilidagi matniga nazar tashlasak ba'zi holatlarda uning kompyuter jinoyatchiligi to'g'risidagi Konvensiya degan tarjimasiga ham guvoh bo'lamiz[12].

Mazkur holatni yanada aniqroq tushunish uchun bitta holatni ko'rib o'taylik, JKning 169-moddasining 3-qismi "b"-bandida nazarda tutilgan komp'yuter texnikasi orqali sodir etiladigan o'g'rilik jinoyatini amalga oshirish uchun kibermuhit, ya'ni virtual muhit bo'lishi kerak, ya'ni o'g'rilik sodir qilishdan oldin jinoyatchi jabrlanuvchining pul mablag'lari saqlanayotgan kartasining paroliga ega bo'ladi hamda telekommunikatsiya yoki Internet tarmog'i yohud boshqa tarmoqdan foydalanib o'zining qilmishini sodir etadi. Aynan mana shu jarayondagi muhitni biz ko'z bilan ko'rolmaymiz, qo'l bilan ushlolmaymiz, ammo jabrlanuvchining kartasidagi kodni terib, qanday qilib jinoyatchi ushbu mablag'larga ega bo'lishini anglay olamiz. Bu muhit esa, kibermuxit deyiladi.

Shuningdek, bunda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonunning maqsadi axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'lgan holda, unda kompyuter texnikasining tushunchasi ko'rsatib o'tilmagan va u texnik imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'zida boshqa axborot texnologiyalarini qamrab ololmasligini, biroq axborot texnologiyasi barcha kompyuter texnologiyalarini, tizimini, tarmog'ini ham qamrab olishini inobatga olish zarur. JKning 4, 10, 14, 16-moddasiga asosan, jinoyat va jazo qonuniylik prinsipiga amal qilishi lozimligini ko'rsatadi. Yuqoridagilarga asosan, mazkur olimlarning fikri ham texnik, ham doktrinal, ham huquqiy jihatdan fikrimizcha rivojlantirilishi maqsadga muvofiq. Global tarmoq jinoyatchiligi tushunchasi unga qadar mavjud bo'lgan "kompyuter jinoyatchiligi" tushunchasi bilan to'la mos kelmaydi va shunga ko'ra mazkur jinoyatchilik turi bugungi kunda "kiberjinoyatchilik" tushunchasi bilan atalib kelinmoqda.

Xalqaro ilmiy va huquqiy amaliyotda dastlab "kompyuter jinoyatchiligi" tushunchasi, keyinchalik "kompyuter bilan bog'liq jinoyat", "kompyuter orqali jinoyat sodir etish", "elektron jinoyatchilik" va "yuqori texnologiyalar jinoyatchiligi", "virtual jinoyatchilik" tushunchalari ishlatilib, bugunga kunga kelib esa "kiberjinoyatchilik" yoki global tarmoq jinoyatchiligi atamasi qo'llanilmoqda. Internet global tarmog'i orqali sodir etilgan jinoyatchilik chegarasini aniq belgilash va unga qarshi kurashda xos yondashuv zarur ekanligini tushuntirish bo'lgan deb olim I.Toraxodjayeva kiberjinoyatchilikning kompyuter jinoyatchiligidan kengroq tushuncha hisoblanishini ta'kidlab o'tadi[13].



Kiberjinoyatlar tushunchasining vaqtga nisbatan o'zaro bog'liqligini yana 1979 yilda Dallas advokatlar assotsiatsiyasining konferensiyasi tomonidan dastlab kompyuter jinoyatlarining asosiy belgilari o'sha paytdagi mavjud axborotkommunikatsiya texnologiyalarining texnik imkoniyatlari yuzasidan belgilanganligi orqali ta'kidlashimiz mumkin[14].

Olim L.Kochkina kiberjinoyatchilikni "komp'yuter ma'lumotlari sohasidagi jinoyatlar", "axborot jinoyatlari", "komp'yuter uskunalari bilan bog'liq jinoyatlar", "yuqori texnologiyalar kompyuterlaridagi jinoyatlar", "axborot sohasidagi jinoyatlar" deb[15], T.Borodkina ushbu jinoyatlarni axborot sohasidagi jinoyat deb atagandi[16].

Olim I.M.Rassolov esa, ushbu toifadagi jinoyatlarni jinoyat qonunchiligida alohida jinoyat sifatida ko'rishni taklif qiladi.[17].

Sh.Tolmasovning fikricha kiberjinoyat insonlar tomonidan jinoyat maqsadida axborot texnologiyalaridan noqonuniy foydalanishdir[18].

V.A.Dulenko, R.R.Mamlev, V.A.Pestrikovning fikricha, "kiberjinoyat" bu kompyuter tarmog'idan foydalanib sodir etilgan har qanday jinoyat, ya'ni elektron muhitda sodir etilgan har qanday jinoyatdir[19].

I.G.Chekunov ushbu jinoyatni kompyuter va mobil (uyali) aloqa vositalariga qilingan jinoyatdir deb atagan[20].

Olim V.A.Nomokonovning fikriga ko'ra, kiberjinoyatlar kompyuter jinoyatlariga qaraganda ancha kengdir va axborot makonida ular jinoyat fenomenini aniq aks ettiriladi[21]. Bunga o'xshash fikrlarni I.V.Ramanov ham ta'kidlab o'tadi[22].

Ushbu holatni O.A.Kuznetsova tushuntirishga harakat qilib, kiberjinoyatchilik kompyuterdan tashqari, boshqa axborot texnologiyalari va internet tarmoqlari orqali ham sodir etilganligi uchun ham keng tushunchaligini ta'kidlab, kompyuter jinoyatchiligini faqatgina elektron qurilmalar va ularda saqlanayotgan ma'lumotlarga qarshi qaratilgan bo'ladi deb tushuntirish bergan[23].

Shu kabi fikrlar "urist.one" veb saytida ham qayd etilgan bo'lib, unga asosan kiberjinoyat - elektron sohada komp'yuter tizimlari yoki tarmoqlari yordamida yohud ularga qarshi qaratilgan har qanday jinoyatdir[24].

Komp'yuterlar tomonidan modellashtirilgan, insonlar, ob'yektlar, hodisalar, holatlar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, matematik, ramziy yoki boshqa har qanday ma'noda ifodalangan, mahalliy va global kompyuter tarmoqlarida harakat qiladigan yoki har qanday jismoniy yohud virtual qurilma xotirasida saqlanadigan ma'lumotlar, shuningdek, ularni saqlash, qayta ishlash va



uzatish uchun maxsus ishlab chiqilgan dasturlar orqali sodir etiladigan har qanday jinoyatni olim A.V.Fedorov kiberjinoyat deb ataydi[25].

Umumlashtirib shuni aytishimiz mumkinki **kiberjinoyat** deb axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi, bevosita kompyuter vositalari orqali yoxud elektron texnologiyalar yordamida internet tarmog'i orqali sodir etiladigan qonunga xilof ijtimoiy xavfli qilmishga aytiladi.

Kiberjinoyatlar qanday uslublarda sodir bo'lmoqda?

1. Bunday jinoyatni sodir etuvchi jinoyatchilar asosan aholining ishonuvchanligidan foydalanib, fuqarolarni turli yo'llar bilan aldaydi va telefonlarga kelgan hech kimga berilmaslik haqida ogohlantirish SMS xabari bilan birga keladigan "maxsus kod" raqamlarini egallab oladi.

2. Masalan, telefonda rusiyzabon shaxs o'zini bank yoki mobil to'lov tizimi xodimi deb tanishtirishi mumkin. U fuqaroning bank plastik kartasiga xakkerlar tomonidan kiberhujum uyushtirayotgani va shunga o'xshash boshqa yolg'on ma'lumotlarni aytib ishontiradi. Keyin uning kartasi haqidagi ma'lumotlarni olib, pullarni o'zlashtiradi.

3. Bank yoki mobil to'lov tizimlarining soxtalashtirilgan saytlari orqali "Foizsiz onlayn kredit" va shunga o'xshash odamlarga qiziq (feyk) xabarlar Telegram, Instagram va Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlardan turli havolalar kela boshlaydi.

4. Jinoyatchilar OLX platformasida uyali telefon apparati, dam olish maskanlari yoki boshqa buyumlarni arzon narxlarda savdoga qo'yish orqali fuqarolarning qiziqishini o'yg'otishi mumkin.

5. Internet do'konlarining soxtalashtirilgan ilovalarida fuqarolarni aldov yo'li bilan ro'yxatdan o'tkazish ham hozirgi jinoyat usullaridan biri hisoblanadi.

6. Davlat tomonidan moddiy yordam puli berilayotgani haqida ijtimoiy tarmoqlarda xabar kela boshlaydi. Hozirda prezidentning soxtalashtirilgan saytlari orqali fuqarolarni "chuv tushirish" ommalashmoqda.

7. Ijtimoiy tarmoqlarda o'zini treyderlik bilan shug'ullanuvchi shaxs deb tanishtirib, pul mablag'larini ikki va undan ortiq barovar ko'paytirib berish haqidagi aldovlari bilan fuqarolarning ishonchiga kirish orqali ularning pullari o'zlashtirilmoqda.

8. Jinoyatchilar Telegram orqali viloyatlararo kirakashlik bilan shug'ullanuvchi xaydovchilarning ishochiga kirib, ularni aldashi mumkin. Misol uchun: viloyatlararo qatnovchi taksichilarning Telegram guruhiga noma'lum shaxs uning plastik karta hisobiga pul yuborishi to'g'risida aytib, manzilga yetib kelganda uni naqd ko'rinishda berishga ishontiradi.



9. PUBG, WORLD OF TANK internet o'yinlarida kuchaytirilgan akkauntni savdoga qo'yish bilan yoshlarning ishonchiga kirayotganlar ham mavjud.

10. Ijtimoiy tarmoqlarda "arzon tilla buyumlar sotilishi to'g'risida"gi yolg'on e'lonlarni qo'yish orqali fuqarolarning ishonchiga kirib, ularning mablag'larini o'zlashtirayotganlarni ham misol keltirish mumkin.

Xulosa o'rnida bugungi kunda kibermakondagi tahdidlardan samarali himoyalani uchun xar bir davlat kuchli himoyalangan axborotlari tizimlarini yaratishi, raqamli texnologiyalar sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, e'lonlardagi har qanday aksiyalar, pul yutuqlari hamda boshqa takliflarni tashkilotlarning rasmiy veb-sahifasidan qayta tekshirish, saytning rasmiyligiga ishonch hosil qilmasdan ularga o'z shaxsiy ma'lumotlarni kiritmaslik, ijtimoiy tarmoq hamda messengerlarda tarqatilayotgan, aksiya va yutuqli lotereya o'yinlari to'g'risidagi reklamalar keltirilgan havolalarni tekshirmasdan oldin ochmaslik, rasmiy bo'lmagan havolalarni boshqalarga tarqatmaslik, Telegram orqali jo'natilayotgan yolg'on xabarlardan kelib chiqib, akkauntga buzib kirmasliklari hamda ishonchliroq himoyalani uchun ikki bosqichli autentifikatsiyani faollashtirish lozim.

Kirberjinoyslarga qarshi kurashish uchun bizning O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida kibberjinoyslarga qarshi kurashish faoliyati kafedrasini tashkil etish, hamda bu sohada malakali kadrlarni tayyorlash lozim deb hisoblaymiz. Shu bilan birgalikda axolining xuquqiy ong va xuquqiy madaniyatini yuksaltirish ham dolzarb masala xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://strategy.uz/index.php?news=1150>
2. <https://iiv.uz/uz/news/kibberjinoysatchilikka-qarshi-kibberxavfsizlik>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2023/02/21/cyber/>
4. YeC ot 23.11.2001 goda «Konvenetsiyu o komp'yuternyx prestupleniyax». Budapesh, Serii evropeyskix dogovorov - № 185. <https://rm.coe.int/1680081580>.
5. M.Gurcke. Understanding Cybercrime: A Guide for Developing Countries. ITU. 2009.
6. O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan "Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi 822-I-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, № 9, 219- modda; 2004-yil, № 9, 171-modda.
7. O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda qabul qilingan "Axborotlashtirish to'g'risida"gi 560- II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2004-yil, № 1-2, 10- modda.



8. O'zbekiston Respublikasining 2002 yil 12 dekabrda qabul qilingan "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi 439-II-sonli Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003 yil, № 1, 2-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2015 yil, № 12, 452-modda.
9. К.Е.Зинченко, Л.Ю.Исмаилова, А.Н.Караханьян, Б.В.Киселев, В.В.Крылов, Я.М.Мастинский. Н.С.Полевой, Ю.Н.Соловьев, В.В.Хургин, С.И.Цветков. Компьютерные технологии в юридической деятельности. Учебное и практическое пособие. –М.: издательство "БЕК". 1994 г., –с. 304,
10. O'zbekiston Respublikasining "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida" 1994-yil 6-maydagi 1060–XII-son Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 5-son, 136-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2002-y., 4-5-son, 74-modda, 9-son, 165-modda; O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 52-son, 555-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-son; 07.01.2020-y., 03/20/600/0023-son
11. N.S.Salayev, R.N.Ro'ziyev. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishga oid milliy va xalqaro standartlar. Monografiya., – T.: TDYUU, 2018, 139-b.
12. <https://www.coe.int/ru/web/conventions/full-list/-/conventions/treaty/185>.
13. I.Toraxodjayeva. O'zbekistonda internet tarmog'i orqali sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari // – T.: Yuridik fanlar axborotnomasi / Vestnik yuridicheskix nauk / Review of law sciences. ilmiy-amaliy jurnali. 2019 (03)-son. 128-132 b.
14. В.А.Широков, Е.В.Беспалова. Киберпреступность: история уголовно-правового противодействия. – М.: "Информационное право", 2006, № 4. [http HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html":// HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html"center HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html"- HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html"bereg HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html". HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html"ru HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html"/ HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html"h HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html"1846. HYPERLINK "http://center-bereg.ru/h1846.html/html](http://center-bereg.ru/h1846.html).
15. L.Kochkina. Definition of the concept "cybercrime". Selected types of cybercrime // Сибирские уголовно - процессуальные и криминалистические чтения. 2017. №3 (17). –с 2



16. Т.Н.Бородкина, А.В.Павлюк. Киберпреступления: понятие, содержание и меры противодействия. Социально-политические науки. № 1. 2018. –135-137 с.
17. И.М.Рассолов. Право и Интернет. Теоретические проблемы. –М.: Изд-во НОРМА, 2003. –251-253 с.
18. Sh.Tolmasov. Global makondagi kiberjinoatchilik. Manba: <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-29121-1.html>.
19. В.А.Дуленко. Использование высоких технологий криминальной средой. Борьба с преступлениями в сфере компьютерной информации: учебное пособие. Уфа, 2007. – с. 27.
20. И.Г.Чекунов. Киберпреступность: понятие и классификация // Российский следователь. 2012. № 2. – 37-44 с.
21. В.А.Номоконов/ Киберпреступность, как новая криминальная угроза / В.А. Номоконов, Т.Л. Тропина // Криминология. Вчера. Сегодня. Завтра. 2012. №1 (24). – с. 47.
22. И.В.Романов. Понятие киберпреступлений и его значение для расследования // Сибирские уголовнопроцессуальные и криминалистические чтения. 2016. №5 (13). –106 с.
23. Третий пермский конгресс ученых-юристов : материалы междунар. науч.-практ. конф. Пермь, 12 окт. 2012 г. / отв. ред. О.А. Кузнецова. – Пермь : Перм. гос. нац. иссл. ун-т, 2012. – 289 с.
24. Urist.oneвебсайтидан:Киберпреступление.<https://urist.one/dolzhnostnyeprestupleniya/kiberprestupnost/.html>.
25. А.В.Федоров. Информационная безопасность в мировом политическом процессе. – М.: МГИМОУниверситет, 2006. – 11 с



УДК. 343.132:343.985:351.74

RCID: 0009-0005-2988-8626

TERRORISTIK VA EKSTREMISTIK TASHKILOTLAR HAMDA OQIMLARNING AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANGAN HOLDA OLIB BORAYOTGAN TARG‘IBOT FAOLIYATINING SALBIY OQIBATLARI

Yakubov Xushnudbek Sheribbayevich

O‘zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi katta o‘qituvchisi.

xushnud6982@gmail.com.

Zayniddinov Botirjon Zafar o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasi kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Internet tarmog‘idagi ekstremizmning jamiyat uchun xavfli jihatlari hamda o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratilgan. Taqiqlangan diniy mazmundagi nashidalar, ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g‘oyalari bilan yo‘g‘rilgan, jamitni radikallashuviga olib keladigan va terroristik tashkilot hamda ekstremistik oqimlar safini kengaytirishga xizmat qiladigan materiallarni tarqatilishi bilan bog‘liq huquqbuzarliklar sodir etilishiga olib kelayotgan sabab-sharoitlar tahlil qilingan hamda ushbu turdagi huquqbuzarliklarni oldini-olish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tayanch so‘zlar: diniy nashida, vatanparvarlik, qadriyat, mafkuraviy immunitet, jahon internet tarmog‘i, ijtimoiy tarmoq, yoshlar, axborot, xavfsizlik, destruktiv g‘oya, mafkura.

НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ПРОПАГАНДИСТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ТЕРРОРИСТИЧЕСКИХ И ЭКСТРЕМИСТСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ТЕЧЕНИЙ.

Аннотация: В этой статье основное внимание уделяется общественно опасным аспектам интернет-экстремизма, а также его особенностям. Анализ причин и условий, приводящих к совершению правонарушений, связанных с



распространением материалов запрещенного религиозного содержания, содержащих идеи экстремизма, сепаратизма и фанатизма, способствующих радикализации джамаата и служащих расширению рядов террористических организаций и экстремистских течений, а также повышение эффективности мер, принимаемых в целях предупреждения данного вида правонарушений предложения и даны рекомендации.

Ключевые слова: религиозный Нашид, патриотизм, ценность, идеологический иммунитет, всемирная паутина, социальная сеть, молодежь, информация, безопасность, деструктивная идея, идеология.

NEGATIVE CONSEQUENCES OF PROPAGANDA ACTIVITIES CARRIED OUT BY TERRORIST AND EXTREMIST ORGANIZATIONS AND CURRENTS USING INFORMATION TECHNOLOGY.

Annotation: this article focuses on the dangerous aspects of extremism in the internet network for society as well as its specific characteristics. The banned religious content has been analyzed for reasons and recommendations to improve the effectiveness of measures taken in order to prevent these types of violations, such as Nashida, extremism, separatism and fanaticism, which lead to the radicalization of Jamit and the distribution of materials that serve to expand the ranks of terrorist organization and extremist currents.

Base words: religious nashida, patriotism, value, ideological immunity, World Wide Web, Social Network, Youth, Information, Security, destructive idea, ideology.

Bugungi kunda jahon miqyosida globallashuv va axborot almashish jarayoni shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Kun sayin axborot texnologiyalari, uyali aloqa va ijtimoiy tarmoqlar keng tarqalib shiddat bilan hayotning barcha tomonlarini qamrab bormoqda. Bu xurujlarga bardosh bera olish uchun fuqarolarda mafkuraviy иммунитет va internetdan to‘g‘ri foydalana olish madaniyatini shakllantirish asosiy muammo va dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda axborot almashinuvining ko‘pligidan, daqiqa sayin virtual olamning har xil yangi materiallar bilan boyitib borilishi sababli fuqarolar to‘g‘ri va noto‘g‘ri axborotni ajrata ololmaslik holatlari ko‘plab uchramoqda. “Smart insights” nashrining 2023-yil hisobotiga ko‘ra dunyo aholisining 4,80 milliard (60%) internetdan foydalanadi. Ularning 4,2 milliard turli xil ijtimoiy tarmoqlarda akkountlarga ega, 5,22 milliard



66,6% aholi o'zining shaxsiy uyali aloqa vositasiga ega. 2023-yilda mintaqalar bo'yicha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish tahlili ijtimoiy tarmoqlarning kirib borishidagi keng farqlarni ko'rsatadi:

Sharqiy Osiyoda 72%;

Shimoliy Amerikada 74%;

Janubiy Amerikada 72%;

Shimoliy va G'arbiy Evropada 84%.

Bu ko'rsatkich Janubiy Osiyoda 41 foizga, G'arbiy Afrikada 13 foizga, Markaziy Afrikada 7 foizga tushadi [1].

Internetdan foydalanishning bir qator ijobiy jihatlari mavjud xususan,

- axborotni almashish tez va oson;
- izlangan axborotni topish, yuklab olish, ishlov berish tarqatish qulay va oson;
- biznes, pul aylanmasi, bank operatsiyalarini o'tkazish oson;
- davlat xizmatlaridan foydalanish qulay uzluksiz navbat va ortiqcha hujjatlardan xoli;

• tadbirkorlik faoliyati, masofadan turib ishlash, o'qish, imtihonlarni topshirish qulay va arzon

Shu bilan bir qatorda uning salbiy taraflari ham talaygina xususan,

- kirishning osonligi;
- mazmunidan qat'iy nazar har qanday materialni joylashtirish imkoni mavjud;
- bloklash jarayoni murakkab(bittasi bloklansa darrov boshqasi paydo bo'ladi);

▪ foydalanuvchilar soni ko'p;

▪ aloqaning anonimligi;

▪ tashqaridan boshqarish va tahrirlash cheklanganligi ;

▪ noto'g'ri axborot qisqa vaqt ichida keng tarqalib ketishi;

▪ turli xil ruhiy, asab va jismoniy kasalliklar va charchoqning kelib chiqishi;

▪ real dunyodan ajralib virtual olamga mukkasidan ketish.

Har qanday sohaning o'z nazorati va amalga oshirish tartibi bo'lgani kabi axborot texnologiyalaridan foydalanishning ham davlat tomonidan belgilangan me'yorlari mavjud. Xususan, xalqaro miqyosda "Kiberjinoyatlar to'g'risida" konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida"gi Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" Birlashgan Millatlar Tashkilotining konvensiyasi, "Yoshlarni himoya qilish to'g'risida"gi Germaniya qonuni, "Bolaning sog'lig'i va rivojlanishiga ziyon yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida"gi konvensiyalar mavjud.



Milliy qonunchiligimizda esa, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida - Madaniyat organlarining yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi vakolatlarida, madaniyat organlari milliy o‘zlikni anglashda mustaqillik, yuksak ma‘naviyat, insonparvarlik an‘analariga sadoqat g‘oyalarini yanada chuqur singdirish, radikalizm va ekstremizmning yot g‘oyalariga qarshi immunitetni mustahkamlash borasida yoshlar o‘rtasida ma‘rifiy ishlarni amalga oshirishi ko‘rsatilgan (12¹-modda) [2].

Keyingi normativ huquqiy hujjat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni hisoblanadi [3].

Jumladan, ushbu Farmon bilan tasdiqlangan 2021-2026 yillarga mo‘ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasida yoshlar va ayollar o‘rtasida radikal g‘oyalarni tarqalishini oldini olish borasida bir qancha vazifalar belgilab berilgan.

Barcha sohalar kabi o‘zlarining buzg‘unchi g‘oyalarini turli xil ijtimoiy va butun jahon internet tarmoqlari orqali ham amalga oshirish hollari kunsayin ko‘payib, ularning yangi turlari paydo bo‘lib bormoqda. Internetning salbiy sabablari tufayli biz fuqarolarni undan ajratib olishimiz emas balki haq va nohaqni, to‘g‘ri va noto‘g‘ri g‘oyani ajrata biladigan darajada bilimlarini shakllantirishimiz lozim. Bugungi kunda xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlar o‘zlarining g‘oyaviy targ‘ibotlari, yangi a‘zolarini jalb qilishni asosan butunjahon internet taqmoqlari orqali amalga oshirmoqdalar.

O‘zbekiston respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan (O‘zbekiston respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori) diniy mazmundagi materiallar va ularni tayyorlash tushunchasi quyidagicha ta‘riflanadi:

Diniy mazmundagi materiallar— diniy ta‘limotning aqidaviy asoslarini, tarixini, diniy ta‘limot mafkurasini va sharhlarni, turli diniy ta‘limotlarning marosimlar o‘tkazish amaliyotini, shuningdek, alohida shaxslarning, tarixiy faktlar va hodisalarning diniy nuqtai nazardan bahosini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar, boshqa bosma nashrlar, belgilar, predmetlar, ramzlar, audiovizual asarlar (tele, kino va videofilmlar, kliplar, konsert dasturlarining yozuvlari, multfilmlar va boshqalar), elektron axborot tashuvchilardan (disketlar,



CD, DVD diskleri, o'rnatilgan va yechib olinadigan xotira kartalari, Internet jahon axborot tarmog'ida joylashtirilgan materiallar va boshqalar) iboratdir [4].

Tarqatish deganda esa O'zbekiston Respublikasi hududida, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i, axborotni uzatish va tarqatishning boshqa elektron vositalari orqali materiallarni sotish, yetkazib berish, tarqatish, yuborish va ularga obuna bo'lish tushuniladi [5].

O'zbekiston Respublikasi hududida diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish jamiyatda konfessiyalararo totuvlik hamda diniy bag'rikenglik buzilishiga olib keladigan, diniy zo'ravonlik va boshboshdoqlikka chorlaydigan g'oyalar hamda qarashlar tarqalishining oldini olish maqsadida dinshunoslik ekspertizasining ijobiy xulosasi olingandan keyin amalga oshiriladi. Ushbu sohada dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish uchun vakolatli organ O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida har kim fikrlash so'z va e'tiqod erkinligi, har kim istalgan axborotni izlash, olish, va tarqatish huquqiga egaligi mustahkamlanib qo'yilgan.

Davlat internet jahon axborot tarmog'idan foydalanishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Axborotni izlash, olish, va tarqatishga bo'lgan huquqni cheklash faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog'lig'ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta'minlash, shuningdek davlat yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo'lgan doirada yo'l qo'yiladi [6].

Afsusku, berilayotgan axborot erkinligi va oshkoralikdan foydalanib, davlat siyosati va amalga oshirilayotgan ijobiy o'zgarishlarga ham diniy mutaasiblik va ekstremistik nuqtai-nazardan baho berish holatlari uchramoqda. Aqidaparast oqimlar faoliyatini mehnat migrantlarini ta'sir doirasiga olish, "hujralar" tashkil etish, diniy ekstremistik mazmundagi materiallarni elektron ko'rinishda tarqatish, internet orqali targ'ibot o'tkazish kabi usullari orqali amalga oshirmoqdalar. Ular asosan yoshlarni o'z domiga tortishga urinmoqdalar.

Yoshlarni ushbu oqimlar ta'siriga tushib qolishlariga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- ❖ hayotdagi yo'nalishini to'liq anglab olmaganligi;
- ❖ qiziquvchanlik;
- ❖ diniy tushunchalarni shakllanmaganligi va bilimning pastligi;



- ❖ internetdan foydalanish madaniyati shakllanmaganligi.
- ❖ ishsizlik va bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalanmaslik;
- ❖ moddiy manfaat (*ushbu materiallarni tayyorlash, tayyorlashda ishtirok etish va tarqatish uchun yuqori haq to'lanishi*)
- ❖ huquqiy madaniyatning pastligi (*javobgarlik borasida tushunchalarning shakllanmaganligi*)

Ular targ'ibot va tashviqot ishlariga alohida e'tibor qaratadilar. Aksariyat xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlar o'zlarining tarkibiy tuzilmasida mediamarkazlariga ega va unda video, audio, foto va boshqa turdagi materiallarni yaratishni doimiy ravishda qo'llab-quvvatlaydilar va moliyalashtirib boradilar. Ushbu materiallar doimiy ravishda ijtimoiy tarmoqlar va veb sahifalarga joylashtirib boriladi. Ushbu materiallarning bir tarmog'i sifatida diniy nashidalarini aytishimiz mumkin.

Nashida so'zi lug'aviy jihatdan arab tilidagi "nashid" (*birlik*), "anashid" (*ko'plik*) so'zidan kelib chiqqan bo'lib "qo'shiqlar" degan ma'noni anglatadi [7]. Islomdagi ma'lum bir uslub yoki an'anaga ko'ra madhiyalar bilan qisman mos keladigan kapella yoki cholg'u asbobi bilan aytiladigan vokal musiqa janri hisoblanadi.

Ayrim fihiy mazhablarda (xususan Hanafiylikda ham) insonni ollohing zikridan chalg'ituvchi musiqalarni tinglash ijobiy tavsiflanmaydi ammo nashidalarini eshitishga ruxsat beriladi. Albatta islom olamida ijobiy va ezgu maqsadlarda yaratilgan va yaxshilikka da'vat etuvchi nashidalar ham mavjud. Ammo tanganing ikki tomoni bor ekanligini hech qachon unutmasligimiz kerak. Musiqa turli jihatlaridan inson psixologiyasiga albatta ta'sir ko'rsatadi. Undagi so'zlar albatta shaxsni harakatga keltira olish xususiyatiga ega. Xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlar tomonidan yaratilayotgan nashidalarini tayyorlash, tarqatish maqsadida saqlash, tarqatishning har qanday shaklini taqiqlashdan asosiy maqsad fuqarolarning ushbu nashidalarda targ'ib qilinayotgan destruktiv g'oyalari ta'siriga tushib qolishini va buning natijasida buzg'unchi g'oyali tashkilotlarga qo'shib ketishi, jamoat tartibi va jamoat xavfsizligiga turli xil tajovuzlar, diniy ekstremistik, separatistik va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan materiallar orqali xalqning ongini zaharlanishini oldini-olish hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda yana bir holat, ya'ni ayrim ota-onalar o'zlarining voyaga etmagan farzandlarini dunyoviy ta'lim olishlarini ta'minlash o'rniga, farzandlarini arab davlatlariga chiqarib yuborayotganligi, shuni alohida ta'kidlash joizki, ota-onalar farzandlarini arab tili va islom dinidan ta'lim olishlarini maqsad qilib, bu harakatlari oqibatida kelib chiqishi



mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini o'ylamasdan farzandlarini noqonuniy tashkil qilingan o'qishxona va "hujra"larga olib bormoqdalar, ulaning shaxsiy uyali aloqa vositalarni nazoratsiz qoldirayotganligi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganligi haqida qiziqmayotganliklari natijasida xalqaro terroristik va ekstremistik tashkilotlar yollovchilarining g'oyalari ta'siriga tushish xavfini oshirmoqda. Shu sababli ham terrorism va ekstremizmga qarshi kurashish yo'nalishida aniqlangan jami jinoyatlar o'tgan yillar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada oshgan bo'lsa, ushbu jinoyatlarni aynan yoshlar tomonidan sodir etilgani **60 foizdan** ko'proqni tashkil etganligi bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish lozimligidan dalolat beradi.

Eng achinarlisi, jinoiy javobgarlikka tortilgan yoshlarning **30 foizdan** ko'prog'i oliy ta'lim muassasalari talabalari hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu yo'nalishda ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan yoshlarni jami soni ham sezilarli darajada, ya'ni **35 foizga** oshgan [8].

Fuqarolar tomonidan tarqatilayotgan nashidalar asosan arab tilida yaratiladi va tarqatiladi. Arab tilini tushunmaydigan fuqarolar esa ushbu nashidani eshitib, uning kuyi va aytilish ohangi yoqqanligi sababli ma'nosiga tushunib-tushunmasdan boshqa tanishlariga ham ulashish payiga tushadilar. Buzg'unchilar tomonidan amalga oshiriladigan yana bir ayyorona taktikalardan biri bu turli xil hikmatli so'zlar yozib, hayotdagi ibratli voqealar qayd etilgan foto va video lavhalarga o'zlarining nashidalarini montaj qilib butun jahon internet tarmoqlari orqali tarqatib kelmoqdalar. Ularni ko'rgan faol kuzatuvchilar va internet foydalanuvchilari esa ushbu materialdagi so'zlar, rasm yoki videoga e'tibor beradilar ammo u bilan birga kuylanayotgan qo'shiqqa e'tibor bermaydilar. Ushbu "ibratli" videoni yoki rasmni o'z yaqinlari bilan bo'lishishga urinadilar ammo u bilan birga unga montaj qilingan nashidani ham bilib-bilmasdan tarqatadilar. Aslida, mutaassib oqim a'zolarining ushbu materiallarni internetga joylashtirishdan maqsadlariga e'tibor qaratish lozim. Ularning maqsadi "jihod", "hijrat", "shahidlik", "kofir bo'lish" kabi diniy tushunchalarni soxta talqin qilish orqali yoshlarimizni oilasi va yaqinlarining ta'siridan chiqarish, o'qish yoki ishidan ajratib olish hamda ularni qurolli to'qnashuvlar ketayotgan Suriya, Iroq, Afg'oniston yoki Pokiston kabi mamlakatlarga jo'natib, manqurt-jangari yoki "tirik bomba"ga aylantirishdan iborat. Ular internet ijtimoiy tarmoqlari orqali olib borilayotgan faol yollash ishlari bilan birga, Rossiya va Turkiya davlatlariga mehnat migratsiyasi maqsadida borgan Markaziy Osiyo davlatlari fuqarolari, shuningdek, Misr, Turkiya va Fors ko'rfazi davlatlaridagi musulmonlarning o'quv markazlari va oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlar orasida keng targ'ibot va yollash ishlari olib bormoqdalar. Mazkur



tashkilotlar o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida internet orqali quyidagi ishlarni amalga oshirib kelmoqdalar:

- ✓ milliy, irqiy, etnik va diniy adovatlarni qo‘zg‘atish;
- ✓ fuqarolarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri va masofadan (*internet tarmog‘i orqali*) g‘oyaviy ishlovdan o‘tkazish va yollash;
- ✓ terrorchining ijobiy obrazini yaratish;
- ✓ moddiy qiziqtirish;
- ✓ mamlakatning ijtimoiy muammolarini bo‘rttirib ko‘rsatish orqali davlatga ishonchsizlikni shakllantirish;
- ✓ o‘zlari tomonidan sharhlab o‘tilayotgan Islom dini va shariat qoidalarini ilgari surish.

Fuqarolar esa o‘zlari bilmagan holatda ushbu ishlarni amalga oshirishga sherik bo‘lib, ushbu materiallarning tarqalishiga sababchi bo‘lib qolmoqdalar. Qonunchilikka asosan esa qonunni bilmaslik yoki nashida ma’nosini tushunmaslik javobgarlikdan ozod qilmaydi ammo holatga qarab ushbu holatlar yengillashtiruvchi holat sifatida shaxsga jazo tayinlashda inobatga olinishi mumkin. Ayrim hollarda taqiqlangan diniy nashida tarqatgan shaxslar ushbu material taqiqlanganligi haqida sezadilar va buni tarqatish mumkin emasligini biladilar ammo o‘zlarining bu qilmishlari e’tiborsiz qoladi yoki uni topib javobgarlikka torta olmasliklariga ishonib ushbu materiallarni tarqatadilar.

Ushbu sohadagi munosabatlarni takomillashtirish maqsadida quyidagi o‘zgarishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- ❖ Umumta’lim maktablari, akademik litseylar va oliy ta’lim muassasalarida dinlar tarixi, psixologiya va milliy g‘oya fanlaridan dars beruvchi pedagoglar faoliyatini qayta ko‘rib chiqib, ularning malakasini oshirish;
- ❖ Yoshlar orasida muntazam ravishda terrorizm va ekstremizmning zararli ta’sirini oldini olishga qaratilgan g‘oyaviy targ‘ibot olib borish;
- ❖ Diniy ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar emissarlari tomonidan tayyorlanib, internet ijtimoiy tarmoqlarida tarqalayotgan materiallarga tegishli vakolat va obro‘ga ega bo‘lgan diniy soha vakillari tomonidan o‘z vaqtida raddiyalar berib borish;
- ❖ Zararli mafkura, ta’limot, oqim yoki tashkilotlarning ijtimoiy-psixologik jihatdan xavflilik (*xavfsizlik*) darajasi to‘g‘risida asosli xulosalar bera oladigan mutaxassislarni tayyorlash orqali yoshlarning turli ekstremistik va terroristik g‘oyalar ta’siriga tushib qolishining oldini olish;
- ❖ Taqiqlangan saytlar, video, audio va foto materiallar, ular joylashtirib



boriladigan ijtimoiy tarmoqlarni va shaxslarning akkountlarini bloklashning soddalashtirilgan tartibini belgilash;

❖ Mahallalarda doimiy ravishda targ‘ibot ishlarini va turli xil ko‘ngil ochar tadbirlarni tashkil etish orqali fuqarolarda vatanga muhabbat, uning manfaatlariga xizmat qilish rivojlanishi uchun o‘zining hissasini qo‘shishga undovchi chiqishlar, Vatanga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini yuksaltirishni tashkil etib borish;

❖ Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Ichki ishlar vazirligi bilan kelishgan holda maktablarda o‘quvchilarda terrorizm va ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, ularni radikallashuvini oldini olish maqsadida dastlabki tushunchalarni berib borish. Bunda kunning dolzarb mavzularini davra suhbatlari tashkil etish orqali yetkazib borish va bu mavzularda malakali mutaxassislar, amaliy tajriba va bilimga ega tezkor xodimlar va imomlarni jalb etib o‘quvchilar qiziqayotgan savollarga javob topishiga yordam berish tizimini tashkil etish;

❖ Mahallalarda ishsiz hamda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli uchrashuv va suhbatlarni yanada faol hamda muntazam o‘tkazish;

❖ Davlat idoralari, korxonalar va tashkilotlar xodimlari ishtirokida radikallashuvning oldini olishga qaratilgan individual suhbatlar o‘tkazib borish;

❖ diniy tashkilotlar bilan hamkorlikda internet olamidagi mavjud holatni tahlil qilgan holda aholi, jumladan yoshlarni buzg‘unchi, yot g‘oyalar bilan zaharlanishi hamda ular orqali dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishning oldini olishga qaratilgan foydali kontentlarni ko‘paytirish;

❖ yoshlardagi mafkuraviy bo‘shliqlar o‘rnini buzg‘unchi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi nashidalar egallashini oldini olish maqsadida ta‘lim muassasasida yoshlar ta‘lim olishi hamda oilada tarbiya olishi, ota-ona, qo‘ni-qo‘shni, mahalla faollari, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” tamoyili asosida ishlarni tashkillashtirish;

❖ taqiqlangan nashidalarning zararli ta‘siriga qarshi jamoatchilik immunitetini shakllantirish, shu maqsadda targ‘ibot-tashviqot ishlarini tizimli tashkil qilish;

❖ ommaviy axborot vositalari va internetdagi ijtimoiy tarmoqlarda radikallashuv, yoshlar ongining buzg‘unchi va yot g‘oyalar bilan zaharlanishi, dindan siyosiy maqsadlarda foydalanishning oldini olishga qaratilgan turkum ko‘rsatuvlar (ayniqsa taqiqlangan diniy nashida tarqatib javobgarlikka tortilgan yoshlarning taqdiri aks etgan), videoroliklar, eshittirish va maqolalarni yanada faol



berib borish

❖ Ommaviy axborot vositalari orqali kuylagan nashidalarini taqiqlangan shaxslarning ro'yxatini shakllantirish, shaxsiga ma'lumotlari va taqiqlangan nashidalarini aholiga doimiy ravishda yetkazib borish va ushbu ma'lumotlarni olishning tizimini soddalashtirish lozim bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, terroristik va ekstremistik tashkilotlar tomonidan tayyorlanayotgan va tarqatilyotgan, ularning faoliyatini keng targ'ib qilish faol qo'shilishni da'vat qiluvchi nashida, foto, video va audio materiallarni tayyorlash, namoyish etish, tarqatish, tarqatish maqsadida saqlash uchun davlat tomonidan javobgarlikning belgilanishi aholini ushbu turdagi tajovuzlardan himoya qilib, davlat va jamiyatning xavfsizligi va barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu sohadagi yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash, barvaqt oldini olish va ushbu sohadagi munosabatlarni takomillashtirib borish fuqarolarni ayniqsa, yoshlarni radikal g'oyalardan ta'siridan saqlash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.smartinsights.com/social-media-marketing/social-media-strategy/new-global-social-media-research>.
2. O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 iyuldagi "2021-2026 yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/5491626>.
4. O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 6 iyuldagi "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/5491534>.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 14 apreldagi "Diniy mazmundagi materiallarni tayyorlash, olib kirish va tarqatish hamda dinshunoslik ekspertizasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-5957921>.
6. O'zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 may kuni kuchga kirgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (33-modda). <https://lex.uz/docs/6445145>.
7. Mamadaliev A., O'zbek tilining izohli lug'ati. "N"- 27-b. https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20N.pdf.
8. Yakubov X.Sh., Diniy-ekstremistik g'oyalar ta'siriga tushgan shaxslar bilan ishlashning huquqiy, ijtimoiy-psixologik asoslari: O'quv-uslubiy qo'llanma. – T., 2023. – B.42.



УДК. 343.132:343.985:351.74

ORCID: 0009-0005-2988-8626

**ТЕЗКОР ЭКСПЕРИМЕНТ ТЕЗКОР-ҚИДИРУВ ТАДБИРИНИНГ
ТУШУНЧАСИ**

*Якубов Хушнудбек Шериббоевич,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Тезкор-қидирув фаолияти кафедраси
катта ўқитувчиси. 100197. Тошкент шаҳри, Интизор кўчаси, 68-уй.
Электрон почта: xushnud6982@gmail.com.*

**ПОНЯТИЯ ОПЕРАТИВНО-
РОЗЫСКНОГО МЕРОПРИЯТИЯ «ОПЕРАТИВНЫЙ ЭКСПЕРИМЕНТ»**

*Якубов Хушнудбек Шериббоевич,
старший преподаватель кафедры оперативно-розыскной деятельности
Академии МВД Республики Узбекистан. 100197, г. Ташкент улица Интизор
дом 68. Электронная почта: xushnud6982@gmail.com.*

**CONCEPTS OF OPERATIONAL
SEARCH EVENT "OPERATIVE EXPERIMENT"**

*Yakubov Xushnudbek Sheribboevich,
senior lecturer of the department of operational-search activities of the
Academy of the MIA of the Republic of Uzbekistan. 100197, 68 Intizor street,
Tashkent city. Email: xushnud6982@gmail.com.*

АННОТАЦИЯ

Долзарблиги: мақолада тезкор-қидирув тадбирларидан бири сифатида тезкор эксперимент тадбирини Ўзбекистон Республикаси қонунчилигидаги тушунчаси ҳамда тезкор-қидирув фаолиятининг жинойтларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш, уларга барҳам бериш ва уларни фош этиш, шунингдек жинойтларни тайёрлаш ва содир этишга дахлдор шахсларни аниқлаш ҳамда топиш асосий вазифаси илмий тадқиқ қилинган. Тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирига хорижий мамлакатлар қонунчилигидаги тушунчалар ўрганилган ҳамда тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирини тушунчаси



ҳамда тезкор-қидирув фаолияти вазифаси бўйича илмий-назарий хулосалар ва амалий таклифлар берилган.

Муаммонинг баёни: Бугунги кунда ички ишлар органлари тезкор бўлинмалари томонидан жиноятларни олдини олиш ва фош этишда тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирини ўтказишга оид ягона ёндашувнинг мавжуд эмаслиги, оғир ва ўта оғир турдаги жиноятларни фош этишда мазкур тезкор-қидирув тадбирини қўллашга оид қатъий қоидалар идоравий норматив ҳуқуқий ҳужжатларнинг нормаларида етарли даражада ўз аксини топмаганлиги ҳамда тадбир натижаларини расмийлаштириш, улардан фойдаланишга оид казус ҳолатларининг кузатилиши тадқиқот мавзусини янада долзарблаштиради.

Тадқиқот мақсади: ички ишлар органлари томонидан тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирини ташкил этиш ва ўтказиш тактикасини такомиллаштиришга қаратилган айрим жиҳатларини такомиллаштиришга доир илмий-назарий хулоса ва таклифлар ишлаб чиқиш.

Тадқиқот усуллари: умумий илмий, шу жумладан формал-мантиқий (синтез, умумлаштириш, дедукция ва индукция, абстракция), хусусий илмий (кузатиш, ҳужжатлар мазмунини таҳлил қилиш).

Натижалар ва асосий хулосалар: тезкор-қидирув фаолиятининг жиноятларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш, уларга барҳам бериш ва уларни фош этиш, шунингдек жиноятларни тайёрлаш ва содир этишга дахлдор шахсларни аниқлаш ҳамда топиш вазифасига нафақат жиноят балки ҳуқуқбузарликларни ҳам қамраб олишини қонунчилик даражасида белгилаш, тезкор эксперимент тезкор қидирув тадбири фақат “муайян ҳодисани қайтадан тиклаш йўли билан” эмас балки муайян ҳодисани биринчи мартаба яратиш билан ҳам амалга оширилишини инобатга олиб, тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирига -“ғайриҳуқуқий қилмиш содир этган ёки содир этиш ниятида юрган, шунингдек содир этишга тайёргарлик кўраётган шахсларни аниқлаш мақсадида тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи орган томонидан тўлиқ бошқариладиган ва назорат қилинадиган махсус шароитни қайта тиклаш ёки сунъий равишда вужудга келтиришдан иборат бўлган тадбир” ҳисобланади” деб таъриф бериш.

Калит сўзлар: тезкор-қидирув фаолияти, тезкор-қидирув тадбирлари, тезкор эксперимент, ҳуқуқбузарлик.



АННОТАЦИЯ

Актуальность: как одно из оперативно-розыскных мероприятий, понятие мероприятия оперативный эксперимент закреплено в законодательстве Республики Узбекистан и основной задачей оперативно-розыскных мероприятий является предупреждение преступлений, их выявление, ликвидация и разоблачение, а также выявление и розыск лиц, причастных к подготовке и совершению преступления были научно исследованы. В ходе изучены понятия в законодательстве зарубежных стран, а также сделаны научно-теоретические выводы и практические предложения по понятию оперативно-розыскного мероприятия оперативный эксперимент и задачам оперативно-розыскной деятельности.

Постановка проблемы: сегодня отсутствие единого подхода к проведению оперативно-розыскного мероприятия оперативный эксперимент при предупреждении и раскрытии преступлений оперативными подразделениями органов внутренних дел, строгие правила применения данного оперативно-розыскного мероприятия при раскрытии тяжких и особо тяжких видов преступлений привели к недостаточно отражены в нормах ведомственных нормативных правовых актов.

Цель исследования: разработка научно-теоретических выводов и предложений по совершенствованию отдельных аспектов деятельности органов внутренних дел, направленных на совершенствование тактики организации и проведения оперативно-розыскного мероприятия "оперативный эксперимент".

Методы исследования: общенаучные, в том числе формально-логические (синтез, обобщение, дедукция и индукция, абстрагирование), частнонаучные (наблюдение, анализ содержания документов).

Результаты и основные выводы: устанавливая на законодательном уровне, что оперативно-розыскная деятельность охватывает не только преступления, но и правонарушения в задаче предупреждения преступлений, их выявления, ликвидации и разоблачения, а также выявления и розыска лиц, причастных к подготовке и совершению преступлений, с учетом того, что проводится оперативный эксперимент не только путем "восстановления определенного события", но и путем создания, это также считается событием, заключающимся в восстановлении или искусственном воплощении особого состояния, которое полностью контролируется органом, осуществляющим



оперативно-розыскные мероприятия с целью выявления лиц, готовящихся к совершению".

Ключевые слова: оперативно-розыскная деятельность, оперативно-розыскные мероприятия, оперативный эксперимент, правонарушения.

ABSTRACT

Topicality: as one of the operational investigative measures, the concept of an operational experiment is enshrined in the legislation of the Republic of Uzbekistan and the main task of operational investigative measures is the prevention of crimes, their detection, elimination and exposure, as well as the identification and search of persons involved in the preparation and commission of a crime have been scientifically investigated. In the course of the concepts studied in the legislation of foreign countries, as well as scientific and theoretical conclusions and practical proposals were made on the concept of operational-investigative measures operational experiment and tasks of operational-investigative activities.

Problem statement: today, the lack of a unified approach to conducting an operational search event, an operational experiment in the prevention and disclosure of crimes by operational units of internal affairs bodies, strict rules for the use of this operational search event in the disclosure of serious and especially serious types of crimes have led to insufficiently reflected in the norms of departmental regulatory legal acts.

The purpose of the study: development of scientific and theoretical conclusions and proposals for improving certain aspects of the activities of internal affairs bodies aimed at improving the tactics of organizing and conducting an operational search event "operational experiment".

Research methods: general scientific, including formal-logical (synthesis, generalization, deduction and induction, abstraction), private scientific (observation, analysis of the content of documents).

Results and main conclusions: establishing at the legislative level that operational investigative activities cover not only crimes, but also offenses in the task of preventing crimes, detecting, eliminating and exposing them, as well as identifying and searching for persons involved in the preparation and commission of crimes, taking into account that an operational experiment is being conducted not only by "restoring a certain event", but also by creation, it is also considered an event consisting in the restoration or artificial embodiment of a special state that is completely controlled by the organ, carrying out operational search activities in order to identify persons preparing to commit".



Keywords: operational-search activity, operational-search actions, operational experiment, offenses.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар органларининг асосий вазифалари фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, жисмоний ва юридик шахсларнинг мулкани, конституциявий тузумни ҳимоя қилишдан, қонун устуворлигини, шахс, жамият ва давлатнинг хавфсизлигини таъминлашдан, шунингдек ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва профилактикасида иборатдир.

Аҳолининг тинч ва осойишта ҳаёт кечиришини таъминлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларга қарши курашиш, жамоат тартиби ва хавфсизлигини сақлаш масалалари Президентимиз томонидан олиб борилаётган давлат сиёсатида энг муҳим ва устувор ўрин эгаллайди. Дарҳақиқат, бу масала бугун юртимизда барча ижтимоий-иқтисодий ислохотларнинг муваффақиятли амалга оширилиши, мамлакатимизни модернизация қилиш ва янгилашнинг энг асосий шарти ва гаровидир.

Шунинг учун ҳам давлатимиз раҳбари томонидан ички ишлар тизимини тубдан ислох қилиш, унинг фаолияти самарадорлигини замонавий босқичга кўтаришдек ғоят мураккаб вазифа доимий равишда кун тартибига қўйиб келинмоқда ҳамда бу борада бир қанча қонун, Президентимизнинг фармон, қарор, фармойишлари, Ҳукумат қарорлари, шунингдек идоралараро ҳужжатлар, шу қатори Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар органларида тезкор-қидирув фаолиятини такомиллаштириш борасида ҳам бир қанча норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди.

Тезкор-қидирув фаолияти - Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 25 декабрдаги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-344-сонли қонунига кўра, **махсус ваколат берилган давлат органларининг тезкор бўлинмалари томонидан тезкор-қидирув тадбирлари ўтказиш орқали амалга ошириладиган фаолият туридир [1].**

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи 7 та органдан биттаси бўлиб, тезкор-қидирув фаолиятини асосий вазифалари бўлган, инсон ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатлари, юридик ва жисмоний шахсларнинг мол-мулки ҳимоя қилинишини, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигини таъминлаш, жиноятларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш, уларга барҳам бериш ва уларни фош этиш, шунингдек жиноятларни тайёрлаш ва содир этишга



дахлдор шахсларни аниқлаш ҳамда топиш, суриштирув, тергов органларидан ва суддан яшириниб юрган, жиноий жазодан бўйин товлаётган шахсларни, бедарак йўқолган шахслар ва қонунчиликда назарда тутилган ҳолларда бошқа шахсларни қидиришни амалга ошириш, шунингдек таниб олинмаган мурдаларнинг шахсини аниқлаш, шахс, жамият ва давлат хавфсизлигига таҳдид солаётган шахслар, ҳодисалар, ҳаракатлар (ҳаракатсизлик) ҳақида ахборот тўплаш вазифалари бевосита амалга оширади.

Жиноятчиликка қарши курашда тезкор-қидирув фаолиятини аҳамияти жуда катта бўлиб, биргина 2022 йилда ходимларнинг ташаббуси билан 38 810 та жиноят аниқланган бўлиб, мазкур амалиёт 18 фоизга яхшиланган. Хусусан: – 564 та “ҳужра”, 73 та ноқонуний намозхона, 66 та ноқонуний диний жамоат ҳамда 2 179 та интернет ва ижтимоий тармоқлар орқали ёт ғояларни тарқатиш ҳолатларига барҳам берилган; – ноқонуний муомаладан 2 тндан зиёд гиёҳвандлик воситалари ва 86,5 кг ёки тўрт баравар кўп психотроп дори-воситалари олинган; – қоидага зид равишда сақланган 1 447 дона ўқотар ов қуроли, 5 782 дона пневматик қурол ва жамоат жойларида олиб юрилган 67 301 дона совуқ қурол олиб қўйилган.

Шунингдек, республикада содир этилган жами жиноятларнинг 105 215 таси ёки 89,3 фоизи фош этилди, тергов органларидан яширинган 5 523 нафар шахслар ушланди, 386 нафар бедарак йўқолганлар топилиб, 17 та шахси номаълум мурдаларнинг шахси аниқланган; – 2 508 нафар шахслар томонидан содир этилган 2 011 та коррупция ва иқтисод соҳасидаги жиноятлар аниқланиб, улар оқибатида етказилган 197 млрд 137 млн сўм миқдордаги зарар ундирилиши таъминланган; – 418 нафар чегара қоидаларини бузган ҳамда 204 нафар одам савдоси жиноятини содир этган шахсларга нисбатан қонуний чоралар кўрилиши таъминланган; – республика миқёсида 81 млн 919 мингдан ортиқ фуқаролар иштирокида 162 643 мартаба ўтказилган оммавий-маданий тадбирлар давомида жамоат тартиби ва фуқаролар хавфсизлиги тўлиқ таъминланган [2].

Тезкор-қидирув фаолияти 16 турдаги тезкор-қидирув тадбирини ўтказиш орқали амалга оширилади, ушбу тезкор-қидирув тадбирлари турларидан бири тезкор эксперимент бўлиб, **тезкор эксперимент** — ғайриҳуқуқий қилмиш содир этган ёки унга тайёргарлик кўраётган шахсларни фош этиш ва аниқлаш мақсадида тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи орган томонидан тўлиқ бошқариладиган ва назорат қилинадиган шароитни муайян ҳодисани



қайтадан тиклаш йўли билан сунъий равишда вужудга келтиришдан иборат бўлган тадбир ҳисобланади [1].

Тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбири эксперимент тергов ҳаракати билан адаштирмаслик лозим, чунки улар бир-бирдан катта фарқ қилади, тезкор-қидирув тадбири ваколатли давлат органлари тезкор бўлинмалари томонидан амалга оширилса, тергов ҳаракатлари фақат жиноят-процессуал қонунда кўрсатилган субъектлар яъни суриштирув, тергов органлари ва суд томонидан амалга оширилади. Тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбири идоравий асосан махфийлик даражасига эга бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда кўрсатилган тартибда ноошкора куч ва воситалардан фойдаланган ҳолда ўтказилса, тергов эксперименти Жиноят-процессуал кодексида назарда тутилган қоидаларга кўра ошкора ўтказилади.

Эксперимент тергов ҳаракатини ўтказиш учун жиноят иши мавжуд бўлиши зарур бўлса, тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирини ўтказиш учун жиноят ишини мавжуд бўлиши шарт эмас, балки агар жиноят иши қўзғатиш учун етарли асослар бўлмаса, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органларга жиноятларни тайёрлаш, содир этиш аломатлари тўғрисида, шунингдек жиноятларни тайёрлашга ёки содир этишга дахлдор шахслар ҳақида аён бўлиб қолган маълумотлар мавжудлиги етарли асос бўлади.

Тергов эксперименти мустақил тергов ҳаракати бўлиб, жиноят ишини тергов қилиш жараёнида содир бўлган ҳодисанинг айрим вазият ва ҳолатларни тажриба усулида текширишдан иборат. Тергов экспериментининг моҳияти шундан иборатки, муқаддам бўлиб ўтган ҳодисаларни, жиноят ишига алоқадор бўлган ҳолатларни воқелиқда ҳақиқатдан бўлганлигини ёки бўлмаганлигини аниқлаш мақсадида, улар айнан маълум шароитларда тикланиб текширилади.

Ўзбекистон Республикаси Жиноят-процессуал кодексининг 153-моддасига кўра суриштирувчи, терговчи ва суд тергов жараёнида сўроқ қилинган шахсларнинг кўрсатувларини, бошқа далилларни шунингдек иш юзасидан қилинган тусмол, текширилаётган ҳодисага оид муайян ҳаракатлар, шароит ва ҳолатларни тиклаш ҳамда зарурий тажрибалар ўтказиш орқали текширишга ҳақли дейилган [3].

Тергов эксперименти бирор ҳодисани идрок қилиш, муайян ҳаракатларни бажариш, бирор ҳодисанинг содир бўлиш имкониятини текшириш, шунингдек



ходисанинг юз бериш ва изларнинг қолиш йўсинларини аниқлаш учун ўтказилади.

Энди тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирини тушунчасига қайтсак, бир қарашда ушбу таъриф тезкор-қидирув тадбирини моҳиятини тўлиқ очиб берган бўлиб кўрингани билан чуқурроқ кирилса айрим бўшлиқлар мавжудлиги кўзга ташланади.

Ўзбек тилининг изоҳли луғатида **“тезкор”** сўзи - форсчадан олинган бўлиб, – тез ишлайдиган, ишни тез, чаққон бажарадиган, жадал ишловчи, тезлик билан ҳаракат қилувчи, тезлик билан натижага эришишни таъминловчи маъносини, **“эксперимент”** сўзи эса латинча **“experimentum”** дан олинган бўлиб, аниқлаш, синаш, текшириш мақсадида ўтказиладиган илмий тажриба, синов, синов ишлари маъносини, **“қидирув”** сўзи – қидирмоқ, қидирув иши, судгача дастлабки тергов, жиноятга доир қўшимча далиллар тўплаш, **“тадбир”** сўзи эса арабчадан олинган бўлиб, амалга ошириш, рўёбга чиқариш учун йўл-йўриқ ва чора, мақсадни амалга ошириш йўлидаги иш, хатти-ҳаракат, маълум мақсадда ташкилий равишда амалга ошириладиган (бажариладан) иш маъносини беради [4].

Аввало тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирига таъриф берган ҳуқуқшунос олим ва мутахассисларни фикрларини ўрганиш лозим бўлади.

Муаллифлар жамоаси С.В.Бажанов, Л.А.Бакланов, Д.А.Васильченко, В.А.Гусев, М.С.Десятов, Д.В.Зенькин, В.Ф.Луговик, С.М.Лугович, А.С.Малахов, Е.П.Невский, А.В.Серов, А.Е.Чечетинлар томонидан тайёрланган Ички ишлар органларида тезкор-қидирув фаолияти. Умумий қисм электрон дарсликда келтирилишича тезкор эксперимент – тезкор-қидирув тадбири бўлиб, у тўлиқ бошқариладиган шароитларда ва амалга оширувчи органнинг назорати остида маълум бир ходисани келтириб чиқариш ёки ходисани такрорлаш ёки муайян тажрибалар ўтказиш учун ҳақиқатга имкон қадар яқин муҳитни сунъий равишда яратишдан иборат. Тезкор-қидирув тадбири, ўзига нисбатан қонунга хилоф фаолият кўрсатаётганлиги тўғрисида далиллар мавжуд бўлган шахсни тезкор экспериментда иштирок этганлиги тўғрисида хабардор қилмасдан, ушбу шахс томонидан ноқонуний хатти-ҳаракатлар содир этганлигини тасдиқлаш, шунингдек унинг олдини олиш мақсадида жалб қилган ҳолда, жиноятларни аниқлаш, уларга чек қўйиш ва фош этиш тушунилади [5].

Н.В. Румянцевнинг фикрига кўра, тезкор эксперимент – шароити кузатув остидаги шахсларнинг жиноий ниятларини намоён қилишга



ёки тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи орган назорати остидаги воқеани такрорлашга ёрдам берадиган вазиятни яширин тарзда яратиш, ўртача оғирликдаги, оғир ва ўта оғир жиноятларни аниқлаш, олдини олиш, уларга чек қўйиш ва очиш, шунингдек уларни тайёрлаган, жиноят содир этган ёки содир этган шахсларни аниқлаш мақсадида амалга оширилади [6].

Б.Я. Гавриловнинг фикрига кўра, тезкор эксперимент – зарур экспериментал ҳаракатларни ўтказиш, оғир ёки ўта оғир жиноятлар содир этишга тайёргарлик кўришнинг ҳолатини, бошқа ҳолатларини такрорлаш, шунингдек жиноят содир этишга алоқадор шахсларни қидириш ва аниқлаш мақсадида маълумот олиш усули бўлиб, тўпланган маълумотларни баҳолаш ёки жиноят содир этиш ҳолатлари, шунингдек унга алоқадор шахслар тўғрисида янги маълумотларни олишни ифодалайди [7].

А.Г. Маркушин тезкор экспериментни жиноятга тайёргарлик кўраётган, содир этаётган ёки содир этган шахсларни аниқлаш ва ушлаб туриш мақсадида яширин бошқариладиган ва назорат қилинадиган вазиятни (*кейинги ўринларда – муаллифлар томонидан таъкидланган*) яратиш орқали амалга ошириладиган ТҚТ деб таърифлаган [8].

Д.В. Ривман нуқтаи назаридан, тезкор эксперимент – бу кузатув остидаги шахсларнинг жиноий ниятларини намоён қилишга, уларнинг жиноий ҳаракатларининг бостирилишига ёрдам берадиган яширин бошқариладиган вазиятни сунъий равишда яратишдан иборат бўлган ТҚТ ва жиноий ҳибсга олиш тушунилади. [9].

Бошқа бир нуқтаи назар, оператив экспериментни вазиятни (шартларни, муҳитни) яратиш билан эмас, балки уни қайта ишлаб чиқариш билан боғлайди.

Е.С. Дубоносоз тезкор экспериментни жиноятга тайёргарлик кўриш ёки содир этишда асосли равишда гумон қилинаётган шахсларнинг ноқонуний ниятларини намоён қилиш учун яширин назорат қилинадиган шартлар ва объектларни кўпайтириш орқали маълумот олиш усули сифатида тушунишни таклиф қилади [10].

А.Е. Чечетин ҳам худди шундай таърифни бериб, тезкор экспериментни тезкор-қидирув чораси сифатида аниқлади, бу ноқонуний ҳодисанинг хатти-ҳаракатлари, вазияти ёки бошқа типик ҳолатларини такрорлаш ва жиноий ҳаракатларни бостириш учун зарур экспериментал ҳаракатларни амалга оширишдан иборат, уларни тайёрлаётган ёки содир этган шахсларни аниқлашга қаратилган [11]. Олимларимиз А.А. Хамдамов, Т.Р. Саитбаев, С.Н. Гордеев, Р.Т. Рашитходжаевлар ҳаммуаллифлигида тайёрланган Ўзбекистон



Республикасининг “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунига шарҳда тезкор эксперимент – оғир ва ўта оғир жиноятларни содир этганликда гумон қилинаётган шахсларнинг ғайриқонуний ниятларини намойиш этиш учун ноошкора назоратда бўлган шароит ва объектларни тиклашдан иборат тезкор-қидирув тадбиридир деб таъриф берилган [12].

Шунингдек, айрим хорижий давлатларнинг қонунчилигида тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирига берилган тушунчаларни кўриб чиқадиган бўлсак ҳам фарқли жиҳатлари намоён бўлади.

Украина Республикасининг тезкор-қидирув фаолияти тўғрисидаги қонунида тезкор-қидирув тадбирларини тури кўрсатилмаган бўлса, Қозоғистон ва Туркменистон Республикалари қонунларида тезкор эксперимент тезкор қидирув тадбири алоҳида тур сифатида кўрсатилмаган, Россия Федерацияси ва Абхазия Республикаси қонунларида тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбири тури сифатида кўрсатилган, лекин қонунда ҳуқуқий тушунчаси берилмаган.

Молдова Республикасининг 1994 йилги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунида тезкор эксперимент – олинган маълумотларни, тўпланган маълумотларни текшириш учун сунъий равишда яратилган бошқариладиган ёки назорат қилинадиган шароитларда шахснинг хатти-ҳаракатларини ёки шахснинг хатти-ҳаракати билан бевосита боғлиқ бўлмаган бошқа махсус экспериментал ҳаракатларни ўрганиш; қасддан жиноятга тайёргарлик кўриш, унга суиқасд қилиш ёки содир этиш тўғрисидаги маълумотларни аниқлаштириш учун тариф берилган [13]. 2012 йилги “Махсус қидирув фаолияти тўғрисида”ги янги қонунида “Товламачилик йўли билан олинган пул маблағлари ёки бошқа моддий бойликларни ўтказиш устидан назорат қилиш” деб тадбир номи ўзгартирилган [14].

Беларус Республикасининг 2015 йилги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунида Тезкор эксперимент – тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органнинг мансабдор шахси назорати остида ўзига нисбатан маълумотлар мавжуд бўлган фуқарони (фуқароларни) жалб этишдир. Унинг жинойий фаолияти тўғрисида, тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи орган томонидан тузилган, ушбу маълумотлар асосида вазият ушбу фуқаронинг (фуқароларнинг) тахмин қилинаётган жинойий фаолиятига имкон қадар яқин бўлиб, жиноят содир этиш учун муайян ҳодиса, шунингдек, тезкор-



қидирув фаолияти вазифаларини бажариш учун зарур бўлган маълумотларни олиш учун деб тариф берилган [15].

Қирғизистон Республикасининг 1998 йилги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунида Тезкор эксперимент – тезкор маълумот олиш мақсадида тезкор-қидирув фаолияти объектини махсус яратилган, тўлиқ бошқариладиган ёки назорат қилинадиган шароитларда яширин кузатиш белгиланган [16].

Озарбайжон Республикасининг 1999 йилги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунида оператив эксперимент – жинойи фаолиятни симуляция қилувчи хулқ-атвор моделидан фойдаланиш деб таърифланган [17].

Тожикистон Республикасининг 2011 йилги “Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида”ги қонунида **тезкор эксперимент** – муайян ҳодисани келтириб чиқариш ёки ҳодисани такрорлаш ёки муайян тажрибаларни тўлиқ назорат қилинадиган шароитларда ва таъсир остида ўтказиш мақсадида ҳақиқатга имкон қадар яқин муҳитни сунъий равишда яратиш таърифланган. Тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи органнинг ўзига нисбатан ноқонуний фаолият кўрсатаётганлиги тўғрисида далиллар мавжуд бўлган шахсни тезкор экспериментда иштирок этиши тўғрисида хабардор қилмасдан, ушбу шахс томонидан ноқонуний хатти-ҳаракатлар содир этганлигини тасдиқлаш мақсадида назорат қилиш; шунингдек, мулкка қарши жиноятларнинг олдини олиш, аниқлаш, уларга чек қўйиш ва фош этиш, иқтисодий фаолиятни амалга ошириш тартиби, жамоат хавфсизлиги ва соғлиғи, оғир, айниқса оғир жиноятлар ёки миллий хавфсизликка зарар етказиши мумкин бўлган жиноятлар қарз тушунчалари берилган [18].

Тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирига таъриф беришда, халқаро эътироф этилган тушунчаларни ҳам инобатга олиш лозим.

МДҲга аъзо давлатлар Парламентлараро Ассамблеясининг 1996 йил 2 ноябрдаги қарори билан қабул қилинган “Уюшган жиноятчиликка қарши курашиш тўғрисида”ги тавсиявий ҳуқуқий ҳужжатининг 26-моддасига кўра, тезкор эксперимент – бу ҳаракатлар, вазият ёки бошқа ҳолатларнинг такрорланиши, қонунга хилоф ҳодисанинг ҳолатлари ва жиноятнинг олдини олиш учун зарур экспериментал ҳаракатларни амалга ошириш, уни тайёрлаётган ёки содир этган шахсларни аниқлаш, шунингдек, айрим ноқонуний хатти-ҳаракатларни содир этиш ёки ноқонуний ҳаракатлар тўғрисида янги маълумотларни олиш имконияти тўғрисида тўпланган маълумотларни текшириш ва баҳолаш деб кўрсатилган. [19].



Бундан ташқари тадбирнинг мақсадида ғайриҳуқуқий қилмиш содир этган ёки унга тайёргарлик кўраётган шахсларни фош этиш ва аниқлаш кўрсатилган бўлиб, тезкор-қидирув фаолияти объектини ғайриҳуқуқий қилмишни қамраб олмаслигини кўришимиз мумкин.

Ғайриҳуқуқий қилмиш – ҳаракат ёки ҳаракатсизликда ифодаланадиган содир этилганлиги учун маъмурий ёки жиноий жавобгарлик назарда тутилган ҳуқуқбузарлик саналади [20].

Тезкор-қидирув фаолиятининг асосий вазифаларидан бири эса ҳуқуқбузарликларни эмас, балки жиноятларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш, уларга барҳам бериш ва уларни фош этиш, шунингдек жиноятларни тайёрлаш ва содир этишга дахлдор шахсларни аниқлаш ҳамда топишдан иборат.

Таъкидлаш жоизки, Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар органлари тезкор бўлинмалари 25 тадан ортиқ маъмурий жавобгарлик назарда тутилган қилмишлар, яъни -

- фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларига тажовуз қиладиган (туҳмат, ҳақорат қилиш, шахсий ҳаёт дахлсизлигини бузиш);

- аҳоли соғлиғини сақлаш соҳасидаги (енгил тан жароҳати етказиш, гийёҳвандлик воситаларини, уларнинг аналогларини ёки психотрон моддаларни оз миқдорда гайриқонуний равишда тайёрлаш, олиш, сақлаш, ташиш ёки жўнатиш, таносил касаллиги ёки ОИВ касаллиги/ОИТС юқадиган манбани яшириш);

- мулкка тажовуз қилувчи (оз миқдорда талон-тороғ қилиш, нодавлат тижорат ташкилотининг ёки бошқа нодавлат ташкилотининг хизматчисини пора эвазига оғдириб олиш, мулкни қасддан нобуд қилиш ёки унга зарар етказиш, топиб олинган мол-мулкни яшириш, моддий маданий мерос объектларига нисбатан ҳурматсизлик билан муносабатда бўлиш);

- савдо, тадбиркорлик ва молия соҳаларидаги (валюта бойликларини қонунга хилоф равишда олиш ёки ўтказиш, жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштиришга, терроризмни молиялаштиришга ва оммавий қирғин қуролини тарқатишни молиялаштиришга қарши курашиш тўғрисидаги қонунчиликни бузиш);

- жамоат тартибига тажовуз қилувчи (майда безорилик, диний мазмундаги материалларни қонунга хилоф равишда тайёрлаш, сақлаш, олиб кириш ёки тарқатиш, миллий, ирқий, этник ёки диний адоватни тарғиб қилувчи материалларни тайёрлаш, сақлаш ёки тарқатиш, қуролдан белгиланган



тартибни бузган ҳолда фойдаланиш, пиротехника буюмларининг қонунга хилоф муомаласи, Ўзбекистон Республикаси ҳудудида фуқаровий ва хизмат қуроли сифатида муомалада бўлиши тақиқланган ашёларнинг қонунга хилоф равишда муомалада бўлиши, фуқароларнинг хонаки усулда ҳозирланадиган ўткир спиртли ичимликларни сотиш мақсадида тайёрлаш ёки сотиш, этил спирти, алкогольли ва тамаки маҳсулотларини қонунга хилоф равишда ишлаб чиқариш ёки муомалага киритиш, вояга етмаган шахсни гайриижтимоий хатти-ҳаракатларга жалб қилиш, порнографик маҳсулотни тайёрлаш, олиб кириш, тарқатиш, реклама қилиш, намоиш этиш, тазйиқни, зўравонликни ёки шафқатсизликни тарғиб қилувчи маҳсулотни тайёрлаш, олиб кириш, тарқатиш, реклама қилиш, намоиш этиш, фоҳишалик билан шугулланиш, қимор ва таваккалчиликка асосланган бошқа ўйинлар);

- бошқарувнинг белгиланган тартибига тажовуз қилувчи (ўзбошимчалик, оммавий тадбирлар ўтказиш қоидаларини бузиш, йиғилишлар, митинглар, кўча юришлари ёки намоишлар уюштириш, ўтказиш тартибини бузиш, қонунчилик ҳужжатларини бажармасликга ёки бузишга омма олдида даъват қилиш, рухсат этилмаган йиғилишлар, митинглар, кўча юришлари ва намоишлар ўтказиш учун шароитлар яратиш, гайриқонуний нодавлат нотижорат ташкилотлари, оқимлар, секталарнинг фаолиятида қатнашишига ундаш, ёлгон ахборот тарқатиш, маъмурий назорат қоидаларини бузиш, қамоқда сақлаш жойларида, жазони ижро этиш муассасаларида, махсус даволаш-олдини олиш ёки махсус ўқув-тарбия муассасаларида сақланаётган шахсларга тақиқланган нарсаларни бериш, ўта муҳим ва тоифаланган объектларга кириш-чиқиш режимини бузиш ёки ушбу объектларнинг қўриқланишини таъминлашга доир мажбуриятларни бажармаслик, қимматбаҳо металллар ва қимматбаҳо тошлар тўғрисидаги қонунчиликни бузиш, рангли металлларни, уларнинг парчалари ва резги-чиқитларини, шунингдек қора металл парчалари ва резги-чиқитларини тайёрлаш, олиш, улардан фойдаланиш ҳамда уларни сотиш қоидаларини бузиш, қуролнинг қонунга хилоф муомаласи, паспорт тизими қоидаларини бузиш, чегара зонасига, шунингдек фуқароларнинг кириши ва бўлишига вақтинча чеклов белгиланган жойларга кириш ҳамда уларда яшаш қоидаларини бузиш, Ўзбекистон Республикасида бўлиш қоидаларини бузиш, диний ташкилотлар тўғрисидаги қонунчиликни бузиш, диний таълимдан сабоқ бериш тартибини бузиш) ҳуқуқбузарликларни аниқлаш ва фош этиш



мақсадида тезкор-қидирув тадбирларидан, шу жумладан **тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбиридан** ҳам фойдаланиб келинмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, тадқиқ қилинган тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирини тушунчаси ҳамда тезкор-қидирув фаолиятининг объекти юзасидан қуйидаги хулосаларга келинди:

- тезкор-қидирув фаолиятининг жиноятларнинг олдини олиш, уларни аниқлаш, уларга барҳам бериш ва уларни фoш этиш, шунингдек жиноятларни тайёрлаш ва содир этишга дахлдор шахсларни аниқлаш ҳамда топиш вазифасига нафақат жиноят балки ҳуқуқбузарликларни ҳам қамраб олишини қонунчилик даражасида белгилаш лозим.

- тезкор эксперимент тезкор қидирув тадбири фақат *“муайян ҳодисани қайтадан тиклаш йўли билан”* эмас балки муайян ҳодисани биринчи мартаба яратиш билан ҳам амалга оширилишини инобатга олиб, тезкор эксперимент тезкор-қидирув тадбирига - *“гайриҳуқуқий қилмиш содир этган ёки содир этиш ниятида юрган, шунингдек содир этишга тайёргарлик кўраётган шахсларни аниқлаш мақсадида тезкор-қидирув фаолиятини амалга оширувчи орган томонидан тўлиқ бошқариладиган ва назорат қилинадиган махсус шароитни қайта тиклаш ёки сунъий равишда вужудга келтиришдан иборат бўлган тадбир”* ҳисобланади” деб таъриф бериш мақсадга мувофиқ.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/docs/111460>.
2. Смирнов А.В., Калиновский К.В. Комментарий к УПК РФ. – Санкт-Петербург, 2019. – Б. 262–263.
3. Қулматов Ш.А. Жиноят-процессуал мажбуриятлар ва уларни бажармаганлик учун жавобгарлик: Монография. – Т., 2018. – Б.82.
4. Петрухин И.Л., Михайловская И.Б. Уголовно-процессуальное право Российской Федерации. 3-е издание. – М., 2013. – С.70.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Ички ишлар органлари тўғрисида”ги қонуни / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/acts/3027843>.
6. Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикаси миллий гвардияси тўғрисида”ги қонуни / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 18.05.2022 й., 03/22/770/0424-сон. <https://lex.uz/docs/5128310>.



7. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/docs/111460>;
8. Ражабов Б.А. Исбот қилишнинг умумий шартларига риоя этилишини таъминлашнинг ҳуқуқий механизмига оид муаммолар / XXI аср илм-фани: муаммо ва истиқбол: Республика илмий-амалий конференцияси материаллари (2019 йил 25 апрель) / Масъул муҳаррир Б.А. Матлюбов. – Т., 2019. Б.-59.
9. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/docs/111460>.
10. Кривощёков Н.В. Порядок деятельности и правовая регламентация задержания лица по подозрению в совершении преступления // Вестник Восточно-Сибирского института МВД России. – 2018. – №4. – С. 98.
11. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 14 майдаги ЎРҚ-617-сонли Қонуни таҳририда – Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.05.2020 й., 03/20/617/0585-сон.
12. Задержание с видеofиксацией // Народное слово. – 2020. – 7 апр.
13. Жиноят-процессуал ҳуқуқ: Дарслик // Д.М.Миразов, Б.Н.Рашидов, Ш.А.Кулматов ва бошқ. – Т., 2019. – Б. 150.
14. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/docs/111460>.
15. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси / Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон. <https://lex.uz/docs/111460>.
16. Копылова О.П. Меры принуждения в уголовном процессе: Учебное пособие / О.П. Копылова. – Тамбов, 2011. – Стр. 34.
17. Саидов Б. А. Ишни судга қадар юритишда шахснинг ҳуқуқ ва эркинликлари таъминланишини такомиллаштириш: Юрид. фан. д-ри (DSc) дис. ... Автореф. – Т., 2020. – Б.16.



PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN

*Mansurov Ezozbek Islamkhanovich
Juraev Dilshodbek Makhsutali ugli*

*Assistants of the Department of Information Technology,
Namangan institute of engineering and technology
e-mail: emansurov@gmail.com, Tel: +998931355374
dilshodbek.j.m@gmail.com, Tel: +998976229996*

Annotation. *This article describes the concept of the digital economy, the prospects for the development of the digital economy in Uzbekistan.*

Keywords: *digital economy, information society, digital technologies, e-government.*

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

*Мансуров Ёзозбек Исламханович и Жураев Дилишодбек Махсутали угли
Ассистенты кафедры информационных технологий, Наманганский
инженерно-технологический институт
электронные почты: emansurov@gmail.com, тел: +998931355374
dilshodbek.j.m@gmail.com, тел: +998976229996*

Аннотация. *В данной статье описывается понятие цифровой экономики, перспективы развития цифровой экономики в Узбекистане.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, информационное общество, цифровые технологии, электронное правительство.*

ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

*Мансуров Ёзозбек Исламханович ва Жураев Дилишодбек Махсутали ўгли
Наманган муҳандислик-технология институти информацион
технологиялар кафедраси ассистентлари
Электрон почталар: emansurov@gmail.com, тел: +998931355374*



dilshodbek.j.m@gmail.com, тел: +998976229996

Аннотация. Ушбу мақолада рақамли иқтисодиёт тушунчаси, Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни ривожланиш истиқболлари ёритилган.

Калим сўзлар: рақамли иқтисодиёт, ахборотлашган жамият, рақамли технологиялар, электрон ҳукумат.

Introduction. The digital economy is an economy that provides for the widespread introduction of electronic and information and communication technologies in the processes of production, distribution and consumption of public goods. The digital economy is an innovative idea, according to the World Bank in its 2016 World Development Report: Digital Dividends. In the digital economy, the management process (with professional staff) is a computerized interaction management system that carries out large-scale work on the active use of electronic information to meet the growing needs of mankind. For example, this includes forecasting, planning, organizing, executing, controlling, and coordinating system activities. That is, there should be a common integrated system for managing the national economic complex, based on the collection and analysis of data for the development and implementation of the country's development paths.

Signs of the digital economy are a high degree of automation, electronic document management, electronic integration of accounting and management systems, electronic databases, the presence of CRM (customer interaction systems), corporate networks. In the digital economy, the costs of payments are reduced (for example, trips to the bank and other resources are saved), more and faster information about goods and services is obtained, the possibility of entering the world market for goods and services in the digital world is wonderful thanks to fast feedback (consumer opinion) and rapid improvement of services.

While digital data is a valuable economic resource, it is only useful when it is transformed into digital thinking. With the advent of the digital economy comes the challenge of creating digital platforms and monetizing fast-growing digital data. It is important to identify ways to create value and remove barriers to these processes. It provides insight into the potential for value creation and distribution, value renewal, value management, and value capture. In the perspective of the modern development of big data technologies (Big Data), artificial intelligence, neurotechnologies, quantum technologies, the Internet of things, robotics and sensors, digital electronic platforms, cloud and mobile technologies, virtual and augmented reality



technologies, crowdsourcing, blockchain technologies, digital technologies such as cryptocurrencies, 3D technologies are becoming decisive.

Review of literature on the topic. Academician S. Gulyamov said: “The term digital economy is used to refer to two different concepts. Firstly, the digital economy is considered the modern stage of development, characterized by the priority of creativity and information benefits. Secondly, the digital economy is a unique theory, the object of its study is the information society.” [Gulyamov S.S., 2019]

Klaus Schwab, who substantiated the fact that the main factor of production in the digital economy is not capital, but human potential, explains that in the world of the future, not only the fourth industrial revolution, but also factors not related to technology, including demographic problems, geopolitical changes, the emergence of new specialties and professions. [Klaus Schwab, 2016]

Thomas Mesenburg E-business infrastructure (hardware, software products, telecommunications, networks, human capital, etc.), e-business (the way business is done, i.e. processes and communication networks carried out by an organization using any information), e-commerce as three aspects of the digital economy acts as the main component. [T. Mezenburg, 2001]

M. L. Kaluysky defines the digital economy as a communication environment for economic activity on the Internet and forms, methods, means and results of its implementation. [Kaluzhsky M.L., 2014]

Research methods. Empirical studies, systematic and comparative analysis, and cross-sectional analysis methods were used.

Analysis and results. The digital economy is believed to be bringing unprecedented change to more than half of today's industries. For example, according to World Bank experts, a 10% increase in the number of high-speed Internet users allows an annual increase in the gross volume of national economies by an average of 0.4-1.4%. The growth rate of the digital economy in the world is almost 20 percent per year. In developed countries, the share of the digital economy in the gross domestic product has reached 7%. They are already benefiting greatly from the introduction of the digital economy. In particular, the United States exports over \$400 billion worth of digital services annually. More than 5 percent of the country's gross domestic product is directly related to the Internet and information and telecommunications technologies. By 2025, the US will save an additional \$20 trillion from industrial digitalization. expected income in dollars. This economic



efficiency is particularly strong in consumer goods (\$10.3 trillion), automotive (\$3.8 trillion) and logistics (\$3.9 trillion).

According to the results of various studies, the weight of the digital economy in the global economy ranges from 4.5 to 15.5 percent. The United States and the People's Republic of China account for nearly 40 percent of the value added in the global information and communications technology sector and 75 percent of blockchain-related patents.

According to the statistics provided by the President of our country Sh. M. Mirziyoyev at an event dedicated to the development of information technologies on February 13, 2020, the share of the digital economy in the gross domestic product in the United States is 10.9 percent. , in China - 10 percent, and in India - 5.5 percent. In Uzbekistan, this figure does not exceed 2 percent.

To appreciate the growing importance and impact of digitalization, just look at the share of global market capitalization of several large technology companies and digital platforms over the past decade. In particular, according to the UN Conference on Trade and Development, in 2009 this figure was 16 percent, and by the end of 2018 it reached 56 percent.

In the context of such rapid changes and increased competition in the global community, the fact is that without the widespread introduction of innovations and digital technologies, we will not be able to sustainably develop the economy of our country and ensure its competitiveness in the near and far future, which, in turn, requires strengthening scientific and practical efforts. In this regard, in recent years, as part of comprehensive reforms to radically modernize our national economy, a number of measures have been taken to introduce digital technologies into the socio-economic life and public administration system of our country. In particular, an important step in the development of the digital economy was the adoption of the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-3832 dated July 3, 2018 "On measures to develop the digital economy in the Republic of Uzbekistan", and the most important tasks for the further development of the digital economy in our country were identified.

For example, the introduction of the "Electronic Government" system in our country is an integral part of the development of the digital economy, and its main goal is to simplify the transition from administrative procedures and procedures, to improve the quality of life of the population. population, and improve the investment and business environment.



Passage of administrative procedures in our country consistent measures are being taken to modernize and develop e-government, including systems for the provision of public services, aimed at simplifying, improving the quality of life of the population, and improving the investment and business environment. On November 21, 2018, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4022 “On measures to further modernize the digital infrastructure in order to develop the digital economy” was adopted. The decision defines the main tasks for creating conditions for the rapid development of the digital economy, further improving the public administration system, expanding the possibilities of its use, and using modern infrastructure.

On December 18, 2018, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. 5598 “On additional measures to introduce the digital economy, e-government and information systems into the public administration system of the Republic of Uzbekistan” was promulgated. In order to develop the digital economy, ensure the introduction of the "Electronic Government" system, create additional conditions for effective interaction between the population, business and the state, as well as in accordance with the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021, the Decree on electronic is intended to determine a purposeful the importance of public administration as a single national system to ensure effective interaction between the state, the population and business, as well as integration into the digital space of the world. By creating a single national distributor of projects, a single process will be established (development, design, approval, procurement of goods, works, services, as well as a single system for their commissioning). As a result, the system of providing public services in our country is constantly being improved, the investment climate and working conditions are improving.

On May 18, 2019, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-4321 was announced on measures to further improve the infrastructure of the Digital Economy and the Electronic Government system. The decision identifies important tasks for the consistent implementation of the main directions of reforms in the field of improving the digital economy and the Electronic Government system.

In order to implement the main tasks, as well as achieve the goal of developing a digital society in our country, creating convenient opportunities for residents and entrepreneurs, developing an effective and open public administration system free from bureaucratic obstacles and corruption factors, today it is necessary to update all sectors of the economy based on digital technologies. A national concept of the



“digital economy” is being developed, which is expected to create an opportunity to increase the volume of gross domestic product by an additional 30% due to the development of the digital economy.

In the address of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis dated January 24, 2020, the proposal to declare 2020 the Year of the Development of Science, Education and the Digital Economy literally confirmed the beginning of a historical turning point in the life of Uzbekistan in line with world development. It is difficult to imagine the economic development of the world economy in the context of globalization and technological development without the digital economy. According to research, by 2022 a quarter of global GDP will come from the digital sector. However, the fact that Uzbekistan ranks 103rd among more than 170 countries in the international index of development of information and communication technologies indicates that many issues remain to be resolved in this area in our country.

President Shavkat Mirziyoyev said: “At present, when the glorious power of our people is flourishing, the foundation of a new revival, the Third Revival, is being laid in Uzbekistan.”

To achieve such lofty goals, one of the main goals of the innovative development strategy of the Republic of Uzbekistan for 2019-2021 is the development of human capital, and the other is to enter the top 50 countries of the world according to the Global Innovation Index. rating by 2030.

The Republic of Uzbekistan ranked 122 out of 141 countries in the Global Innovation Index in 2015. In subsequent years, our republic was not included in this rating. 2020 has returned to the Global Innovation Index of Uzbekistan. This return is a positive result of the reforms being carried out in the new Uzbekistan. The fact that Uzbekistan took 93rd place and climbed 30 positions in the ranking is the result of the attention paid to science and resources aimed at innovative development. In recent years, investments in science, the formation of a regulatory framework, and most importantly, the conditions created for scientists and the freedom of creativity have determined our place in the Global Innovation Index. This can be seen as a step towards attracting investment in science and innovation in the future.

In particular, the implementation of more than 220 priority projects aimed at improving the e-government system, further developing the local software and information technology market, creating IT parks in all regions of the republic, as well as providing the industry with qualified personnel has begun. In addition, a comprehensive program "Digital Tashkent" is being implemented, which provides



for the launch of a geoportal integrated with more than 40 information systems, the creation of an information system for managing public transport and communal infrastructure, the digitalization of the social sphere, and the subsequent implementation of this experience in other regions.

The “Digital Uzbekistan-2030” strategy, approved by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated October 5, 2020 “On approval of the “Digital Uzbekistan-2030” strategy and measures for its effective implementation” No. PF-6079 defines its strategic goals, priorities and medium and long-term perspective objectives, and also serves as a basis for wider adoption of digital technologies based on the priorities set in the UN Sustainable Development Goals and the E-Government Development Index. Digital infrastructure, e-government, digital economy, the national digital technology market and education and training in the field of information technology are defined as strategic goals and priorities of digital development in the Digital Uzbekistan-2030 strategy.

In conclusion, it should be said that the qualitative development of economic sectors, the social sphere and the public administration system in the current period of human development and in the near future is directly related to the widespread introduction of digital technologies. The development prospects of our country also depend on the development of the digital economy and the level of digital inclusion. For this, it is appropriate to list the following main conditions and priorities for the development of the digital economy:

- creation of institutional environment and digital infrastructure, wide introduction of digital technologies;
- phased provision of full coverage with the ability to connect to the global Internet at the level of developed countries;
- scaling up training for the digital economy and training qualified programmers and engineers with in-depth knowledge;
- support for research work in the field of the digital economy, increasing "digital literacy" among the general population, supporting innovative projects in the scientific community and the private sector, stimulating "start-up" projects in the field of the digital economy;
- strengthening international cooperation in the digital economy.
- an increase in the number of products that require scientific knowledge and incomes of the population, an increase in various budget revenues;
- large-scale involvement of new types of industrial enterprises and modern technologies.

**Used literatures:**

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-6079 dated October 5, 2020 "On approval of the Digital Uzbekistan 2030 strategy and measures for its effective implementation" // www.lex.uz
2. Message from the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev to the Oliy Majlis on December 29, 2020 // www.lex.uz
3. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 28, 2020 "On measures for the widespread introduction of the digital economy and e-government" // www.lex.uz
4. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 2, 2020 "On the state program for the implementation of the action strategy in five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan for 2017-2021 in the Year of Science, Education and Digital Economy Development" // www.lex.uz
5. President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev's speech at an event dedicated to the development of information technologies on February 13, 2020 // www.lex.uz
6. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan PQ-4321 dated May 18, 2019 "On measures to further improve the infrastructure of the digital economy and the Electronic Government system" // www.lex.uz
7. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 18, 2018 No. 5598 "On additional measures to introduce the digital economy, e-government and information systems into the public administration system of the Republic of Uzbekistan" // www.lex.uz
8. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 21, 2018 "In order to develop the digital economy measures to further modernize the infrastructure" Decree No. PQ-4022 // www.lex.uz
9. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 3, 2018 "On measures to develop the digital economy in the Republic of Uzbekistan" No. PQ-3832 // www.lex.uz
10. Strategy "Digital Uzbekistan - 2030" // www.lex.uz
11. Gulyamov S.S. and others. Blockchain technologies in the digital economy. - Т.: "Economy-Finance", 2019.
12. Klaus Schwab. Fourth industrial revolution. - М. Eksmo., 2016. P.30
13. Kaluysky M.L. Marketing networks and e-commerce: an institutional approach. - М.; Berlin: Direct-Media, 2014. - P.402.
14. Mesenbourg T.L. Measuring of the Digital Economy //The Netcentric Economy Symposium. University of Maryland, 2001.
15. www.worldbank.org



YUQORI ENERGETIK SAMARADORLIKKA EGA VENTILYATSIYA TIZIMINI YARATISHNING ZAMONAVIY TENDENTSIYALARI

Sarvar Ganiev Tursunboyevich

*I.A.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti Olmaliq filiali katta o'qituvchisi*

Ganiyev_st@mail.ru

Abduraxmon Sotiboldiyev Yuldashevich

I.A.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Olmaliq filiali assistenti

abduraxmon.sotiboldiyev@mail.ru

ANNOTATSIYA

Bu maqolda shamollatishga bo'lgan energiya harajatlarining yuqori darajasiga toza havodagi shaxtaning real ehtiyoji bilan taqqoslaganda shamollatish qurilmasining yuqori samaradorligi, elektr yuritmadagi energiya yo'qotilishining nostatsionar xususiyati ta'sir ko'rsatadi, ular bosh shamollatish qurilmasi va quvvatlantiruvchi tarmoq ish tartibi, shuningdek boshqa bir qator omillarga bog'ligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: shaxta, shamol, ventilyator, samaradorlik, ventilyator.

Abstract: In this article, the high level of energy costs for ventilation is influenced by the high efficiency of the ventilation device compared to the real need of the mine in fresh air, the non-stationary nature of the energy loss in the electrical circuit, which depends on the operation of the main ventilation device and the power network, as well as a number of other factors passed.

Key words: mine, wind, ventilator, efficiency, ventilator

KIRISH

Shaxtalar, konlar, tunnellar, yer osti omborlari va boshqalar kabi yer osti inshootlarining ishlashi. havo tokining belgilangan parametrlari bilan shamollatish rejimini belgilaydigan me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlarni sun'iy shamollatishni talab qiladi. Shamollatiladigan ishlarning katta hajmi tufayli yer osti inshootlarini shamollatish yuqori energiya xarajatlari bilan bog'liq.

Energiyaning eng katta ulushi yer osti kon ishlarini - shaxtalar va konlarni shamollatishga to'g'ri keladi.

Shamollatishning energiya xarajatlari:



-havo bosimini yaratish N_a va vaqt birligiga konga kerakli miqdordagi toza havo kirishini ta'minlash bilan Q_a ,

-havo tokining kerakli issiqlik rejimini ta'minlash bilan,

-havo tokining qayta taqsimlanishi bilan,

- havo tokining qayta taqsimlanishi bilan bog'liqdir.

Konni shamollatish yehtiyojlari uchun yelektr yenergiyasining narxi tog' - kon korxonasi umumiy yelektr yenergiyasining 60 foizini tashkil yetishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

SHamollatish qurilmasi elektr yuritmalarni ishlab chiqish va tadqiq qilishda N.N. Petrov, V.V. Ivantsov, I.K. Kuz'min, M.V. Pronin, D.V. Zedgenizov, V.S. Leznov va boshqalarning ishlari ,chastotaviy-boshqariladigan shamollatish qurilmasining elektr yuritmasi bo'yicha (ChBYu) I.Ya. Braslavskiy, N.F. Pinskiy, A.B. Vinogradov, R.T. Shreyner, A.A. Bulgakov va boshqalar., shuningdek Branko Blanus, R. Krishnan, S. Thanga Raj va boshqalarning ishlari keng qamrovli o'rganib chiqildi.[1]

TAHLIL VA NATIJALAR

An'anaviy shamollatish texnologiyasidan foydalanganda, konga kiradigan havo miqdori eng noqulay sharoitlar asosida hisoblanadi, ular smenada o'zgarmagan deb hisoblanadi, bu esa ortiqcha havo iste'moli va samarasiz energiya sarfiga olib keladi. Yangi shamollatish texnologiyasini amalga oshirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

Birinchi bosqichning vazifasi konga havo yetkazib berishni kamaytirishga, ularni tashkil etish xarajatlari va ulardan foydalanishning iqtisodiy samarasini baholashga qaratilgan zarur texnologik tadbirlarni aniqlashdir. Turli xil variantlarni texnik-iqtisodiy tahlil qilish asosida shamollatishni boshqarishning maqbul strategiyasi havodagi zararli modmoslamar miqdori bilan belgilanadigan havoning minimal miqdori va shamollatishning maksimal sifati mezonlariga muvofiq tanlanadi. Xuddi shu bosqichda elektr ventilyatorlarining turi va kuchi, shaxta atmosferasining holatini kuzatuvchi datchiklarning soni va joylashishi, ishchi xodimlarning harakati, kon uskunalari va boshqalar. aniqlanadi. [2]

Ikkinchi bosqichda yangi texnologiyadan foydalanish samarasi kondagi aerodinamik jarayonlarni modellashtirish masalan," Smart VOD "yoki" Ventsim " maxsus dasturiy ta'minoti asosida aniqlanadi. (1-rasm) .



Ushbu ma'lumotlarga ko'ra, barcha konlar uchun toza havoga bo'lgan ehtiyoj hisoblab chiqiladi Bundan tashqari, konning shamollatish tarmog'ining modeliga, shu jumladan kon ishlarining chuqurligi, kesimi, uzunligi, joylashuvi va boshqa



parametrlari to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, havo massalarining harakatini hisoblash va barcha ventilyatorlarning kerakli ishlashi amalga oshiriladi. Hisoblash kerakli aniqlikka qarab Yeyler usuli yoki Navier-Stokes tenglamalari yordamida amalga oshiriladi .

Uchinchi bosqichda shaxtani shamollatishning alohida komponentlari va umuman butun tizim sinovdan o'tkaziladi.

To'rtinchi bosqich-tog' - kon korxonasida tizimning bevosita ishlashi. [3]





1-rasm.VENTSIM shaxta shamollatish tarmog'ini simulyatsiya qilish dasturining oynasi.

Angren shaxta konida yangi shamollatish texnologiyasini joriy etishni ko'rib chiqamiz.

Shamollatish qurilmasiga 3 Mvt quvvatga ega markazdan qochma ventilyatorlar o'rnatilgan.

Ventilyatorning konstruksiya parametrlari $Q_a = 570 \text{ m}^3/\text{s}$, $H_a = 6,5 \text{ kPa}$ maksimal havo tezligi $12 \text{ m}^3/\text{s}$. Kon korxonalarini rejalashtirishda kerakli havo 20% zaxira bilan hisoblanadi. [4]

Shamollatish tizimining yangi turini ishlab chiqishda quyidagilar vazifalar belgilab olinadi:

- dizel uskunalarini lokalizatsiya qilish va real vaqt rejimida uning holatini kuzatish;
- ishchi xodimlarning joylashuvini aniqlash;
- ventilyatsiya uskunalarini, shu jumladan barcha turdagi ventilyatorlar va havo toki regulyatorlarini boshqarish va optimallashtirish;
- konning turli zonalarida havo sifati va uning miqdorini nazorat qilish;
- shamollatish tizimining o'zgaruvchilarini baholash-bosim, harorat va havo toki;
- xavfli vaziyatning signalizatsiya moslamalarini ishga tushirish uchun havo sifati parametrlarining asosiy qiymatlarini shakllantirish.

Tavsiya etilgan shamollatish tizimining asosiy maqsadi tog'-kon ishlarining hozirgi holatiga muvofiq kerakli miqdordagi toza havo bilan ta'minlash va ortiqcha havo sarfini bartaraf etishdir.

Shamollatish tizimining energiya samaradorligiga ventilyator rejimlarini tartibga solish orqali erishish mumkin.

Hisoblash natijalari 1-jadvalda keltirilgan. Hisoblash konning ikki smenali ishi uchun 11,5 soat davomida davrni o'tkazish uchun smenalar orasidagi bir soatlik tanaffus bilan amalga oshirildi. Konning haqiqiy ehtiyojlariga ko'ra toza havoda shamollatish orqali xarajatlarni tejashga erishiladigan kunlar soni 355 kunni tashkil qiladi. Yil davomida ishlamaydigan vaqt 10 kun. Jadvaldan kelib chiqadiki, tavsiya etilgan shamollatish tizimidan foydalanish an'anaviy ravishda ishlatiladigan shamollatish texnologiyasiga nisbatan 50% ga nisbatan daromad keltiradi. [5]

1-jadval

Texnologik jarayon	Shaxtaning standart ish vaqti	Ventilyatsiya talabi bo'yicha ishlash	Yillik tejash
--------------------	-------------------------------	---------------------------------------	---------------



355 kun bir yil kon jadvaliga muvofiq ventilyator rejimini tartibga solish mumkin bo'lsa:			
Portlashdan keyin shamollatish	1 soat	1 soatdan kam. Vaqt farqi asosiy ventilyator ning hozirgi tezligiga bog'liq	Yiliga 355 soat
Xodimlar harakati va ishlamay qolish vaqti	Ventilyatorning to'liq yuklamasi	3.5 soat/smenada Asosiy shamollatish ventilyatorini ishchilar shamollatish zonasida yo'qligida 50 %ga samaradorligi tushurish.	Yiliga 2485 soat
Dizelli uskunasi o'chirilishi ishlab chiqarish vaqtida	Ventilyatorning to'liq yuklamasi	2.7 soat/smenada dizel uskunalari bo'lmaganda qo'shimcha ventilyatorlarning tezligini kamaytirish. Asosiy shamollatish ventilyatori toza havoga kerakli yehtiyojni ta'minlaydi.	Yiliga 1896 soat
Bayramlarda yoki ishlab chiqarish kunlari bo'lmaganda:			
10 kun. Ventilyator ishlashi 100% talab qilinmaydigan kunlar.	Ventilyatorning to'liq yuklamasi	Asosiy shamollatish ventilyatorini ishchilar shamollatish zonasida yo'qligida 50 %ga samaradorligi tushurish.	Yiliga 240 soat
Energiya qiymati 1000 so'm / kvh / soat bo'lgan umumiy iqtisodiy summa:			



Yillik xarajatlar	68,85 mlrd so'm	32.5 mlrd so'm	36.32 mlrd so'm (52,7%)
-------------------	-----------------	----------------	-------------------------------

XULOSA

Shaxta shamollatish tizimlarining past energiya samaradorligi shamollatish rejimini mantiqsiz tanlash va elektr yuritma va shamollatish tarmog'ida energiya yo'qotishlarining katta qismi natijasidir. Shamollatish narxini pasaytirish shamollatishni har tomonlama o'rganish orqali erishiladi tizimlar va ish joylarida havo toklarini oqilona taqsimlash bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, kon holatini doimiy monitoring qilish konda toza havoga bo'lgan haqiqiy ehtiyojga qarab atmosfera va ventilyator ish faoliyatini operatsion tartibga solish lozim. Energiyani tejaydigan shamollatish tizimini ishlab chiqish vazifalaridan biri ventilyatorning turi va quvvatini oqilona tanlash, shuningdek uning quvvatini tartibga solishning samarali usulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Olimjon Toirov, Mirzokhid Taniev, Muzaffar Hamdamov, Abdurakhmon Sotiboldiev(2023)
[Power Losses of Asynchronous Generators Based on Renewable Energy Sources
https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/71/e3sconf_icecae2023_01020/e3sconf_icecae2023_01020.html](https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/abs/2023/71/e3sconf_icecae2023_01020/e3sconf_icecae2023_01020.html)
2. Махмуджон Умурзакович Муминов, Абдурахмон Юлдашевич Сотиболдиев (2022)
